

ISSN: 2181-3027

21



SJIF: 4.995

doi

iD

# PEDAGOGS

International research journal

**Volume-21 Issue-2**

**November-2022**



# TAHRIRIYAT | EDITORIAL

**Editor in chief**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Executive Secretary**

Abdurahmonov Boburjon

*He is mathematic teacher at  
Uzbekistan District 49 Secondary School*

**Preparing for publishing**

Kholikov Tokhirjon Shavkatjon ugli

*CODEMI academy teacher*

**Bosh muharrir**

Saidova Mohinur Jonpo'latovna

**Mas'ul kotib**

Abdurahmonov Boburjon

*O'zbekiston tumani 49-umumiyl o'rta  
ta'lif maktabi matematika fani o'qituvchisi*

**Nashrga tayyorlovchi**

Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li

*CODEMI academiyasi o'qituvchi*

## TAHRIRIYAT KENGASH A'ZOLARI | EDITORIAL BOARD MEMBERS

**Inobatxot Mirzaraximova**

*Rishton tuman XTB mudiri*

**Umida Barzieva**

*Farg'ona viloyat xalq ta'lifi boshqarma metodisti*

**O'rionov Ahmadjon Qo'shaqovich**

*Farg'ona Davlat Universiteti, Matematika fanlari doktori, professor*

**Toshboltayev Muhammadjon**

*Toshkent mashinasozlik institute, Texnika fanlari doktori, Professor*

**Qodirov Nabijon O'lmasovich**

*O'zbekiston xalq ustasi, (usta kulol)*

**Turdiyev Azizbek Anvarovich**

*O'zbekiston madaniyat va san'at vazirligi, journalist*

**Ne'madaliyev A'zam Muhammadjonovich**

*Cyberlayn firmasi asoschisi, iqtisod fanlari nomzodi, PhD*

**Mohinur Saidova**

*Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

**Sharifaxon Xakimova**

*Farg'ona tumani 4-maktab matematika fani o'qituvchisi*

## TAHRIRIYAT MANZILI | EDITORIAL ADDRESS

**UZB: 712000. Farg'ona viloyati, Rishton shahri, Istirohat bog'i ko'chasi 24-uy**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30**

**ENG: 712000. Fergana region, Rishtan city, Park park street 24**

**[www.pedagoglar.uz](http://www.pedagoglar.uz), E-mail: info@pedagoglar.uz Tel: +998 90 905-14-30**

**PEDAGOGLAR.UZ**  
*Scientific Research Center*

# **PEDAGOGS**

*legal, medical, social, scientific journal*

**Volume-21, Issue-2, November–2022**

**IN ALL AREAS**



**ICI JOURNALS  
MASTER LIST**

SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISHDA KLASTER USULIDAN  
FOYDALANISH

*Tursunova Diloromxon Erkinjon qizi  
Namangan Davlat Universiteti magistratura lingvistika  
O‘zbek tili yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** ushbu maqolada tilshunoslik bo‘limining eng muhim bo‘limlaridan biri sanalgan Morfologiya va uning o‘rganish ob’yekti sanalgan so‘z turkumlari hamda ularni ona tili darslarida o‘rganish usullari haqida ma’lumotlar keltiriladi.

**Kalit so‘zlar:** zamonaviy ta’lim, metod, klaster, interfaol, so‘z turkumlari, texnik vositalar.

Insonning voqelikni idrok etishi, ijodiy faoliyatni amalga oshirishi, shaxs sifatida kamol topishi bevosita uning badiiy estetiklik darajasi bilan bog'liq bo'lib, butun hayoti davomida shakllantirishni, rivojlantirishni talab etadi. Estetik tafakkur shakllanib borgan sari ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy va ma'naviy intilishlar ham ortib boradi, hayotga bo'lgan qarashlarni o'zgartiradi. Zamonaviy pedagogikaning oldida turgan asosiy masalalardan biri ham o'quvchilarda badiiy estetiklikni shakllantirish hisoblanadi. Estetik madaniyatni shakllantirish – bu borliqdagi va san'atdagi go'zallikni to'liq idrok etadigan va to'g'ri tushunadigan shaxs qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan jarayon. U o'zida badiiy kechinmalar, qarashlar va e'tiqodlar tizimini aks ettiradi, haqiqiy estetik qadriyatlardan zavqlanishni ta'minlaydi. Shu bilan birga bu orqali o'quvchilarda turmushning hamma tomonlaridagi go'zallik unsurlarini ilg'ab olish, xunuklik, didsizlikka qarshi kurashga harakat qilishni tarbiyalaydi. Hozirgi davr, shart- sharoitlar o'quvchilarda badiiy estetiklikni shakllantirishning yangicha yondashuvini talab qilmoqda. Ushbu masalaga klaster usulida yondashish badiiy estetiklikning shakllanish manbaalarini aniqlash, ularni o'zaro birlashtirish va jarayonni jadallashtirish imkoniyatini yaratadi.

«Klaster» bitta sohaga birlashgan va bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lgan faoliyatlar tizimini nazarda tutadi. Badiiy estetiklikning shakllanishi ham huddi shunday kontseptual asosga ega jarayon bo'lib, uning shakllari, ko'rinishlari, uslublari va vositalari turlicha bo'lsa-da, maqsad shaxsni barkamol qilishdan iborat. Badiiy estetiklik go'zallik, san'at, ma'naviyat, sport, ulug'vorlik, did, histuyg'u va tasavvurni o'zida jamlaydi. Bu sohalarda o'z qarashlariga ega bo'lgan shaxs ma'naviy yetuk va barkamollikka erishadi. O'quvchilarning badiiy estetikligini shakllanishi oila, uzlucksiz ta'lim, ma'naviy-ma'rifiy ko'ngilochar

maskanlar, ommaviy-axborot vositalari, yoshlarning badiiy-ijodiy faoliyati orqali amalga oshadi.

Bizga ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishda interfaol metodlarning o'rni juda muhim. Bu metodlar yordamida qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish mumkinligi hech kimga sir emas. Shu boisdan ham zamonaviy ta'limda interfaol metodlarning katta e'tibor qaratilmoqda. Mazkur metodlar o'z mohiyatiga ko'ra o'quvchilarda bilish faolligini oshirish, ularni kichik guruh va jamoada ishslash, o'rganilayotgan mavzu, muammolar bo'yicha shaxsiy qarashlarini erkin ifodalash, o'z fikrlarini dalillar bilan asoslash, mulohazalar orasidan eng kerakli yechimni tanlab olish ko'nikmalarini shakllantira olishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Interfaol" tushunchasining mazmun-mohiyatiga to'xtaladigan bo'lsak, uning asosini "ikki taraflama harakat qilmoq", "ish ko'rmoq" kabi ma'nolar tashkil etadi. Demak, bu metodlar ham o'qituvchining, ham o'quvchining faolligiga asoslanadi.

Bugungi kunda ona tili darslarida interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish bu fan doirasida juda kata yutuqlarga erishish imkonini bermoqda. Ayniqsa, so'z turkumlariga oid mavzularni bu kabi yangi texnologiyalar yordamida yoritib berilishi o'quvchilarning Morfologiya bo'limiga oid bilimlarini yangicha qarashlar, xulosalar, nazariy bilimlar bilan boyitib boradi.

Ona tili darslarida "So'z turkumlari" mavzusini va mohiyatini ochib berishda bir nechta interfaol metodlarga to'xtalib o'tamiz.

**"Klaster".** Klaster" grafik organayzeri "Fikrlarning tarmoqlanishi" degan ma'noni anglatadi. Bu metod turi o'quvchilarning biron-bir mavzuni chuqur o'rganishlariga yordam berib, ularni mavzuga taalluqli tushuncha yoki aniq fikrlarni erkin va ochiq uzviy bog'langan ketma-ketlikda tarmoqlashni o'rgatadi. "Fikrlarning tarmoqlanishi" quyidagicha tashkil etiladi:

1. Xayolga kelgan har qanday fikr bir so'z bilan ifoda etilib ketma-ket yoziladi;
2. Fikrlar tugaguncha, yozishda davom etiladi va fikrlar tugasa, u holda yangi fikr kelgunga qadar biron rasm chizib turiladi;
3. Darsda imkon boricha fikrlarning va o'zaro bog'liqlik ketma-ketligini ko'paytirishga harakat qilinishi lozim.

Ona tili darslarida "So'z turkumlari" mavzusini yoritishda "Klaster" usuli beqiyos ahamiyat kasb etadi. Chunki bu metod orqali o'quvchilar mavzuga oid tushunchalar ustida ishlaydi. "Klaster" usulida so'z turkumlari tushuntirilganda o'quvchining diqqatini shu mavzuga qaratish maqsadida markazga so'z turkumlariga oid tushunchalar yoziladi. O'quvchilarlar mavzuga oid barcha fikrlarini markazning atrofiga joylashtirib yozadilar. Fikrlar bayon etilgandan so'ng har bir fikr yoki so'zni toifalarga ajratib chiqadilar.

“Klaster” usuli quyidagi maqsadlarga erishish uchun qo‘llaniladi:

1. O‘quvchilar so‘z boyligini oshirish;
2. Yozma nutqni takomillashtirish;
3. Fikrlash qobiliyatini shakllantirish;
4. Toifalarga ajrata olish qobiliyatini rivojlantirish.

So‘z turkumlari mavzusi ona tili ta’limida salmoqli o‘ringa ega bo‘lgani bois mazkur mavzularni qiziqarli va sodda, tushunarli tarzda bayon etish maqsadga muvofiq sanaladi. So‘z turkumlari va ularning tasnifini bilmasdan turib ona tilining boshqa bo‘limlarini o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyin kechadi. So‘z turkumlari haqidagi bilimlarni o‘quvchilarga oson va qulay yetkazishning yana bir samarali usuli “Beshinchisi ortiqcha” usulidir. Ushbu usulda so‘zlar o‘quvchilarga ketma-ketlikda beriladi. Ular bu ketma- ketlikdagi ortiqcha so‘zni belgilashlari lozim bo‘ladi.

Mazkur metod o‘quvchilardan o‘rganilayotgan mavzu (yoki bo‘lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Metodni qo‘llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

1. O‘qituvchi o‘zaro teng nisbatda mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalar tizimini yaratadi;
2. O‘quvchilar mavzuga (bo‘lim, bob) oid va oid bo‘lmagan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo‘lmagan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;

O‘quvchilar o‘z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o‘quvchilar tomonidan mavzuning puxta o‘zlashtirilishini ta’minalash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

Xullas, ona tili ta’limida bu kabi metodlar va usullardan foydalanish dars davomida o‘quvchilarning faolligini ta’minalash bilan bir qatorda ularni mavzu doirasida mustaqil fikrlashga hamda o‘z g‘oyalarini dadil ifodalashga o‘rgatadi.

### **Adabiyotlar:**

1. S.M. Abduxamidov. O‘quvchilarda badiiy-estetik tafakkurini rivojlantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida. Maktab va hayot. 2020 №2 30-31
2. Abdulla Sher. O’zME. Toshkent, 2000-2005.
3. Xusanov B. «Estetik tarbiya klasterining ta’limiy asoslari». Science and Education, vol. 1, no. 1, Nov. 2020, pp. 561-566.
4. Rizouddin ibn Faxriddin, Oila, T., 1991.

**ZAMONAVIY INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLOGIK  
BIRLIKLARINING KONTEKSTUAL MA’NOSI VA TARJIMA  
MASALALARINING XUSUSIYATLARI**

***Shodiyabonu Malikova Abduvoris qizi***

*Namangan davlat universiteti lingvistika 2 kurs magistratura talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqola frazeologik birliklarning birlamchi kontekstual xususiyatlarini aniqlab beradi va ularni ingliz tilida tasniflashga yordam beradi. Bundan tashqari, maqolada ingliz va o‘zbek tillaridan frazeologik konstruksiyalarni tarjima qilish jarayonida duch kelishi mumkin bo‘lgan masalalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, tilshunoslik, tarjima nazariyasi, til, kontekst, kontekstual xususiyat, tasnif, tarjima masalasi, idioma.

**Аннотация.** Данная статья выявляет основные контекстуальные признаки фразеологизмов и помогает их классифицировать в английском языке. Кроме того, в статье рассматриваются вопросы, с которыми можно столкнуться в процессе перевода фразеологических конструкций с английского и узбекского языков.

**Ключевые слова:** фразеология, лингвистика, теория перевода, язык, контекст, контекстуальный признак, классификация, проблема перевода, идиома.

**Abstract.** This article defines primary contextual features of phraseological units in general and promotes their classification in English language. Moreover, the article discusses the issues that may be faced in the process of the translation of phraseological constructions from in English and Uzbek languages.

**Keywords:** phraseology, linguistics, translation theory, language, context, contextual feature, classification, translation issue, idioms.

### **KIRISH**

Hozirgi zamон tilshunoslida tilda frazeologik birliklarning rivojlanishini madaniy jihatdan o‘rganishi til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni ko`rsatadi, chunki turg`un iboralar tilning boshqa lingvistik birliklariga qaraganda xalq hayoti bilan bog`liqdir. Ular ko‘p asrlik hayotiy tajribalar, hozirgi kungacha davom etib kelayotgan an'ana va marosimlar asosida shakllangan. Shunday qilib, aqliy fazilatlar aniq seziladi. Ayniqsa, frazeologik birliklar tarkibida onomastik komponentlar mavjud bo`lganda, bu xususiyat yanada yorqinroq namoyon bo`ladi. Sababi, onomastik birliklar xalqning o`tmishi bilan bugungi hayotini bog`lovchi ko`prik bo`lib qolgan. Binobarin, turli tizimli tillardagi frazeologik birliklarni, ularning etimologiyasi, tuzilishi, semantikasini alohida o`rganish, tasnifini yaratish tilshunoslikning muhim

vazifalaridan biridir. Ma‘lumki, jahon tilshunosligida frazeologik birliklar bo`yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Binobarin, L.A.Bulaxovskiyning asarlari, A.V.Kunin, L.Qulieva, K.Musaev, I.S.Stepanova, E.F.Arsenteva, I.N.Isabekov, A.V.Urazmetovaning asarlari bu borada katta ahamiyatga ega. Turli tillar tizimida E.F.Artsenteva inson tabiatini ifodalovchi frazeologik birliklarni qiyosiy tahlil qildi; I. Stepanova gul nomlari bilan bog'liq frazeologik birliklarning rus va ingliz tillari tizimini ko'rib chiqdi. I.Isabekov qirg`iz va rus tillaridagi frazeologik birliklarni tarjima qilish muammolarini o`rgangan. Bu boradagi muhim tadqiqotlardan biri Z.K.Korzyukovaning «Ingliz tilidagi o`ziga xos nomlar bilan frazeologik birliklarning funksiyasining asosiy jihatlari» mavzusidagi dissertatsiya ishidir. Uning tadqiqotida ingliz tilshunosligidagi frazeologik birliklarning eng muhim xarakteristikasi nomuvofiq komponentlar sifatida ko`rsatilgan bo`lib, Kuninning «Inglizcha-ruscha lug`at»i asosida tahlil qilingan. U o`z tadqiqotida iboralarning etimologiyasi, lingvistik va ruhiy xususiyatlari, tasnifiga ham katta ahamiyat bergen.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

O‘zbek tilshunosligida Sh. Rahmatullayev frazeologik birliklarning izohli lug`atini tuzdi. A.E.Mamatov o‘zbek tilida frazeologik birliklarning shakllanish omillarini monografiya qildi. B.Reimov odamning emotsiunal holatini ifodalovchi frazeologik birliklar ustida tadqiqot olib bordi, G. E. Hakimova zoologik nomli frazeologik birliklarni o`rgangan, M. Vafoeva o‘zbek tilidagi frazeologik sinonimlarni tadqiq qildi, U.Rashidova o‘zbek tilining somatik ifodalarini maxsus o`rgangan. Biroq turli tillardagi joy nomlarini o`z ichiga olgan frazeologik birliklar to`liq o`rganilmagan. Ushbu tadqiqotda biz onomastik komponentli frazeologik birliklarning xususiyatlari va tuzilishini keng yoyish va tasniflashga alohida e’tibor qaratilib, turli tizimli tilshunoslik materiallari hamda ingliz, rus va o‘zbek tilshunosligi bo‘yicha olib borilgan monografiya va dissertatsiyalar asosida o‘rganiladi. . Rus tilshunosi L.A.Bulaxovskiy onomastik komponentli frazeologik birliklarning kelib chiqishini quyidagicha ta‘riflaydi. 1) maqol va hikoyalar asosida shakllangan; There is many a slip twixt the cup and the lip — irg`ib o’tmay «xo’p» dema, oldindan hovliqma, tug`ilmagan buzoqqa qoziq qoqma. Cut the Gordian knot yoki cut the knot — chigal masalani yechimini topmoq; = kalavaning uchini topmoq. 2) kasbiy lug`at asosida shakllangan; go for a Burton – o‘lmoq, ko‘z yummoq, izsiz yo‘qolmoq. Barton – Staffordshir viloyatidagi pivo ishlab chiqaradigan kichik shahar. Write in water — (k.q.i.) bekordan bekorga mehnat qilmoq. 3) hazil va latifalar asosida tuzilgan; The smell of the lamp — (s.s.) chiroq hidi (birikmada yozuvchi o`z asarini yozayotganda unga nur taratayotgan lampadagi moy hidi haqida so`z bormoqda); zo`rma-zo`raki, sun`iy. apple of Sodom – chiroqli, ammo aynigan ho‘l meva; 4) injildagi tasvirlar va parchalardan kelib chiqqan; Adam‘ apple – qo‘shtomoq, kekirdak olmasi; A forbidden fruit – ta‘qiqlangan ho‘l meva 5) antik dunyo mamlakatlari ta’sirida shakllangan;

Achille`s heel yoki the heel of Achille`s — Axilles tovoni; yagona zaif tomon, joy. Cassandra warnings — (k.u.) mensilmayotgan, lekin ayni vaqtida sodir bo`layotgan biror voqea haqida ogohlantirish. 6) xorijiy iboralar tarjimasi asosida shakllangan; The golden age — oltin asr. Ibora birinchi marta shoir Gesiodning «Mehnatlar va Kunlar» she`rda uchragan. She`r Saturn davrida yozilgan bo`lib, bu davrda odamlar hudolardek tashvishsiz, janjalsiz, urushlarsiz, og`ir majburi mehnatlarsiz yashashgan. The horn of plenty — osmondan yog`ilgan, juda serob, mo`l-ko`l. 7) adiblarning hikmatli so`zлari asosida shakllangan; Lares and Penates — (k.u.) o`z uying — o`lan to`shagging. Lar va Penat qadimgi rimda uy o`choqlarining homiylari bo`lishgan. Rise like a phoenix from its ashes — (k.u.) kuldan qaqnus yaralgandek. 8) mashhur kishilarning hayotiy tajribalaridan olingan iqtiboslar asosida shakllangan; The unwritten law — yozilmagan qonun. Platonning falsafiy asarlaridan keltirilgan iboralar: Hercules` Pillars yoki the Pillars of Hercules — 1) chek, chegara, had. Qadimgi odamlar nazarida Gibraltar bo`g`ozining qirg`oqlarida qarama-qarshi joylashgan ikki qoya, ya`ni hozirgi kundagi Gibraltar va Seuta qoyalari qadimgi xalqlar yashovchi quruqliklar tugaydigan joyni bildirgan; 2) (k.m.) qadimgi yunon afsonasiga ko`ra Gerakl butun Yevropa va Afrikaning Liviya davlatidan to`xtovsiz yurib o`tgan va o`z sayohatining estaliklari sifatida Gerkules ustunlarini qo`yib chiqqan. Frazeologik birliklar butun dunyo xalqlarining o`ziga xosligi, turmush tarzi, moddiy va ma`naviy qadriyatlar, tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o`z tiliga yetkazishda beqiyos o`rin tutadi. Frazeologik birliklar shaxslarning til birliklaridan qanday foydalanishi, shuningdek, ulardan foydalanishi tartibga soluvchi asosiy qoidalar va til normalari bilan bog'liq. Frazeologik birliklarning nutqda qo`llanilishi, ularning qo`llanilishini milliy-madaniy umuminsoniylik, differensial va paradigmatic xususiyatlar, xalq og`zaki ijodidan adabiy tilga o`tish yo`llari, semantik xususiyatlar, badiiy-uslubiy imkoniyatlar, shakl va ma`no jihatidan tarjima muammolari nuqtai nazaridan tushuntirish. , ularning milliy tildagi o`rnini yoritish muhimligi, zamonaviy tilshunoslikka mos lug`atning majburiyligi keltirilgan. Frazeologik birliklarning kontekstual xususiyatlari haqida gapirganda, frazeologik tuzilmalarni kontekstga ko`ra tasniflash mavjudligini aytish mumkin, ular frazeoma va idiomalar sifatida belgilanadi. Bu turdagи frazeologik birliklarni aks ettiruvchi kontekstual xususiyatlarni dastlab professor A.V.Kunin ajratgan. Frazeologik va frazeomatik birliklar erkin so`z birikmalari va qo`shma so`zlardan frazeologik barqarorligi bilan ajralib turadi. Barqarorlik nazariyasi professor A. V. Kunin tomonidan ham ishlab chiqilgan. A.V. Kunin barqarorlikni quyidagi elementlarni o`z ichiga olgan ko`p qirrali tushuncha sifatida ko`rib chiqadi: 1. Foydalanishning izchilligi. Bu frazeologik birliklar nutqda hosil bo`lmay, balki tayyor holda takrorlanishini ko`rsatadi. 2. Leksik turg`unlik – frazeologik birliklarning frazeologik tafovut doirasida almashtirib bo`lmaydigan (masalan, qizil tasma, toychoq uyasi) yoki qisman almashtirilishini bildiradi: leksik (shkafdagи skelet – shkafdagи

skelet, ko`r cho`chqa. – ko`r yo`lbars), grammatic (tosh yurak – tosh yurak), pozitsion va aralash variantlar. 3. Frazeologik birliklarning leksik barqarorligi semantik barqarorlikni aniqlash uchun ishlataladi. Frazeologik birlikning ma'nosи kichik o'zgarishlarga qaramay saqlanib qoladi. Uni faqat aniqlash, aniqlashtirish, kamaytirish yoki kuchaytirish mumkin. 4. Sintaktik izchillik. Kuninning fikricha, bu turg'unlik sifatlaridan biriga ega bo'lman har qanday frazeologizmni frazeologik birlik deb hisoblash mumkin emas. Shu munosabat bilan o`ziga xos xususiyat sifatida faqat idiomalarga ega bo`lgan, o`ziga xos buzilmaydigan frazeologik bir xil tuzilishga ega bo`lgan ingliz tilidagi idiomalarni boshqa tilga tarjima qilish masalasi mavjud. Idiomalarning leksik, semantik va lingvistik xususiyatlarini saqlab qolish juda qiyin ish. Genetika nuqtai nazaridan ma'lumki, ingliz tilining tuzilishi o`zbek tilining tuzilishidan farq qiladi; ular alohida til oilalariga mansub. Natijada turli tillarning grammatic tuzilmalari bir-biridan farq qiladi. O`zbek tilida bir qancha affikslar mavjud, masalan; ibora ot bilan boshlanib, fe'l bilan tugaydi; predloglar, maqolalar yoki jins toifalari mavjud emas. Ingliz tilida esa artikl, predlog va affikslar mavjud. Natijada, so'zlarni, iboralarni, jumlalarni va ayniqsa idiomalarni tarjima qilishga urinish ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Qolaversa, ingliz va o`zbek idiomalarining shakl va ma'nodagi o'zaro farqlari tarjimani muammoli qiladi. Masalan, « hot under the collar» so`zmaso`z «yoqa ostidagi issiqlik» (yoqa tagida issiqliq) deb tarjima qilingan bo`lsa, «tepa sochi tikka bo`ldi» bu iboraning o`zbekcha variantidir (hair stand on end). Misoldan ko`rinib turibdiki, idiomalarning o`zlashtirilishidagi qiyinchilik shakl va ma'no jihatdan nomutanosiblik bilan bog`liq. Shuni ta'kidlash kerakki, idiomalarni ingliz tilidan boshqa tilga tarjima qilish juda qiyin. Ularning ko'pchiligi yorqin, ixtirochi, lakonik va noaniq bo`lganligi sababli, bu shunday. Tarjima qilishda iboraning mazmunini ifodalashgina emas, balki uslubiy maqsadni yodda tutgan holda uning obrazliligini ham ko`rsatish muhimdir. Idiomalarni tarjima qilishda tarjimon mahalliy tilda ekvivalent atama topib, idiomalarning stilistik vazifasini saqlab qolgan holda, ularning mazmuni va obrazliligini uzatishi kerak. Mahalliy tilda bir xil tasvir bo'lmasa, tarjimon "taxminan moslik" bilan kifoyalanishga majbur bo'ladi. Frazeologik birliklarga misollar mavjud: At seventh hour – tepagi daqiqada, eng tepagi odamda. Beat swords into plow-shares – qilichlarni bo`lg`alab, o'moch yasamoq, tinch mehnatga o'tmoq, tinch kunlarga yetib kelmoq. The breath of the nostrils – hayotiy zarurat, suv va havodek zarur. Cast one`s bread upon the waters - suvgaga non uloqtirmoq; tuzatishini o'ylamay biror ish qilmoq. The olive branch - zaytun shohi; tinchlik va osudalik timsoli. The root of evil -yovuzlikning ildizi; mol-dunyoga muhabbat. Heap coals of fire on somebody`s head -uyaltirmoq, yomonlikka yaxshilik bilan javob qaytarmoq. XULOSA Turli tillarda bir xil real ma'noga ega bo`lgan so`zlarning bajaradigan semantik va stilistik vazifalaridagi farqlar, shuningdek, bunday so`zlarning turli tillarda kirib keladigan birikmalardagi farqlari

ham amaliyot, ham tarjima nazariyasi uchun nihoyatda muhim. Ular ko'pincha katta amaliy qiyinchiliklar tug'diradi va katta nazariy qiziqish uyg'otadi, chunki ular bir xil real ma'noga ega bo'lgan so'zlarning turli tillarda bajaradigan semantik va stilistik vazifalaridagi farqlar va bunday so'zlar turli tillarda kirib keladigan birikmalar farqlari bilan bog'liq.

### **REFERENCES**

1. Jalilova Nilufar Dilshodovna (2019). O`zbek va ingliz tillarida idiomalarni taqqoslashning lingual tahlili. Vestnik nauki i obrazovaniya, (20-2 (74)), 48-52.
2. Safaraliev, Bozor professor; Bakiyeva, Gulandom professor; va Nasrullaeva, professor Nafisa (2020) «INGLIZ VA O`ZBEK IDIOMATIK iboralarni tekshirishning LINGVOULTURAL ASPEKTTI», Filologiya masalalari: jild. 2020: Iss. 3 , 3-modda.
3. Haydarov A., Choriyeva Z. Ingliz tilida fraze birliklarning semantik-grammatik va uslubiy psixologik. Tilning leksik-semantik tizimi va qiyosiy tipologik izlanishlar: baholash, dioxroniya materiallari to'plami. - T.: Muharrir. 2012. –B.8-10. 6. Haydarov A., Jo`raqulova G
4. Narimonova Z. Frazeologik iboralarning tarjimasi haqida. -T.:O`zMU. 2007 yil.
5. Mirzayeva, D. (2021). PROVERBS AND SAYINGS AS A PRODUCT OF THE NATION'S COGNITIVE THINKING. In Multidiscipline Proceedings of Digital Fashion Conference (Vol. 1, No. 2).

**MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISHDA INTERFAOL  
METODLARDAN FOYDALANISH**

**Xaydarov Sanjarbek Dexqonboyevich**

*Samarqand viloyati Payariq tumani 76 -maktab*

*Matematika fani o`qituvchisi*

*Matematika informatika fanidan metodbirlashma rahbari*

**Annotatsiya:** Maqolada matematika darslarida interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlari va afzalliklari xususida so`z yuritiladi.

**Kalit so`zlar:** maktab, ta’lim-tarbiya, interfaol, o`qituvchi, o`quvchi, ma’naviyahloqiy tarbiya dars, metod...

**THE USE OF INTERACTIVE METHODS IN TEACHING MATHEMATICS**

**Annotation:** The article discusses the possibilities and advantages of using interactive methods in mathematics lessons.

**Key words:** school, education, interactive, teacher, pupil, spiritual-moral education, lesson, method.

Bugungi kunda mamlakatimizda bo`layotgan ulkan bunyodkorlik ishlari, ta’limtarbiya sohasida qabul qilingan qonun va qarorlar “Milliy dastur”imizda belgilab berilgan buyuk maqsadlar hozirgi kun o`qituvchisini yanada ko`proq mehnat qilishga, izlanishga da’vat etmoqda. Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo’lishi, eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o’rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko’lamini hosil qilish, ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta’limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bilan bog’liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish yosh avlodni komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog’liqdir. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasi (1997 yil 29 avgust) da qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining “Ta’lim to’g’risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” mazmunida barkamol shaxs va malakali mutaxassisni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonining mohiyatini to’laqonli ochib berilgandir. Malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichi o’zida ta’lim jarayonini samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko’tarish, jahon ta’limi darajasiga yetkazish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirishi lozim. Bunda uzliksiz ta’lim tizimi xodimlari, pedagog-o’qituvchilar tomonidan zamonaviy ta’lim texnologiyalarining mohiyatidan xabardorliklari hamda ularni ta’lim jarayonida

samarali qo'llay olishlari, shuningdek, ta'lim jarayonini tashkil etishga nisbatan ijodiy yondashuvning qaror topishi muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchilarning matematika fanlarini o'qitishda yo'naltirilgan darslar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lim jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lim oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi. Ta'lim jarayoni o'quv materiali mazmunini yoritishga xizmat qiluvchi muayyan mavzu bo'yicha nazariy va amaliy bilimlar majmuini ifoda etish imkonini beradi. Ta'lim mazmunida, shuningdek, o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan tushuncha, ko'nikma hamda malakalarning hajmi ham o'z ifodasini topa olishi lozim. Zero, ta'lim mazmunining g'oyaviy jihatdan mukammalligi o'quvchilar tomonidan muayan bilim, ko'nikma va malakalarning o'zlashtirilish darajasi bilan belgilanadi. Buning samarasini o'quvchilar tomonidan ma'lum tushunchalarning o'zlashtirilishi, ko'nikma va malakalarning shakllanishini ta'minlovchi shartlarning ishlab chiqilganligida namoyon bo'ladi. Aynan darsning shakli, metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli ta'minlanishiga olib keladi. Ular yordami bilangina o'quv predmetining mavzusi borasidagi nazariy bilimlar o'quvchilarga uzatiladi, o'quvchilar tomonidan esa ushbu bilimlar qabul qilinadi. Dars mashg'uloti uchun eng maqbul deb topilgan shakl, metod va vositalarning belgilanishi ta'lim jarayonining qariyb 90 foizlik muvaffaqiyatini kafolatlaydi. Yangi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy mohiyati aynan mana shu bosqichda ochib beriladi. O'quvchilarni ijodiy izlanish, faollik, erkin fikr yuritishga yo'naltiruvchi ta'lim shakli, metod va vositalarining to'g'ri tanlanishi dars jarayonini samarali, qiziqarli, babs-munozaralarga boy bo'lishi, ijodiy tortishuvlarning yuzaga kelishiga turtki beradi. Mana shu holatdagina o'quvchilar tashabbusni o'z qo'llariga oladilar, o'qituvchining zimmasida esa ularning faoliyatini ma'lum yo'nalishga solib yuborish, umumiy faoliyatni nazorat qila olish, murakkab vaziyatlarda yo'l-yo'riq ko'rsatish, maslahatlar berish, hamda ular faoliyatini baholash kabi vazifalar qoladi. Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Pedagogik texnologiyalardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan ilg'or texnologiyalardan maqsadga muvofiq foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofikdir. Bugungi kunda o'quvchilarning

o‘quv va ijodiy faolliklarini oshiruvchi hamda ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo‘llash borasida katta tajriba to‘plangan bo‘lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Matematika darslarida foydalaniladigan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish usullarini ko`rib chiqamiz. “Fikriy hujum” metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning darslar jarayonidagi faolliklarini ta’minalash, ularni erkin fikr yuritishga rag‘batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g‘oyalarni to‘plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo‘lgan fikrlarni yengishga o‘rganish uchun xizmat qiladi. “6x6x6” metodi. “6x6x6” metodi yordamida bir vaqtning o‘zida 36 nafar o‘quvchini muayyan faoliyatga jalgan etish orqali ma’lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek, guruhlarning har bir a’zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. Bu metod asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo‘lgan 6 ta guruh o‘qituvchi tomonidan o‘rtaga tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o‘qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo‘ladi. Yangidan shakllangan guruh a’zolari o‘z jamoadoshlariga guruhi tomonidan muammo yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar. “Klaster” metodi. Klaster (g‘uncha, bog‘lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalarni o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob‘ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minalashga xizmat qiladi. Metod guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlar va o‘quvchilar tomonidan bildirilayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Bu esa ilgari surilgan g‘oyalarni umumlashtirish va ular o‘rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi. “Zakovatli zukko” metodi. Mavjud bilimlarni puxta o‘zlashtirishda o‘quvchilarning fikrlash, tafakkur yuritish layoqatlariga egaliklari muhim ahamiyatga ega. “Zakovatli zukko” metodi o‘quvchlarda tezkor fikrlash ko‘nikmalarini shaklalantirish, shuningdek, ularning tafakkur tezliklarini aniqlashga yordam beradi. Metod o‘z bilimlarini sinab ko‘rish istagida bo‘lgan o‘quvchilar uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ular o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga qisqa muddatlarda to‘g‘ri va aniq javob qaytara olishlari zarur. Savollarning murakkablik darajasiga ko‘ra har bir savolga qaytarilgan to‘g‘ri javob uchun ballar belgilanadi.

Metod o‘quvchlar bilan yakka tartibda, guruhli va ommaviy ishlashda birdek qo‘llanilishi mumkin. “Charxpalak” metodi. “Charxpalak” texnologiyasidan o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida, dars boshi va oxirida, biror bo‘lim tugatilganidan keyin, o‘tilgan mavzularni o‘zlashtirganlik darajasini baholashda, takrorlash, mustahkamlash, oraliq va yakuniy nazoratlarni o‘tkazishda foydalanish mumkin. Mashg‘ulotlarni yakka va guruh shaklida tashkil etsa bo’ladi. Qolaversa, o‘z ichiga og‘zaki va yozma ish shakllarini qamragan holda turli mazmun va xarakterga ega mavzularni o‘rganishda ham asqotadi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori (1999 yil 16 avgust) //Xalq ta’limi j. 1999. № 5
2. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Qarshi. Nasaf. 2000.
3. Tolipov O‘. Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. - Toshkent: “Fan”. 2005.
4. Sherqulov. M . Ma’ruza matni dan, Toshkent: 2012.

**INFORMATIKA DARSLARIDA O’YIN TEXNOLOGIYALARIDAN  
FOYDALANISHNING SAMARALARI**

**Xaydarov Sanjarbek Dexqonboyevich**

*Samarqand viloyati Payariq tumani 76 -maktab*

*Matematika fani o`qituvchisi*

*Matematika informatika fanidan metodbirlashma rahbari*

**Annotatsiya:** ushbu maqola umumta’lim maktablarining informatika darslarida o’yin texnologiyalaridan foydalanishning ahamiyatiga bag’ishlangan.

**Kalit so’zlar:** informatika, o’yinli texnologiya, axborotni uzatish, shaxsiy kompyuter, monitor.

**EFFECTS OF USING GAME TECHNOLOGIES IN COMPUTER SCIENCE CLASSES**

**Abstract:** This article focuses on the importance of using game technology in computer science classes in secondary schools.

**Keywords:** computer science, gaming technology, data transmission, personal computer, monitor.

Informatika, axborotshunoslik - ilmiy informatsiya (axborot, xabar, ma’lumot)ning mohiyati, umumiylarini va imkoniyatlarini, shuningdek, ilmiy kommunikatsiya tizimi (o’sha ilmiy informatsiyani tarqatish usullari va vositalari majmui)ni o’rganish bilan shug’ullanadigan ilmiy fan; inson faoliyatining EHM, kompyuterlar bilan bog‘liq bo‘lgan sohasi. Informatika fani AQShda inglizcha: computer science - komputer fani, Buyuk Britaniyada computing science - hisoblash fani demakdir. Informatika fani ijtimoiy fanlar jumlasiga kiradi. Uning markaziy tushunchasi - ijtimoiy hayotning istalgan sohasi va tarmoqlaridan olinadigan ma’lumotlar, ya’ni ilmiy informatsiyadir. “Informatika” atamasi 1960-yillarda Fransiyada yuzaga kelgan bo‘lib, information va automatique degan farang so‘zlarining birlashmasidan kelib chiqqan. Bu atama ma’lumotni avtomatik ravishda qayta ishlashni o’rganuvchi sohani nomlash uchun o‘ylab topilgan. Bugungi kunda umumta’lim maktablarida informatika fani asosiy fanlar sirasiga kiradi. Boisi, hozirgi axborotlashgan zamonda kompyuter texnologiyasini biladigan, turli dasturlar bilan ishlay oladigan kadrlarga bo‘lgan ehtiyoj katta. Shuning uchun ham maktablarda informatika o’qituvchilari darslarni qiziqarli va tushunarli qilib tashkil etishsa maqsadga muvofiq bo’ladi. Informatika darslarida o’yinli texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati katta. O’yinli texnologiyaning asosiy talablarini faollashtiruvchi va jadallashtiruvchi faoliyat tashkil etadi. Informatika darslarida o’yin texnologiyalarini qo’llashning bir nechta samarali tomonlarini olimlar quyidagicha tahlil etishgan, yani mehnat va o’qish bilan birgalikda

faoliyatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Psixologlarning ta'kidlashlaricha, o'yinli faoliyatning psixologik mexanizmlari shaxsning o'zini namoyon qilish, hayotda o'z o'rmini barqaror qilish, o'zini o'zi boshqarish, o'z imkoniyatlarini amalga oshirishning fundamental ehtiyojlariga yondashadi. Informatika darslarida o'yin ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirish va qayta yaratishga yo'nalgan vaziyatlarda faoliyat turi sifatida belgilanadi va unda shaxsning o'z xulqini boshqarishi shakllanadi va takomillashadi. O'yinli faoliyat muayyan funksiyalarini bajarishga bag'ishlangan bo'ladi, ular o'z navbatida quyidagi parametrlarni qamrab oladi.

- ❖ Maftunkorlik
- ❖ Kommunikativlik
- ❖ O'z imkoniyatlarini amalga oshirish
- ❖ Davolovchilik
- ❖ Tashxis
- ❖ Millatlararo muloqat
- ❖ Ijtimoiylashuv

O'yin texnologiyalarini darslarda qo'llanilishining afzallik taraflari shuni ko'rsatadiki, o'quvchi yoshlarda avvalombor, har bir qo'yilgan mavzuni chuqur tahlil etib keyin davom ettirishi shakllantiriladi. Informatika darslarida tadbirkorlik o'yinlaridan foydalanish, yangi texnologiya sifatida mohiyati quydagilardan iborat bo'ladi.

- Ishlab chiqarish imitatsion modeli sifatida taqdim etilgan o'quv materiali mazmunining izchilligi.
- O'yinli o'quv modelida kelgusidagi kasbiy faoliyati tarkibiy qismlarini yaratish.
- O'quv jarayoni tarzini bilimlarga ehtiyojlarni to'ldirish va ularni amalda qo'llashning real sharoitlariga yaqinlashtirish.
- O'yin olib boruvchi o'qituvchining bilimdonligi.

O'yin texnologiyalarini darslarga qo'llashning yana bir nechta afzallik taraflari mavjud bo'lib, bunda o'quvchilarning berilayotgan axborotlarni qanday ko'rinishda aniglab etishlarini kuzatish mumkin, buni qo'yidagi misol orqali ko'rib o'tishimiz mumkin. Masalan: O'quvchi kompyuter bilan muloqat qilishdan oldin muloqat qilish qonun qoidalarini bilishi kerak bo'ladi.

1. Monitor tomonidan ishlab chiqarilgan elekromagnit nurlanish inson tanasiga ta'sir qilishi mumkin, shuning uchun zararli maydonni zararsizlantirish uchun ehtiyyot bo'lish va ba'zi choralarini ko'rish kerak.
2. Agar kompyuterdan foydalanmasangiz, monitorni va tizim blokini uzoq vaqt yoqmang. Bu birinchi qarashda noqulay bo'lib tuyulishi mumkin, ammo bu tavsiyani e'tiborsiz qoldirmang, chunki mos kelmaslik narxi juda yuqori bo'lishi mumkin;
3. Kompyuterni xonaning burchagiga yoki u ishlamaydiganlarning yonida yoki orqasida bo'lmasligi uchun joylashtiring.
- Monitorning yon va orqa tarafidan chiqadigan elektromagnit nurlanish (bu joylarda uning darajasi eng yuqori) foydalanuvchi va boshqalarning sog'lig'iga zarar yetkazmasligi uchun zarurdir.
4. Ishlash paytida maxsus himoya ekranidan foydalaning, bu kompyuter ekranidan chiqadigan elektromagnit maydonning faolligini sezilarli darajada kamaytiradi;
5. Monitorni o'zingizdan uzoqroq joyda joylashtiring; O'yin texnologiyalarining yana bir tarafi shundan iboratki, o'quvchilar har bir mavzuda berilayotgan ma'lumotlarni o'zlari kompyuterlardagi o'yin dasturlari orqali tahlil etib borishadi. O'quvchilarda har bir mavzu ko'rsatmalar asosida amalga oshirib borilsa bunday holatda, o'quvchilar kompyuterlar bilan ishslash

vaqtida shu narsalarga to’g’ri kelganda to’g’ridan to’g’ri bunday masalalarni yechish imkoniyatiga ega bo’lishadi. Masalan: quyidagi ko’rgazmalar orqali o’quvchilar turli axborotlarni tahlil etish texnologiyalarini o’rganib borishadi. Axborotlarning saqlanishi Axborotni uzatish Axborotni qidirish Axborotni qayta ishslash O’yin texnologiyalarini qo’llash orqali o’quvchilar bilim saviyasi quyidagi uchta parametr bo’yicha tahlil etilgan holda ushbu jarayon yaxshi natijalar bergen. Bular quyidagilardir: 1. Bajarilayotgan jarayonni ko’rish orqali 2. Bajarilayotgan jarayonni sezish orqali 3. Bajarilayotgan jarayonni eshitish orqali Bu uch ko’rsatkich orqali o’quvchilar berilayotgan mavzuning mazmunmohiyatini turlicha tahlil etishadi. Masalan: Ko’rish orqali berilgan axborotning 75% ini, sezish orqali berilgan axborotning 12% ini, eshitish orqali berilgan axborotning 13% ini o’zlashtirishi mumkin bo’lar ekan. Shuni e’tiborga olib, har bir o’tilishi kerak bo’lgan mavzuni, turli o’yinli qismlarini qidirib topish maqsadga muvofiq bo’ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Informatika>
2. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
3. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent-2013-yil.
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

#### **References**

1. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Informatika>
2. [www.ziyonet.com](http://www.ziyonet.com)
3. Informatika o’qitish metodikasi. Toshkent-2013-yil.
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

## **ATSETILXOLIN FIZIOLOGIYA ASPEKTIDA**

**Nurmaxmatova S.R**  
*Toshkent Pediatriya Tibbiyot instituti*  
*Pediatriya fakulteti 2- kurs talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Kamolova Z.M.*

**Mavzuning dolzarbligi:** Hozirgi paytda kuzatishlarga qaraganda, insonlar orasida markaziy asab tizimining kasallik tufayli tormozlanish holatlari , ko'plab uchramoqda. Buning asosiy sababi mediatorlar orqali nerv impulslar o'tishining buzilishi bilan bog'liq. Bu esa keyinchalik bemorlarda depressiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Sinapslar orqali qo'zg'alishlarning o'tishini rivojlatiruvchi mediatorlar qatoriga atsetilxolinni misol qilib keltirish mumkin. Aholi orasida ko'plab uchraydigan nerv kasalliklari jumladan, falajlik, tirishish , sezuvchanlikning yo'qolishi, bundan tashqari nevroz , insult, nevrit kabi kasalliklar ko'plab uchrab turadi.

**Maqsad va vazifalari:** Aholi orasida ko'plab nerv kasalliklari jumladan, falajlik, tirishish , sezuvchanlikning yo'qolishi kabilarning oldini olish ularni davolash prafilatika ishlarini olib borishda atsetilxolinning funksiyasini o'rganish muhim hisoblanadi.

**Material va uslublar:** Atsetilxolin markaziy asab sistemasida ham ogohlantiruvchi ham depressant ta'sirga ega. Mashhur olim Deyl atsetilxolinning ganglionik sinapslar orqali uzatilishini aniqlagan. Preferik nerv sistemasidagi atsetilxolin nazariyasi asos bo'lgan dalillar quyidagilardan iborat: 1) atsetilxolin va atropin yoki nikotin ta'sir qiluvchi dorilarning ta'sirini o'rganish 2) eserinning ta'siri yoki nerv impulslariga javob berishi bo'yicha xolinesteraza ingibitorlari va atsetilxolin aslida asabiy faoliyat natijasida ajralishi.Miya chayqalishining turli nazariyalarining nomukammalligi Denni va Braun sharhlarida keltirilgan. Atsetilxolin ta'sirida qon bosimi, nafas olish va turli refleks tizimlari bo'yicha kuzatuvlari ularni mo'tadil kantuziya natijasida miyaning refleks mator faolligi vaqtincha susayishiga olib keladi. Filogenetik jihatdan atsetilxolin qadimgi neyrokimyoviy hisoblanadi. Xolienergik neyronlar markaziy asab tizimi bo'ylab keng tarqalib, miya ichidagi tuzilmalarning keng doirasini inervatsiya qiladi. Atsetilxolin to'rt boshli mushak tonusiga ta'siri subclavian arteriyaning markaziy uchiga intra-arterial yuborilgan. Atsetilxolin stemullanmagan inervatsiya qilingan to'rt boshli mushakning kuchlanishini oshiradi. Bunda ta'sir deyarli aniqlanmaydigan yashirin davrsiz keladi ya'ni zo'riqishning ko'tarilishi , arterial qon bosimining dastlabki ko'tarilishi bilan bir vaqtga to'g'ri keladi. Fosfolipidlarning ta'siri atsetilxolingu javoban xolinergik neyronlarning postsinaptik membranasi bo'ylab hujayradan hujayraga faol tashilishi bilan bog'liq. Bundan tashqari atsetilxolin yurak urishi tezligining sekinlashishi, qon tomirlarning

kengayishi, oshqazon va ichak peristaltikasining kuchayishi, oshqazon sekretsiyasining kuchayishi kabi funksiyalarga ta'sir ko'rsatadi. Atsetilxolin antagonistlarining ko'p miqdori asabiy faoliyatining buzilishiga olib keladi. Atsetilxolin ba'zi tomir kasalliklarda miya tomir spazmida, qo'l – oyoq tomirlari emboliyasida, paroksizmal traxikardiyani davolashda foydalaniladi.

**Tekshirish natijalari:** So'nggi yillarda olib borilgan tekshirishlar natijasida atsetilxolin ham markaziy nerv sistemasiga ta'siri isbotlandi. Kremer insonlarga atsetilxolinni 2mgdan 500mg gacha intratekal tarzda kiritib, markaziy asab sistemasiga ta'sir ko'rsatib , mushak tonusi va reflekslar o'tishini susaytirishga erishgan. Markaziy nerv sistemasining funksiyasi pasayishi, sinapslar orqali qo'zg'alishlarning o'tishining buzilishi atsetilxolingga bevosita bog'liq.

**Xulosa:** Hisobga olishimiz kerak bo'lgan muhim narsa shuki, markaziy asab sistemasida orqali yuzaga keladigan falajliklar , turli xil kasalliklarning kelib chiqishiga asosiy sabab muhim mediatorlardan biri bo'lgan atsetilxolin funksiyasi bilan bog'liq. . Xlorolazaning umumiy behushtligiga qaramay qo'zg'alish chegarasini eng kam oshiradigan neyronlar—pastki matorli neyronlar vaqtı-vaqtı bilan o'zlarining qo'zg'alish chegarasining kichik keskin va darhol pasayishini ko'rsatilgan.

### **Adabiyotlar:**

- 1) Wilhelm Feldberg Physiological Reviews 25(4) 594-642 1945
- 2) Calma Samson Wright The Journal of Physiology 103 (1) 93, 1944-y
- 3) Murray Bornstein Journal of Neurophysiology 9(5) 349-366 1946-y
- 4) A.Qodirov Normal Fiziologiya 2020-y
- 5) CNS Neuroscience Therapeutics 18 (5) 369-379.

**ОТРАЖЕНИЕ ВЛИЯНИЯ РОССИЙСКОГО КАПИТАЛА НА  
ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ НА  
ОСНОВАНИИ НЕКОТОРЫХ ОТЧЕТОВ ГРАФА К.К. ПАЛЕНА**

**Джапарова Ильмира Юсуповна**  
*Магистрант Ташкентского государственного  
педагогического университета*

**Аннотация.** В статье рассмотрено и проанализировано влияние русского капитала на экономическое развитие Туркестанского края на основании некоторых отчетов графа Палена К.К. В работе с первоисточниками использованы методы анализа и синтеза, историко-типологический метод.

**Ключевые слова:** ревизия, отчет, капитал, Туркестанский край, экономика.

**ROSSIYA KAPITALINING TURKISTON O’LKASI IQTISODIY  
RIVOJLANISHIGA TA’SIRI K. K. PALENNING BA’ZI HISOBOTLARI  
ASOSIDA AKS ETTIRILSHI**

**Djaparova Ilmira Yusupovna**  
*Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti*

**Annotatsiya.** Maqolada rus kapitalining Turkiston o’lkasi iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Palen K. K. ning ba’zi hisobotlari asosida dastlabki manbalar bilan ishlashda tahlil va sintez hamda tarixiy-tipologik usullari qo’llanildi.

**Tayanch so‘zlar:** audit, hisobot, kapital, Turkiston o’lkasi, iqtisodiyot.

**REFLECTION OF THE IMPACT OF RUSSIAN CAPITAL ON THE  
ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE TURKESTAN TERRITORY ON  
THE BASIS OF SOME REPORTS OF COUNT K.K. PALEN**

**Djaparova Ilmira Yusupovna**  
*Master student of the Tashkent state pedagogical university*

**Abstract.** The article considers and analyzes the influence of Russian capital on the economic development of the Turkestan region on the basis of some reports of Count Palen K.K. In working with primary sources, methods of analysis and synthesis, the historical-typological method were used.

**Key words:** audit, report, capital, Turkestan region, economy.

В начале XX века Российским правительством было решено передать управлением Туркестанским краем из Военного министерства в Министерство внутренних дел, и ввести новое Положение об управлении краем. В связи с этим назрела необходимость иметь в правительстве как можно более полные сведения о состоянии края, и император Николай II 8 марта 1908 года принял решение о проведении сенаторской ревизии. Руководить этой ревизией было поручено опытному царскому чиновнику, сенатору, гофмейстеру графу Константину Константиновичу Палену.

Ревизирующему сенатору предоставлялись особые права: 1) входить в правительственный Сенат с представлениями об отмене общих приказов и циркулярных распоряжений генерал-губернатора, военных губернаторов и других административных властей в случае признания их ревизующим сенатором неправильными или незаконными; 2) возбуждать уголовное преследование, устранять от должности и предавать суду должностных лиц всех ревизуемых ведомств личной властью сенатора без сношения с начальством, за исключением лиц, занимающих должности четвёртого класса и выше.

Комиссия приступила к ревизии 18 июля 1908 года. В её работе прослеживаются два этапа: первый — с июля до конца декабря 1908 года; второй — с 13 апреля до 18 июня 1909 года.

За это время была проделана колоссальная работа, которая нашла отражение в 20 томах отчётов. Ревизия навела некоторый порядок в работе администрации. Десятки чиновников были отданы под суд или освобождены от должностей. Ещё до подведения итогов ревизии в марте 1909 года был отправлен в отставку генерал-губернатор П. И. Мищенко, не пробыв на этом посту и года. Вместо него был назначен генерал А. В. Самсонов.

При анализе отчетов К.К Палена было уделено внимание проблеме правильного распределения капитала.

Со стороны Царской России на переселенческое дело выделялся капитал на покрытие расходов. В результате ревизии было выявлено, что кредиты, ассигнуемые на переселенческое дело, велось неосмотрительно и с нарушением законов. В частности: 1) ссудный кредит; 2) кредит на вознаграждение киргизов за снос построек; 3) кредит испрашивался в размере, не соответствующем действительной потребности и со значительным опозданием.[1, 409]

При рассмотрении денежной отчетности городов Туркестанского края обращает на себя внимание расходование городских сумм на посторонние надобности.

Из этих сумм, по усмотрению военных губернаторов и уездных начальников, выдавались всевозможные беспроцентные ссуды, пособия под разными наименованиями, как различным ведомствам, так и отдельным чинам администрации и даже частным лицам, причем о пополнении таких выдач очень мало заботились и потому большинство их за давностью становились безнадежными к поступлению.[2,109]

Изучен вопрос выделения средств на ненужные органы власти.

Единственное, обыкновенно трудно преодолимое препятствие на пути к осуществлению широких реформ, недостаток денежных средств отсутствует в вопросе о введении в Туркестанском крае мирового института для всего местного населения.

Последнему так дорого обходится народный суд, что, если обложить особым сбором с тяжущихся все делопроизводство вновь учреждаемых мировых судей или на ту сумму, в которой выражается стоимость содержания новых судебных органов и их канцелярий, увеличить земские денежные повинности, то население вздохнет свободно и будет считать себя облагодетельствованным.[3,205]

С проникновением в край русского капитала получила распространение и кредитная система.

Interfaollik–bu o‘zaro ikki kishi faolligi, ya’ni, bunda o‘quv-biluv jarayoni o‘zaro suhbat tariqasida dialog shaklida (komp’yuter yordamida ) yoki o‘quvchining o‘zaro muloqotiga asosan kechadi.

Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlaridan kechadi. Interfaollik o‘zaro faollik, harakat, ta’sirchanlik, o‘quvchi va o‘qituvchi muloqotlarida sodir bo‘ladi. Interfaol usulning bosh maqsadi:o‘quv jarayoni uchun eng qulay vaziyat yaratish orqali o‘quvchining faol, erkin fikr yuritishiga muhit yaratishidir. U o‘zini intellektual salohiyatini namoyon etadi va o‘quv sifati va samaradorligini oshirishni ta’min etadi.

Interfaollik asosida darsni tashkil etish shunday kechadiki, bu jarayonda birorta ham o‘quvchi chetda qolmaydi, ya’ni ular ko‘rgan, bilgan, o‘ylagan fikrlarini ochiq-oydin bildirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘quvchilar hamkorlikda ishlashda mavzu mazmunini bilish, o‘zlashtirishda o‘zlarining shaxsiy hissasini qo‘sish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. O‘zaro bilimlar, g‘oyalari, fikrlarni almashish jarayoni sodir bo‘ladi. Bunday holatlar o‘zaro samimiyligi taminlaydi, yangi bilimlar olish, o‘zlashtirishga havas ortadi, shu jarayonda bir-birlarini qullab-quvvatlash, o‘zaro do‘stona munosabatlar vujudga keladi. Buning tarbiyaviy ahamiyati katta. Demak, interfaol darslarni tashkil qilishda o‘quv jarayonida yakka tartibda va juft bo‘lib ishlash, guruhlarda ishlash, izlanishga asoslangan loyixalar, rolli o‘yinlar, axborot manbalari bilan ishlash, ijodiy ishlashdan foydalanish mumkin.

Interfaol usullar nimalarni o‘z ichiga oladi? Hozirgi kunda quyidagi interfaol usulning shakl, formalari amalda qo‘llanilmoqda.

Interfaol usullarning shakllari:

-Juftlikda ishlash;	Daraxt yechimi;
-Karusel;	O‘z nomimdan so‘zlayman;
-Kichik guruxlarda ishlash;	Fukarolar eshitivi
-Akvarium;	Rolli o‘yinlar;
-Tuganlanmagan gaplar;	Munozara;
-Aqliy hujum;	Debatlar.
-Braun harakati;	Tushunchalar tahlili
-Blits-so‘rov	Tanqidiy fikrlash

Yuqoridagilardan foydalanishda qandaydir bir maqsadni ko‘zda tutib, muammoni keltirib, o‘quvchilarni shu jarayonda ishlashga tayyorlab, uni ma’lum malakalarga ega bo‘lgan holatlarda qo‘llanilsa kutilgan natijalarni olish mumkin. Interfaol o‘qitishda o‘qitish muhitini tashkil etiladi, qulay muhit yaratiladi, yahshi tashkil etilgan o‘qitish muhiti:

- o‘qish va tadqiqotlarga ko‘maklashadi;
- turli tadqiqotlar olib borish uchun materiallarga ega buladi;
- ijodkorlik qobiliyatiga rag‘bat beradi;
- fikrlar va axborotlar almashuviga imkon yaratadi;

- ma'lumotlarni mustaqil olish ko'nikmalarini shakllantiradi;
- uzlusiz ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shunday qilib, interfaol metodlar dastlab AKSh, Angliya, Fransiya, so'ngra Yaponiyada, 70-yillardan boshlab Rossiyada, 90-yillardan O'zbekistonda qo'llab kelinmoqda.

Biologik fanlarini o'qitishda, o'quv jarayonda yangi pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar, zamonaviy texnologik vositalar, kafedrani yetakchi professorlarining ma'ruzalari, tarqatma va ko'rgazmali (sifat va miqdor ko'rsatkichlarni o'rganish uchun zarur asbob-anjomlar)ni qo'llashni ko'zda tutadi.

Ma'ruzalar o'qishda muammoli, mualliflik, binar, vizual va boshqa interfaol shakllardan foydalilaniladi. Bunda mavzu bo'yicha Powyer Point prezентatsiyalardan hamda aqliy hujum, blits so'rov va munozara kabi pedagogik texnologiyalardan foydalilaniladi.

«O'simliklarning vegetativ ko'payishi» mavzusidagi semenar mashg'ulotlarida zamonaviy axborot texnologiyalari, mavzu bo'yicha prezентatsiyalar, internet ma'lumotlar, videoroliklar va “Stat” statistik dasturlar qo'llaniladi.

Shuningdek laboratoriya mashg'ulotlarida vaziyatli masalalar, »Domino», »Aqliy hujum», »FSMU-texnologiyasi», »Tushunchalar taxlili», «Klaster», «Kichik guruhlarda ishslash» «Loyiha», «Bumerang», «Assesment», «Bahs-munozara» BBB, “VEEN diagrammasi”, “Esse usuli”, «Keys Stadi» kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llash tavsiya etiladi.

### **Interfaol metodlarning turlari**

#### **«Sinkveyn» metodi**

Metodning maqsadi: «Sinkveyn» so'zi fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, «besh misradan iborat she'r» tarjimasini beradi. Amaliyatda «Sinkveyn»: murakkab axborotlarni sintezlash quroli va tushunchalar zahirasini baholash vositasi; ijodiy ifodalilik vositasi sifatida juda foydalidir. «Sinkveyn» tayanch kasbiy tushunchalar va axborotlarni refleksiyalash, sintezlash va umumlashtirishda tezkor vosita hisoblanadi.

Metodni amalgalash tartibi: «Sinkveyn» tuzish qoidasi quyidagicha:

- birinchi qatorda bir so'z bilan mavzu yoziladi-odatda ot turkumidagi oid so'z bilan;

- ikkinchi qatorda mavzu ikki so'z bilan tasvirlanadi-sifat turkumiga oid ikki so'z bilan;

- uchinchi qatorda ushbu mavzu bo'yicha xatti-harakatlar uch so'z bilan tasvirlanadi;

- to'rtinchi qatorda mavzuga aloqadorlikni ko'rsatuvchi to'rtta so'zdan iborat gap yoziladi;

- beshinchi qator mavzu mohiyatini takrorlovchi bir so'zdan iborat sinonim shakllantiriladi.

### “Assessment” texnikasi

Maqsadi: baholash, nazorat qilish, ta’lim oluvchilarning bilim darajasi, o’zlashtirish ko’rsatkichi va amaliy ko’nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli aspektlar (test, amaliy ko’nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi.

### «Xulosalash» metodi

**Metodning maqsadi:** Bu interfaol metod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. Bu metod umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. Bu interfaol metod mavzuni o‘rganishning turli bosqichlarida qo‘llanilishi mumkin:

- mashg‘ulot boshida:o‘z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o‘rganish jarayonida:uning asoslarini chuqr fahmlash va anglab yetish;
- yakunlash bosqichida:olingan bilimlarni tartibga solish.

### INSYERT

**Insert-lokal** darajadagi pedagogik texnologiya bo‘lib, o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialidagi asosiy g‘oya va faktik materiallarni anglashiga zamin yaratish maqsadida ko‘llaniladi.

O‘quvchilarni insert yordamida ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun ularga o‘rganiladigan o‘quv materiallari va maxsus jadval tarqatiladi. O‘quvchilar har bir abzatsni o‘rganib chiqib, maxsus jadvalga muayyan simvollar yordamida belgilash tavsiya etiladi.

Agar abzatsda berilgan ma’lumot shu kungacha o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelsa, "Bilaman"-V, agar ma’lumotlar tushunarli va yangi bo‘lsa, u holda "Ma’qullayman" +, agar ma’lumotlar o‘quvchilar o‘zlashtirgan bilimlariga mos kelmasa, uholda "O‘rganish lozim"-, o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda qiyinchilik his etsa, u holda "Tushunmadim" -? belgisini qo‘yadi.

*Insertda foydalaniladigan maxsus jadval*

Nº	"Bilaman"	"Ma’qullayman"	"o‘rganish lozim"	"Tushunmadim"
	B	+	-	?

1				
2				

Ta’lim-tarbiya jarayonida Insertdan foydalanishda quyidagi talablarga amal qilinadi:

- O‘quvchilar kichik guruxga ajaratiladi, lekin insert vositasida dastlab har bir o‘quvchi yakka tartibda ishlaydi va jadvalni to‘ldirishi, gurux a’zolari belgilangan muddatda ishlashni yakunlaganlaridan so‘ng, fikrlarini taqqoslashi;
- O‘quv bahsi orqali kichik gurux a’zolarining jadvaldagagi belgilarining bir xil bo‘lishini ta’minalash, ya’ni jadvaldagagi keyingi ikki ustuni bo‘yicha bir xillikka erishish;
- O‘qituvchi o‘quv materiali asosida tuzilgan savol-topshiriqlari va kichik gurux a’zolarining jadvaldagagi belgilari asosida o‘quv bahsini tashkil etishi lozim.

Insert bilan ishslashning afzallik tomoni avval kichik gurux a’zolari o‘rtasida, so‘ng kichik guruxlar bilan o‘zaro o‘quv bahsi o‘tkazilishi, bahsda o‘quvchilar tomonidan yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni to‘ldirish, bilimidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish yuzasidan o‘qituvchi tomonidan berilgan axborot ta’lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Insertdan foydalanilgan o‘qituvchining pedagogik faoliyatidagi axborot manbai funksiyasi bir muncha kamayib, o‘quvchilarning bilish faoliyatini boshqarish va nazorat funksiyalari ortadi. Shu sababli, o‘qituvchi bu masalalarni puxta rejalashtirishi va amalga oshirishi lozim.

Biologiyani o‘qitishda o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilimlarini tizimlashtirish, mustahkamligini ta’minalash maqsadida Klasterdan foydalanish muhim o‘rin tutadi.

### **Adabiyotlar ro’yxat**

1. Azizzxo‘jayeva. N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. T. 2003 y
2. Baratov P “Botanika” Toshkent, “O‘qituvchi”2002.
3. Belolipov. I. V. , Sheraliyev. A. , Buxorov. K. X. , Islamov. A. M. O‘simliklar morfologiysi: O‘quv qoilanma. -Toshkent, 2007, 99b.
4. Bo‘riev H. Ch. Havaskor bog‘bonlarga qo‘llanma. – T. , 1987.
5. G‘ofurov A. T va boshqalar. Biologiyani o‘qitishning umumiy metodikasi. (O‘quv-metodik qo‘llanma). TDPU. , T. : - 2005

**TA’LIM TIZIMIDA FOYDALANISHGA MO’LJALLANGAN  
DASTURIY TA’LIM VOSITALARI TASNIFI**

**Kamalova Malika Sadikovna**

*Buxoro Davlat Pedagogika instituti Ta’lim va tarbiya nazariya va metodikasi  
(texnologik ta’lim) mutaxasisligi 2-bosqich magistranti*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada ta’lim tizimida foydalanishga mo’ljallangan dasturiy ta’lim vositalari tasnifi xususida so‘z yuritilib, metodlarning amaliy ahamiyati, turlari, qo‘llanish usullari va vositalari haqida ma’lumotlar berilgan. Metodlarning amaliy ahamiyati atroflicha muhokama qilingan.

**Kalit so’zlar:** ta’lim tizmi, dasturiy ta’lim vositalari, pedagogik ta’lim vositalari, metodlar, ta’lim jarayoni, sun’iy intelekt tizmimlari

**ANNOTATION**

This article covers the classification of educational software tools intended for use in the educational system and provides information about the methods, types, methods of use and the practical importance of the tools. The practical importance of the methods is considered in detail.

**Key words:** educational system, software educational tools, pedagogical educational tools, methods, educational process, artificial intelligence systems.

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье рассказывается о классификации программных образовательных средств, предназначенных для использования в образовательной системе, и приводятся сведения о практической значимости методов, видов, способов использования и средств. Подробно рассмотрена практическая значимость методов.

**Ключевые слова:** образовательная система, программные образовательные средства, педагогические образовательные средства, методы, образовательный процесс, системы искусственного интеллекта.

**Kirish**

Ma’lumot-bu bizning sezgi organlarimiz:Tam, hid bilish orqali, sezish, his qilish orqali o’rab turgan borliq haqidagi ma’lumot olish bo’lib olingan ma’lumot biz uchun uning qadri qimmati va bahosi bilan, yangiligi bilan, zarurligi bilan ajralib tursa, u axborotga aylanadi. Axborot ishonchli, ihcham, tushunarli, barqaror, mazmundor, uzlikli, biz uchun zarur bo’lishi kerak. Axborot texnologiya-bu axborotlarni olish,yig’ish va tarqatishning jarayoni, bu jarayonda inson resurslari texnik resurslarni qo’llashadi. Insonlarning bir qismi axborotga ega, bir qismiga shu axborotni yetkazish

zarur. Kommunikatsiya deganda aloqani tushunamiz, bu radio, televide niye, robotlarni harakatga keltiruvchi radio pultlar v.h.z Texnologiya grekcha so’zlardan tashkil topgan bo’lib, texnos-maxorat, san’at, ustalik, logos-olib boorish, yetkazib berish degani bo’lib, axborot texnologiya-axborotni san’at darajasida yetkazib berish degan ma’noga egadir.

Ta’lim jarayonini biz axborot texnologiyalarisiz tasavvur qila olmaymiz, bu hayotimizga kirib kelgan internet, uning asosiy mazmuniga aylangan mobil texnologiyalar, ekspert tizimlar, sun’iy intellekt tizimlari, robototexnikani rivojlantiruvchi, axborot tizimlari, masofaviy ta’lim tizimlari, gadgetlar, mobil ilovalar va boshqalar

Zamonaviy texnik vositalaridan juda ham til o’rganish va o’tgatish uchun zarur va qulay bo’lgan lingaphone kabinetlar haqida bayon qilaylik. Bu zamonaviy texnik vositalar ta’lim jarayonini yanada takomillashtirib tushunish va materialni tezkor va oson yetkazib berishga harakat qiladi. Dars jarayonida qo’llaniladigan offis dasturlari, grafik muharrirlar va boshqa kompyuter dasturlari ham dasturiy vositalarga kiraadi va dars jarayonida qo’llashga qukay. Masalan dars jarayonida talaba va o’quvchilarning bilimlarinin sinash uchun Easy Quizy, My Test, Quiz Maker, Hot Potatoes dasturlarini qo’llashimiz mumkin. Power Pointda taqdimot yaratib undan dars davomida foydalanishimiz, Word dasturida esa o’quv materillarni tayyorlashimiz, Accesda o’qituvchi rahbarlik qilayotgan guruhi haqida ma’lumotlarni saqlashi, Excelda turli jadvallarni tayyorlashi, dars jadvalini kiritishi mumkin. Onlayn hujjatlarni yuritishda Google imkoniyatlaridan foydalanish maqsadga muvofiqidir. Google hujjat, Google elektron jadval va Google taqdimot ilovalaridan foydalanib, onlayn electron resurslarni, o’quv materiallarni tayyorlash mumkin bo’ladi. Dars jarayonida sun’iy intellekt tizimlaridan ham foydalanish maqsadga muvofiq: bularga robototeknikaga uning platalariga va platformalariga hamda dasturlashtirishga asoslangan robotlardan dars jarayonida ma’ruza o’qishda, konferentsiyani o’tkazishda yordamchi sifatida robotlardan talabalarni kutubhonada o’tirib dars tayyorlaganlarini kuzatishda qo’llash mumkin, bunday robotlar ta’lim jarayoniga kirib keldi. Undan tashqari maktabgacha yoshdagi bolalarni o’qitish uchun bo’g’cha tarbiyachisiga ko’makdosh robotlar ham qo’llanilmoqda.

Bu zamonaviy texnik vositalar ta’lim jarayonini yanada takomillashtirib tushunish va materialni tezkor va oson yetkazib berishga xarakat qiladi. Dars jarayonida qo’llaniladigan offis dasturlari, grafik muharrirlar va boshqa kompyuter dasturlari ham dasturiy vositalarga kiraadi va dars jarayonida qo’llashga qaratilgan.



**1-rasm. Ta’limda qo’llaniladigan texnik vositalar interaktiv planshetlar, elektron doskalar va boshqalar**

Shuni ta’kidlash kerakki ta’lim jarayoniga qo’llaniladigan axborotlar kompetentligi bilan ha, ajralib turadi. Yani bunda internetni ta’limga doir mavzularni qidirish zarur bo’lganda, boyob bilimlar kerak bo’lganda yoki mavzularni yanada takomillashtirib o’tganish uchun qo’llaniladi. Undan tashqari elektron pochta kabi axborot texnologiyalarining bir ko’rinishini biz ta’limda qo’llashimiz mumkin, axborotlarni bir birimizga uzzatishda ishlatalamiz. Pandemiya davrida va favqulotda hodisalarni amalga oshirish vaqtida biz ta’limjarayonini masofaviy platformalarga kuchirdik. Yani dars jarayonini Moodle o’quv platformasi yordamida amalga oshirdik. Bu degani ma’ruza. amaliy mashg’ulotlarni elektron variantini biz platformaga joylab, har bir ma’ruzadan so’ng testni talabalar bilimini nazorat qilish uchun joylaganmiz. Talabalar va o’qituvchilar Moodle o’quv platformasidagi saytga registratsiya bo’lishadi, login va parollari bilan kirib foydalanishlari mumkin bo’ladi, yani autentifikatsiya va identifikatsiya jarayonlaridan foydalanish onlayn tizimida ishlaganda doimo qo’l keladi. Har bir o’qituvchi o’zining kompetentligidan kelib chiqqan holda dasturiy vositalardan, kompyuter programmalaridan, qolaversa turli vositalardan qo’llashni bilishi zarur. Pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalari kompetentligi deganda biz dars jarayoniga o’qituvchining mahorati va texnik vositalaridan, kompyuter dasturlaridan foydalanishni bilishiga qarab ularni qo’llay bilishini va buni fanga va mavzularga aloqadorligini tushunamiz.

Taqdimotda multimediali namoyish amalga oshirilib, unda bir vaqtning o’zida grafika, tovush, animatsiya, tasvir, rasm amalga oshiriladi. Bir vaqtning o’zida rasm, matn, animatsiya va tovushli va video lavhalardan iborat bo’lgan taqdimotlarni multimediali taqdimotlar deyiladi. Ularni ta’lim jarayonida qo’llashning afzallikkleri esa quyidagilardan iborat:

- Talabaga bir vaqtning o’zida eshitadi va ko’radi;

- o’zi taqdimot yaratса esa undan ham yahshi samarali natija oladi va umri davomida taqdimot yaratib, o’zining faoliyatida qo’llab yuradi;
- talabaalrning taqdimot yordamida o’qitilgan darslardan keyin o’zlashtirishi ijobjiy samarali natija beradi;
- o’quv materialni o’zlashtirish va esda saqlash jarayoni samarali amalga oshadi:

### **O’quv taqdimotiga qo‘yilgan talablar.**

Taqqdimotga quyiladigan talabalar quyidagicha:

- 1) taqdimot o’quv fan dasturi mavzusiga mos bo’lishi zarur;
- 2) taqdimot belgilangan mavzu va uning rejalarini tushunarli, ravon tilde, qiziqarli va rasmlи, multimediali usulda bayon qilishi kerak;
- 3) taqdimotda qo’llaniladigan rasmlar, animatsiyalar va videolavhalar mavzuga, uning bo’limlariga bog’liq bo’lishi lozim;
- 4) taqdimotning rejasidagi mavzuga doir bo’limlarga qarashli materiallar o’zaro bog’liq, mantiqiy davomiyligi bilan va o’zaro va mavzuga aloqadorligi bilan tasniflanadi.
- 5) o’quv materiallarda mazmuni fanga va mavzuga doir, uni yoritishni maqsad qilgan, tushunarli, ilmiyligi va izchilligi bo’lishi zarur. Rejadagi bo’limlar esa o’zaro bog’liqlikda beriladi

Ta’lim vositasini tanlab olish ta’lim metodini tanlash bilan bog’liq. Agar ta’limning faol metodi(kitob bilan ishslash, mashqlar) foydalanilsa, u holda o’quv qo’llanmalari, darsliklar va ta’limning texnik vositalaridan foydalaniladi. Aynan ta’limning aktiv-texnik vositalari amaliy metodlarda foydalaniladi. Ta’lim vositalari tasnifi aniq va yagona bo’lishi mumkin emas. Ta’lim vositasining ahamiyatli tomoni ularning birgalikda qo’llanilishidir va hech qachon bir-birini inkor etmaydi. Q’ituvchining vazifasi - dars jarayonini faollishtirish uchun ta’limning samarali vositasini tanlab olishdir. Ta’lim vositalarini tasniflashda turli asoslarga ko’ra yondashish mumkin:

- faoliyat subyektiga ko’ra;
- faoliyat obyektiga ko’ra;
- o’quv axborotiga munosabatiga ko’ra;
- o’quv jarayonidagi vazifasiga ko’ra.

Ta’lim metodining o’qituvchi tomonidan to‘g‘ri tanlanishi, dars jarayonida turli vositalar yordamida mavzuning tushuntirilishi ta’lim sifatining oshishiga yordam beradi. Yuqorida ko‘p bora ta’kidlab o’tilganidek, ta’lim metodlarini malakali o’qituvchining usuli bilan birlashishi natijasida fanning va o’rganilayotgan mavzuning mazmuni va o’ziga xosliklari to‘liq ochib beriladi. Bu esa o’quvchilarning fan yuzasidan bilim, ko’nikma, malaka kompitensiyalarining shakllanishi va rivojlanishiga asos vazifasini o’taydi

**Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent – 2017, “Sano-standart” nashriyoti.
2. O’zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y. O’. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y.R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O’qituvchi” 2004 y.
3. To’raqulov X.A. “Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari” Toshkent: Fan, 2006.
4. Xayrulla D., Saidjon U., Azamat M. DEVELOPMENT OF LIGHTING CONTROL SOFTWARE FOR “SMART CLASS” //Universum: технические науки. – 2021. – №. 5-6 (86). – C. 18-21.
5. Sunnatula o’gli M. A. et al. TA’LIM JARAYONIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI //World scientific research journal. – 2022. – T. 4. – №. 2. – C. 28-33.
6. Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА УЧЕНИКОВ //The 2nd International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – C. 357.
7. Хамдамова Н. М. РАЗВИТИЕ СПОСОБНОСТЕЙ ТЕХНИЧЕСКОГО ТВОРЧЕСТВА ОБУЧАЕМЫХ НА УРОКАХ ФИЗИКИ //The 2nd International scientific and practical conference “Results of modern scientific research and development”(May 2-4, 2021) Barca Academy Publishing, Madrid, Spain. 2021. 640 p. – 2021. – C. 361.

**INGILIZ TILI VA RUS TILINI O'QUVCHILARGA OSON O'RGAATISH  
USULLARI VA SAMARADORLIGI**

*Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 1-IDUM maktabining  
Rus tili o'qituvchisi Choriyeva Zamira,  
Ingiliz tili o'qituvchilari - To'rayeva Komila,  
Achilova Zarina, Hakimova Madina*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada chet til o`qitish metodikasi haqida, uning fan sifatida rivojlanish tarixi, chet til o`qitish metodikasida qo`llanilayotgan zamonaviy metod turlari va ulardan foydalanish xususida so`z boradi.

**Kalit so`zlar:** metodika, innovatsiya, chet tili, kommunikatsiya, ko`nikma, malaka, didaktika, madaniyatlararo muloqot.

**ABSTRACT**

This article discusses the methodology of foreign language teaching, the history of its development as a science, the types of modern methods used in foreign language teaching methods and their use.

**Keywords:** methodology, innovation, foreign language, communication, skills, competencies, didactics, intercultural communication.

**KIRISH**

Hozirgi davr ta`lim taraqqiyoti yangi yo`nalish innovatsion pedagogikani keltirib chiqardi. Innovatsion – inglizcha “yangilikni kiritish (tarqatish)” ma`nolarini anglatadi. Yangilik kiritishning ijtimoiy-psixologik aspekti Amerika tadqiqotchisi E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining tasnifi, ularning yangilikka bo`lgan munosabati va boshqalarni o`rgangan. Ilmiy yo`nalishlarda yangilik va innovatsiya tushunchalari o`zaro farqalanadi. “Yangilik”-bu vosita, yangi metod, metodika, texnologiya ma`nosini anglatadi. “Innovatsiya”- bu ta`lim, ma`lum bosqichlari bo`yicha rivojlanadigan jarayon hisoblanadi. Jahon ilm-fan taraqqiyoti kundan kunga gurkirab, rivojlananib bormoqda. Aynan bu ijobiy rivojlanish bizning diyorimizga ham o`z ta`sirini o`tkazdi. Ilm dunyomizga ilg`or innovatsion texnologiyalar tatbiq etilmoqda. Buning ijrosi sifatida, Yurtboshimiz tomonidan joriy yilni “Yoshlarni qo`llab-quvvatlash va aholi salomatligi yili” deb nomlashi ham mamlakatimiz yoshlarinining ma`suliyatini yanada oshirdi. Ta`lim sohalariga ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalarning keng tatbiq etilishi ham chet til o`rganayotgan yoshlar uchun keng imkoniyatlар, marralar eshigini ochdi, desak xato bo`lmaydi.

## **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Til o`rganish kishilik jamiyatida bag`oyat muhim sohalardan biri hisoblanadi. Muloqot vositasi bo`lmish tilni tabiiy muhitda ya`ni oilada, jamoatchilik orasida yoki uyushgan holda amaliy egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o`rgatiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan zamonamizda tillarni bilish, ayniqsa ko`p tillilik ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakatimizda tahsil oladigan o`quvchi va talabalar odatda uch tilni o`rganadilar. Ushbu tillar maxsus nomlar bilan yuritiladi. Bular quyidagilar: ona tili, ikkinchi til, va chet til. Ona tili tafakkur shakllanishida alohida xizmat o`taydigan bиринчи til hisoblanadi. Ikkinchi til haqida so`z yuritilganda, unga boshqa millat vakillaridan iborat qardoshlar, qo`shnilar tili sifatida qaraladi. Chet til – bu xorijiy mamlakat tilidir. Respublikamizda G`arbiy Yevropa (ingliz, ispan, nemis, faransuz) tillari va Sharq (arab, turk, fors, xitoy, hind) tillari o`qitilib kelinmoqda. Bu tillar ta`lim muassalarining o`quv rejalaridan o`rin olgan. Uchala tilni o`qitish jarayoni turlicha kechadi. Ona tili va ikkinchi til tabiiy vaziyatda, chet til esa sun`iy muhitda o`rganiladi. Chet tildagi muloqot, asosan, darsda muallim rahbarligida kechadi. Uchala til orasida chet tilni o`rganish va o`rgatish muayyan jihatlari bilan keskin farq qiladi. Bu esa, o`z navbatida, tegishli chet til o`qitish texnologiyasini qo`llashni taqozo etadi. Chet til muallimi metodika fani yutuqlarini puxta o`zlashtirish orqali o`quvchi-talabaning to`plagan til tajribasi me`yorini aniq bilishga va uni yanada takomillashtirishga erishadi. Chet tillarni samarali o`rgatish uning metodikasini bilishni taqozo etadi. Chet tillarni o`rganish va o`rgatish ko`p jihatdan chet til o`qitsih metodikasi masalalarini nazariy tomondan ishlab chiqilishiga va nazariyaning amalda ijodiy qo`llanilishiga bog`liqdir. Metodikaning predmeti – chet til predmeti orqali ta`lim-tarbiya berish jarayoni va usullari, chet til o`rgatish ilmi, muallim va o`quvchi faoliyatini o`rganish metodikaning predmeti sanaladi. Metodikaning asosiy tushunchalari – metod, usul, prinsip. Didaktika- nimani o`rgatamiz? o`qitish mazmuni hisoblanadi. Metodika – qanday o`rgatamiz? ta`lim usullari va metodlari demakdir. Metod – metodika tushunchasi grek-lotincha “metodos-“metodus” so`zidan olingan bo`lib, ma`lum maqsadga eltuvchi yo`llar, usul ma`nosini anglatadi. Turli adabiyotlarda atamaning tor va keng ma`nosini uchratish mumkin. “Metodika” atamasi tor ma`noda ta`limning konkret dars jarayoni bilan bog`liq tushunchani anglatadi. Mashg`ulotlarni rejalashtirish va o`quv materiallarini tayyorlash bilan bog`liq bo`lgan ko`rsatmalarni qamrab oluvchi boshqariladigan dars jarayoni sifatida talqin etiladi.“Metod” atamasi keng ma`noda o`quv materialini tanlash, tabaqalash va taqsimlanishni nazarda tutadi. Germaniya Federativ Respublikasida 60-yillardan boshlab “didaktika” va “metodika” tor ma`noda qo`llanilib kelinmoqda. Shunga ko`ra didaktika ta`lim mazmuni nima o`rgatiladi? Metodika esa ta`lim usullari qanday o`rgatiladi? Masalalari bilan shug`ullanadi. Chet tillarini o`rganish faqat aqliy tarbiya vositasi emas, balki o`zga madaniyat ta`limiy

boyliklari va qadriyatlari bilan tanishish va ularni o`z madaniy hayotiga tadbiq qilish orqali kishi shaxsining shakllanish jarayoni hisoblanadi. Yevropada chet tillarni o`rganish uzoq vaqt yuqori darajadagi ta`lim olishda imtiyoz sanaladi va jamoat maktablarida imtiyozga ega bo`lgan kishilarni tarbiyalash deb qaraladi. Chet til o`qitish metodikasi fan sifatida 200 yildan ortiq tarixga ega. Bu davr ichida chet til o`qitish metodikasiga turlicha munosabatlar bildirilganini kuzatish mumkin. Bunday qarashlardan biri akademik L.V.Shcherbaga mansub hisoblanadi. Uning fikricha, har qanday fanni o`qitish metodikasi fan bo`lishiga qaramasdan, nazariy fan hisoblanmaydi. U amaliy masalalarni hal qiladi. Jumladan, chet til o`qitish metodikasi ham faqat psixologiya dalillariga tayanmaydi, balki umumiyligiga xususiy tilshunoslik tadqiqotlariga asoslanadi. Agar tilshunoslik til hodisalarining kelib chiqishi va harakatlanish qonuniyatlari bilan shug`ullansa, metodika bu qonuniyatlarga asoslanib zarur til hodisasidan amalda foydalanish uchun nima qilish kerak degan savolga javob beradi. Metodikaga oid kitoblarning eng qimmatlilari ham tilshunoslari tomonidan yozilgan. Bular jumladan XIX asr fonetistlaridan biri va buyuk ingliz tilshunosi G.Suit, XIX asr oxiri va XX asr boshida Angliyada eng original fonetist va nazariyotchi tilshunos hisoblangan O.Yesperson, XIX asrning oxiri va XX asr boshlarida eng ko`zga ko`ringan fransuz lingvistlaridan F.Bryuns va Brealya, ko`zga ko`ringan anglist va taniqli fonetist V.Fiyotor va boshqalar kiradi. Rossiyada til o`qitish metodikasi masalasi bilan akademik L.V.Shcherba va uning ustozasi buyuk tilshunos olim I.A.Boduen-de-Kurtone va ularning shogirdlari shug`ullanganlar. Chet til o`qitish metodikasiga psixologlar o`zgacha munosabatda bo`ldilar. Metodika va psixologiya fanlarning o`zaro munosabatlari haqida professor V.A.Artemov qimmatli fikr bildirgan. Uning fikricha, psixologiya metodika uchun material beradi. Metodika o`qituvchining qanday dars o`tishini o`rganadi. Psixologiya esa, o`quvchilarning bu predmetni qanday o`zlashtirib olayotganliklari bilan shug`ullanadi. Lekin, bu fikrga to`la qo`shilib bo`lmaydi. Chunki o`qituvchi dars berish jarayonida, o`quvchi esa o`zlashtirish davrida ma`lum ruhiy jarayon va holatlarni boshdan kechiradilar, ular xohlaydilar, yo`qmi psixologiyaning qonunlariga ro`baro bo`ladilar va ta`sirlanadilar. Metodika tarixga oid adabiyotlarni chuqurroq o`rganish shuni ko`rsatadiki, ayrim tadqiqotchilar metodikani san`at deydilar. Ular odatda fransuz metodisti Penlash fikriga ishora qiladilar, ya`ni “yaxshi” yoki “yomon” metod yo`q “yaxshi” yoki “yomon” o`qituvchilar bor. Bunday fikrdagi kishilarga nemis metodisti E.Ottoning 1924-yilda bayon qilingan fikrlari bilan javob berishi mumkin. U jumladan shunday deydi: “Agar kimki metodikani san`at deb hisoblar ekan, u fan nazariyasini uning amalda qo`llanishi bilan qorishtirib yuboradi”. Har bir fanda o`z tushunchalar yig`indisi mavjud. Chet til o`qitish metodikasida qabul qilingan asosiy tushunchalar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin: ta`lim sistemasi, ta`lim metodi, ta`lim prinsipi, ta`lim vositasi, metodik usul. Chet til o`qitish metodi – deyilganda chet til o`rgatishning

amaliy, umumta`limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga erishuvni ta`minlovchi muallim va o`quvchi faoliyatining majmuasi tushuniladi. Metod atamasi “ta`lim usullari yig`indisi” va “ta`limning yo`nalishi” ma`nolarida qo`llanadi. Birinchisi ta`lim nazariyasida jarayon metodlar ma`nosida ishlatilsa, ikkinchi ma`noda uni o`qitish metodikasi tarixiga oid asarlarda uchratishimiz mumkin. Masalan, chet til o`qitishning tarjima metodi, tog`ri metod, ongli- qiyosiy metod, an`anaviy metod, intensiv metod va boshqalar hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Tabiat va jamiyat hodisalari o`zaro bog`langan va uzlusiz aloqada rivojlanadi. Fanlar obyektiv voqelikning inikosi ekanligi uchun ularning hech biri boshqalaridan ajralgan holda mavjud emas. Hodisa va predmet ayni zamonda bir talay fanlarning tadqiqot manbai bo`la oladi, misol uchun, “til” ijtimoiy hodisasini o`z nuqtai nazaridan tilshunoslik (lingvistika), ruxshunoslik (psixologiya), ta`limshunoslik (didaktika) o`rganadi. “Chet til metodikasi” atamasi kishi ongida quyidagicha ya`ni assotsatsiya “bog`lanish” uyg`otadi: avvalambor, tilni o`rgatishga qaratilgan metod va metodik usullar yig`indisi tushuniladi yoki o`qitish metodlari haqidagi ilmiy bilimlar va nihoyat, mustaqil pedagogik fan ko`z oldimizga keladi. Chet til o`qitish metodikasi didaktika bilan uyg`un, o`zaro bog`langan holda rivojlanib kelgan. Barcha o`quv fanlarining o`qitish nazariyalari didaktika faniga asoslanishi, undan ilmiy ozuqa olishi shubhasiz barchamizga ma`lum. Chet til o`qitish ham didaktikaga asoslanadi. Didaktika ta`limining umumiylaz nazariali, metodika muayyan o`quv predmetini o`qitish ilmi, lingvodidaktika tillarni o`qitish umumiylaz nazariali, lingvometodika aniq bir tilni o`qitish ilmi sifatida qaraladi. “Metod” atamasi bilim, malaka, ko`nikmani egallash, o`quvchilarda dunyoqarashni shakllantirish va bilish imkoniyatlarini yaratish yo`lidagi o`qituvchi-pedagog va talabaning ish usuli ma`nolarini bildiradi. Ushbu tushuncha son –sanoqsiz ta`riflarga ega. Chet tillar o`qitilishida metodlarni tatbiq etish uzoq davrlardan boshlangan, prinsiplar esa nisbatan yangiroq metodik atamalardir. Tarixan metodlar to`rt guruhga birlashtirilib, ularning nomlariga “tarjima”, “tog`ri”, “qiyosiy”, “aralash” deb atash qabul qilingan. Metodlar tarixi atoqli metodist prof. I.V.Raxmanov tomonidan chuqur o`rganilgan. Tarjima metodi asosan ikki ko`rinishda bo`lib, grammatika-tarjima va matn-tarjima metodlari nomi bilan yuritiladi. Grammatika-tarjima metodi nuqtayi nazaridan chet til umumta`limiy maqsadda o`rganilgan. Grammatik mashqlar til o`rganuvchining mantiqiy tafakkurini o`stirish maqsadida bajarilgan. Grammatik bilimlarni bayon etish ta`limning asosiy maqsadi deb qabul qilingan. Bu metodning asosiy prinsiplari quyidagilar: 1. Til o`rganish yozma nutqqa asoslangan. 2. O`rganish predmeti qilib grammatika olingan, leksika ham unga tobe ravishda tanlangan. Grammatik mashqlar bajarish asosiy ish usuli bo`lgan. 3. Oldin, grammatik qoida yod olingan, so`ng esa qoidalar asosida gaplar tuzish tavsiya qilingan. 4. Grammatik shakl va so`zlarning ma`nosи so`zma-so`z tarjima

vositasida o`chib berilgan. 5. So`zma-so`z tarjima va quruq yodlash yo`li bilan til materiali o`zlashtirilgan. 6. So`zlarni kontekstdan tashqarida, yakka yodlash bilan chegaralanilgan. Tarjimasiz metod. Mazkur metodning turli ko`rinishlari tarixan ma`lum. Ularni ikki yirik guruhga ajratish mumkin: tabiiy va tog`ri metodlar. Tabiiy metodda chet tilni o`rganish ona tilini egallah sharoitiga monand bo`lishi kerak. Metodning bosh maqsadi chet tilida gapirishni o`rganish orqali o`qish va yozishni o`rganib olishga imkoniyat yaratiladi, degan g`oya amaliy maqsadtarzida shakllangan. Tabiiy metod tarkibiga kiritilgan prinsiplardan eng muhimi-til muhitini yaratishdir. Olg`a surilgan metodik prinsiplarni amalda qo`llash bobida turli yondashuvlar paydo bo`lgan. Metod namoyondalarining ijodiy faoliyatida buni yaqqol sezish mumkin. Chet til ta`limidan ko`zlangan maqsadning yangicha talqinida, asosan, pragmatik tilshunoslik tadqiqotlari natijalariga tayanildi. Tilshunoslikningbu sohasi tilni tilga oid shakl tizimi emas, balki inson faoliyati sohasi deb talqin qiladi. Chet til ta`lim sohasida 70-yillarning boshidan beri to`plana boshlangan yangi xulosalar majmui ta`lim maqsadini belgilash sohasida qizg`in munozaralariga olib keldi. Chet til ta`limining asosiy yo`nalishlarini belgilovchi maqsadi o`quvchilarga “muomala qilishni o`rgatish”, “Befaeigung zur Kommunikatsion” (kommunikative Kompetenz) bo`lgan yangi o`quv rejalar qabul qilindi. 70-yillarda “kommunikativ metod” bir qator urinishlardan so`ng bir necha bosqichda o`z isbotini topdi. Shunday asnoda metodika fani rivojlanib bordi. Hech qaysi chet tilni biz uning metodikasini chuqur o`rganmasdan egallay olmaymiz. Chet til o`qitish metodikasida “kommunikativ didaktika” metodi ham ahamiyatga molik sanaladi. Kommunikativ didaktika quyidagilarni o`zida mujassamlashtiradi. - Ochiq va moslashuvchan dars konsepsiysi; - mavzu va mazmun muhim; - darsdagi asosiy ish shakli: suhbatlashish va guruh bo`lib ishlash; - o`quvchilarni faollashtirish va tildan ijodiy va erkin foydalanishga e`tibor katta bo`lishi zarur; - Tushunishdan fikrni izhor qilishga prinsipi asosida mashqqa kuchli e`tibor berish; - Ma`noni ochishda, harakat ko`lamini belgilashda va mashqni tashkil qilishda vizualizatsiya (ko`rish tayanchi) muhim ro`l o`ynaydi; - Kundalik nutqiy muloqotni hayotiy vaziyatda o`rganish (dialogni mashq qilish); - Tildan og`zaki foydalanish va shu bilan birga asliy matnlarni tushunish muhim hisoblanadi. Kommunikativ didaktika tinglab tushunish materiali sifatida tabiiy nutqiy vaziyatdan foydalanishni birinchi o`ringa qo`ydi, ya`ni, transportdagi, vokzaldagi e`lonlar, radio va televideniyedagi reklamalar, telefonagi suhbatlar va shu kabilarni misol keltirishiiz mumkin. Axborotni tinglab tushunish qabul qilish bo`yicha qo`yilgan maqsadlar o`zgardi. Tinglaganini hikoya qilish va nazorat qilish ham boshqacha tus oldi. Mazkur metod maqsaddan kelib chiqqan holda tinglovchiga tinlab tushunishning quyidagi turlarini ajratib berdi: ♣ Keng ma`noda matnning ba`zi bir detallariga ahamiyat bermay, uning asosiy mazmunini tushunish; ♣ Aniq informatsiya muhim bo`lganda, masalan, ma`lum bir joy uchun obhavoning zarurligi, poyezdning kelishi-ketishi

tog`risidagi e`lon va boshqalar shu metod jumlasidandir. Aynan bu bilimlarni ongimizda saqlab qolishimiz, kommunikativ didaktikaga oid ma`lumotlarni o`rganishimiz, “kommunikatsiya” tushunchasidan kelib chiqqan holda, “madaniyatlararo muloqot” terminiga o`zaro mazmuniy jihatdan bog`lanadi. Chet til o`qitish metodikasida hozirda madaniyatlararo muloqot iborasi keng qo`llanib kelmoqda. Aynan bu tushunchani biz turli xildagi kontekstlarda qo`llashimiz mumkin. Aslida esa: Madaniyatlararo muloqot – turli madaniyat vakillarining ijtimoiy kelib chiqishi, mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, urfodatlari, qadriyatlari sistemasi va boshqalar tog`risidagi muloqoti-ma`lumotidir. Mazkur jarayonda o`quvchi-talabalarni o`rganilayotgan mamlakat madaniyatiga nisbatan hurmat, sabr-toqat qilish va o`zga mamlakat madaniyatini tog`ri tushunish ruhida tarbiyalab, rivojlantirib borish lozim. Har bir chet tili darsi madaniyat chorrahasi, madaniyatlararo muloqot amaliyoti hisoblanadi. Chunki mazkur jarayondagi har bir chet tilidagi so`z chet el hayotini va madaniyatini o`zida aks ettiradi. O`qituvchilar oldidagi vazifa o`quvchi va talabalarning kommunikativlik, muloqotga kirisha olish qobilyatini o`stirishdan iborat. Buning uchun kishilarni samarali muloqot qilishiga o`rgatuvchi o`quv qo`llanmalar va chet tildagi to`rtta nutq faoliyatini rivojlantirishga yo`naltirilgan ta`limning yangi metodlarini o`zlashtirish zarurdir. Madaniyatlararo muloqot formulasi sabrlilik, bag`rikenglik hisoblanadi. Madaniyatlararo muloqotda ijtimoiy-madaniy xatolarga yo`l qo`ymaslik talab etiladi. Masalan, nemis xalqida, “Tee oder Kaffee?” ya`ni “choymi yoki kofemi” degan savolga ona tilimizda, - “ Tee”, “choy”- deb javob beramiz, lekin nemis tilida esa bunday javob tog`ri kelmaydi. Nemis tilida, “Bitte, Tee” ya`ni, “Marhamat, choy” deb javob beriladi. So`z kishilarni muloqot orqali bir-biriga bog`laydi. Yangi materialni bir vaqtning o`zida barcha nutq faoliyati turlarida qo`llash natijasida malaka va ko`nikma hosil qilinadi. Bu jarayonda kommunikativ vositalar, ko`rgazmalilik, zamonaviy texnologiya turlari, usullari, izchillik prinsipi ta`minlansa, ta`limning sifati va samaradorligi oshib boraveradi. O`qituvchi-muallimning muvaffaqiyatli faoliyat ko`rsatish uchun nafaqat predmetli, pedagogik va psixologik bilimlar, balki yana boshqa alohida xususiyat– muloqot qila olish ko`nikma va malakalari ham, albatta, zarur hisoblanadi. Inson go`dakligidan boshlab muloqot malakalarini egallay boshlaydi. Ammo katta bo`lganidan keyin hamma ham kerakli darajada muloqot o`rnata olmaydi. Pedagoglik kasbi o`z xususiyatiga ko`ra „inson-inson“ tipidagi kasblarsirasiga kiradi va shuning uchun ham muloqot qila olish ko`nikmasi pedagog uchun yetakchi, kasbiy muhim ko`nikmalardan sanaladi. Pedagogning o`quvchilar bilan olib boradigan muloqot va muomalasiga qarab bolalarning o`quv predmetiga qiziqishi, demakki, o`quv motivlari shakllanadi. Pedagogik muloqot usuli o`quvchilar tomonidan predmetli bilim, ko`nikmalarning natijaviylici, shaxslararo munosabat madaniyatiga ta`sir ko`rsatadi, ta`lim jarayonida o`ziga xos axloqiy-psixologik iqlimni vujudga keltiradi. Muloqot shaxs

ijtimoiylashuvining muhim sharti hisoblanadi. Shu o`rinda pedagogik muloqot aslida nima ekanligini bilish zarur hisoblanadi. Pedagogik muloqot – bu o`qituvchi va tarbiyalanuvchining o`zaro hamkorligi bo`lib, u o`zaro axborot, eng avvalo o`quv axboroti, almashinishiga asoslanadi, pedagogik muloqot sherigini anglashga, shuningdek, o`zaro hamkorlik faoliyatini amalga oshirishga yordam beradi. Bunda axborot ham verbal ya`ni, nutq orqali, ham noverbal – vositalar orqali yetkaziladi. Pedagogik muloqot jarayonida o`qituvchi asosiy rolni o`ynashi va o`quvchilar uchun namuna bo`lishi lozim. Bu uning kommunikativ madaniyati bilan baholanadi. O`qituvchining kommunikativ madaniyati – bu uning o`quv-tarbiya jarayoni subyektlari bilan professional-pedagogik muloqotdir. Kommunikativ madaniyatning zaruriy darjasida sifatida shuni belgilash mumkinki, bunda o`qituvchi o`z tarbiyalanuvchilari va hamkasblarini ijobiy qabul qila oladi hamda ta`lim va tarbiya maqsadlariga erishishni so`zsiz ta`minlay oladi. Kommunikativ madaniyatning ijtimoiy ahamiyati shundaki, uni egallagan o`qituvchi ta`lim jarayoni barcha subyektlari o`zaro munosabatlarida ijobiy psixologik iqlimni yarata oladi, ta`limni modernizatsiyalashning muhim prinsiplari bo`lmish – insonparvarlik va demokratlashtirishni amalga oshiradi. Shaxsiy ahamiyati shundaki, kommunikativ madaniyatga ega bo`lgan pedagogning o`ziga ishonchi yuqori bo`ladi, tarbiyalanuvchisi bilan qurilgan muloqotdan zavqlanadi, tanlangan ish faoliyatida o`zini erkin his etadi. O`qituvchi kommunikativ madaniyati tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: 1. Kommunikativ ko`nikmalar. 2. Pedagogning muloqotga kirishuvchanligi. 3. Pedagogning muloqot madaniyati. 4. Pedagogik muloqot metodlari. Kommunikativ ko`nikmalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1. Ijtimoiy-psixologik ko`nikmalar. Ular o`quvchilarni muloqotga kirishish uchun tayyorlaydi, ijobiy taassurot uyg`otadi, har bir o`quvchi shaxsini, uning mavqeい darajasini qabul qilishiga, shaxslararo munosabat rivojini bashorat qilishga yordam beradi, psixologik ta`sir vositalarini qo`llashga, ishontirish, singdira olish, identifikatsiya qilishga imkon yaratadi. 2. Axloqiy-estetik ko`nikmalar. Bu muloqotni insonparvar, demokratik asosda ko`ra olish, kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya qilish, har bir o`quvchining shaxs sifatidagi qadr-qimmatini o`rniga qo`yish, o`quvchilar jamoasi va har bir o`quvchi bilan ijodiy hamkorlikni o`rnata olish ko`nikmalari sanaladi. 3. Estetik ko`nikmalar. Bu ichki va tashqi holatlarni uyg`unlashtira olish, artistlik qobiliyatiga ega bo`lish, estetik ifodalanganlik, o`smirlarni muloqotning yuqori madaniyatliga jalg qilish, ularning emotsiyonal kayfiyatini, optimistik idrokini faollashtrish bilan belgilanadi. 4. Texnologik ko`nikmalar. Bu o`quv-tarbiya vositalari, metodlar, usullar o`zaro hamkorligining turli shakllarini tanlay olish, muloqotni boshqarishning optimal metodini tanlash, pedagogik nazokatga rioya qilish, uning tarbiyaviy samaradorligini oshirish bilan belgilanadi. Pedagogik muloqot madaniyati uchun zarur bo`lgan qator shaxsiy sifatlarhaqqoniylilik, ochiqlik, o`z-o`zini boshqara

olish, talabchanlik, samimiylilik, sabrtoqatlilik, chidamlilik, taktika kabilarni o`z ichiga oladi. O`qituvchi faqat o`z kommunikativ mahoratini emas, balki o`quvchilarning ham madaniyatlararo muloqotini shakllantirishi lozim. O`qituvchi o`quvchi-yoshlar psixologiyasini yaxshi bilishi, ularning ijtimoiy qarashlarini, ijtimoiylashuv jarayonlarini puxta bilishi talab etiladi. Shuni alohida ta`kidlash lozimki, pedagogik, madaniyatlararo muloqot yakuniy natijaga ko`ra muaffaqiyatga erishishi yoki muaffaqiyatsizlikka uchrashi bu pedagog-muallimning qanday muomala metodini tanlashi va uni qanday amalda qo`llay olishiga bog`liqdir. Pedagog dars mobaynida nafaqat o`zi ishlashi balki o`quvchilarni ham dars jarayoniga qiziqtira olishi, o`z fikrini erkin bayon etishga o`rgatishi lozim. Albatta, bu natijaga faqatgina, darsni tog`ri tashkil etish, ilg`or, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan keng amalda foydalanish orqaligina erishish mumkin. Pedagogning innovatsion faoliyati o`z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va konsepsiyasini shakllantirish, amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni ham qamrab oladi. Yuqoridagi barcha fikr va mulohazalardan ko`rinib turibdiki, bunday ijobiy natjalarga erishish uchun pedagog chet til o`qitishda keyingi qadam, ya`ni “mashq texnologiyasi”ga murojat etishi lozim va uni amalda qo`llash bilim olishdagi ko`nikma va malaka sari yetaklaydi.

## XULOSA

Chet til o`rganish ko`p qirrali ta`limot bo`lib, bu jarayonda inson murakkab psixologik o`zgarishlarni boshdan kechiradi. Jumladan ona tili bilan chet tilini taqqoslash jarayoni yuzaga keladi. Bu jarayonda o`rgatishning turli metod va texnologiyalaridan foydalaniladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar yordamida chet til bilan ona tilini taqqoslab o`rgatish samarali natija beradi. Chet til o`rgatish uning metodikasiga oid bilimlarga ega bo`lishni taqozo etadi. Metodika va texnologiyalar chet til o`rganish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Darsni tashkil qilishda metodika fanining turli usullari mavjud. Chet til o`qitish metodikasida keng qo`llaniladigan metodlar: kommunikativ didaktika metodi, madaniyatlararo muloqotni tashkil qilish metodi va mashqni tashkil qilish metodi hisoblanadi. Uchala metod bir biri bilanchambarchas bog`liq va bir-birini to`ldiradi. Metodika fani didaktika fani bilan bog`liq bo`lganligi sababli, chet til o`rganish mobaynida kommunikativlikka asoslaniladi va kommunikativ didaktika metodi yuzaga keladi. Kommunikativ didaktika metodinini qo`llash jarayonida pedagogning madaniyatlararo muloqotni shakllantirish metodi ham shakllanadi. Chet til o`rganish natijasida o`zga mamlakat madaniyati ham o`zlashtiriladi. Chet til ta`limida kerakli bilimlarni egallash uchun “mashqni tashkil qilish texnologiyasi” muhim ahamiyat kasb etadi. Barcha bilimlarni o`zlashtirish uchun mashq eng yaxshi usul hisoblanadi. Mashq nafaqat chet til ta`limida balki barcha soha bilimlarini o`zlashtirishda ham ijobiy natija beradi. Darsni samarali tashkil etish, unda pedagog faoliyati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o`rni

beqiyosdir. Chet til o`rganish jarayonini kommunikativlikka yondashgan holda tashkil qilish, keyingi bosqich madaniyatlararo muloqot darajasiga yetkazish, bunday natijalarga erishish uchunesa, so`ngi qadam, “mashq texnologiyasi”ga e`tibor qaratish muhim. Chet til o`rgatish jarayonini natijaviy tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik axborot kommunikatsiya texnologiyalariga oid bilimlar egallash lozim.

**REFERENCES**

1. Maxmudov, Q. S. O. G. L., Shayxislamov, N. Z. O. G. L., & Jo, B. B. O. G. L. (2020). O „zbek va xorijiy tillarda antonimlar tavsifi, o „rni va ularning turli jihatdan tasniflanishi. Science and Education, 1(Special Issue 3).
2. Juraboyev, B. B. (2020). Nemis tilini o'qitishda kommunikativ yondashuv. Science and Education, 7(7), 215-220.
3. Joraboyev, B. B. O. (2021). Using authentic materials on english lessons. Academic research in educational sciences, 2(2).
4. Joraboyev, B. (2020). Nemis tilida juft otlar va ularning o'zbek tilida ifodalanishi. Science and Education, 1(Special Issue 4).
5. Журабоев, Б. (2020). Мотивированные люди для удовлетворения своих собственных потребностей. Academic research in educational sciences, (3).

**NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THEIR APPLICATION IN  
FOREIGN LANGUAGE LESSONS**

***Israelova Khursanoy Pozilovna***

*Margilon city 30 schools English teacher*

+99890339001810

**ABSTRACT**

The term technology is derived from production, in which thousands of technological processes are designed. They are the key to achieving the desired results. When these technologies are used, the region and their executors change, but they still produce the product they need. Pedagogical technology will be developed to achieve this in the educational process.

**Keywords:** special method , pedagogical technology, process, students ability, to study the topic , traditional methods, ability to speak fluently.

**АННОТАЦИЯ**

Термин «технология» происходит от производства, в котором разрабатываются тысячи технологических процессов. Они являются ключом к достижению желаемых результатов. При использовании этих технологий меняется регион и их исполнители, но они по-прежнему производят нужный им продукт. Для достижения этого в образовательном процессе будут разработаны педагогические технологии.

**Ключевые слова:** специальный метод, педагогическая технология, процесс, способность студентов к изучению темы, традиционные методы, умение свободно говорить.

**INTRODUCTION**

Another unique feature of pedagogical technology is that a well-designed pedagogical technology can be taught well by any teacher, even if they are not knowledgeable. Because pedagogical technology is created by pedagogical scientists, their skills are reflected in the design of the technological process. As before, statements such as “the purpose of the lesson was not achieved for objective reasons” or “the lesson was created for unexpected reasons” and the like have no place in pedagogical technology. Based on the above-mentioned features of pedagogical technologies, it can be explained as follows: Pedagogical technology is a new approach to the educational process, and pedagogy is an expression of social engineering consciousness. It is a social phenomenon associated with the development of an optimal lesson plan based on the technical capabilities of the pedagogical process and human technical thinking. This means that the role of pedagogical technologies in the

teaching of social sciences and humanities is great. Without them, the goal can not be achieved. In pedagogical technology, as well as a special method, the method of development, research is used. In the formation of independent free citizens it is necessary to train specialists with a certain amount of knowledge necessary for the national economy and entrepreneurs who seek solutions to various problems. In the upbringing of such people, the product of teaching typical actions and research methods that learn to find a way out of non-standard situations are compatible. Pedagogical technology makes good use of the range of methods we need: The main difference between the traditional methods and techniques of pedagogical technology is that it is derived from the theory of complexes, which is subject to all the laws of this theory. Today, the teaching of foreign languages to students on the basis of modern pedagogical technologies, ie modern interactive methods, is becoming a topical issue in higher education. One of the main issues is the use of teaching skills in the process of teaching foreign languages, the effective organization of the teaching process, adaptation to educational standards, raising to world standards, the perfect formation of knowledge and skills of teaching foreign languages to students. is one of the important factors in the learning process. Today, modern technologies for interactive teaching of foreign languages are being developed and used effectively in the teaching process.

## **MATERIAL AND METHODS**

The main difference between modern interactive methods and traditional methods is that students are free in the process of learning foreign languages, think independently, have the opportunity to express their opinions, engage in discussions, communicate freely with the teacher. In the process of teaching foreign languages on the basis of modern interactive methods, the following is done: - Students plan and actively participate in the lessons; Students work independently and consolidate their knowledge according to a set curriculum. - Students engage in a discussion on the topic during the lesson and all actively participate in it; - Students participate as partners in the selection and implementation of teaching methods, express their views; - Students are provided with the opportunity to describe and explain their knowledge, that is, to share it with others; Of course, in all of the above, students can achieve a step-by-step process of learning foreign languages through interactive methods. The following technologies of interactive methods are widely used in foreign language learning today:

1. Interactive game mode.
2. Methods of active participation of students in pairs and in groups.
3. The method of mental observation.
4. Type of frontal training.
5. Aquarium method.
6. Brownian motion method.
7. Incomplete speech method.
8. How to take your place.
9. Discussion and other similar methods.

The interactive method of teaching foreign languages is based on the abovementioned modern technologies, as a result of which the student's knowledge and skills of independent thinking and

speaking are perfectly formed. Their freedom is created during the lesson, which means that students set their own goals and objectives, discuss, debate, and finally draw conclusions on the topic being studied.

## **DISCUSSION AND RESULTS**

In general, students play a leading role in the interactive method of teaching, which is determined by their excellent command of a foreign language, the ability to express themselves independently, that is, the ability to speak fluently. In the early twentieth century, the American philosopher, psychologist and educator John Dewey argued that the student should be active, not the teacher, in the classroom. He argued that dry memorization of knowledge in a book does not lead to anything, but rather cools students from reading and corrupts their thinking. Dewey's major contribution to education is the "complete process of reasoning." The founders of the Audiolingual Method are American Methodists Ch.K.Fris and R.Lodo, who use audio-visual and audio-visual methods of modern forms of the correct method in secondary schools in Uzbekistan. Audiolingual Latin "audio" means I hear, I listen, "lingua" means language, I hear the language, I listen. Let's take an example of this method. For example: To give students an idea of the country where the language is being studied. During the lessons, students are first introduced to the border areas of France. Then the topics will be explained, such as the traditions and customs of the country, its customs and celebrities. They can be summarized and a diagram can be drawn up so that the reader can remember them. In the middle of the diagram, France, ie La France, is written in a circle. Lines are drawn at the edges of the circle to describe the countries, traditions and customs of France, celebrities, and each of them is highlighted. Through this method, when we say France, the whole country is represented in the eyes of the reader. In addition, the use of various games in French language lessons is also good for language learning. French textbooks for beginners are a good example of this. The textbook contains a variety of puzzles, games, puzzles that encourage students to read, think, reason. Answers to puzzles in the textbook we find in the methodological manuals created for teachers. In conclusion, the use of different methods in teaching foreign languages is very effective. How interesting the lessons are, the interest of students in the language, modern pedagogical approaches to the pedagogical skills of the teacher, the focus of the educational process is the student's learning activities, the approximate design of the educational process, diagnostic accuracy and objective control of the outcome, the integrity of the learning process, and so on. A high level of student performance is the ability to organize one's own learning activities, to make the will and activity the subject of the student's consciousness. The ability to set this goal independently is reflected in the ability to choose ways of doing things, to be able to agree with others within their own influences and relationships, and to coordinate work, self-control. This can be done through advanced learning technologies. For example:

“I know. I want to know. I learned ”method. This method allows students to assess the level of knowledge on specific topics. In the process of applying the method, it is possible to work with students in groups or in groups. The activity performed by is analyzed. The advantage of using the method is that in this process, students develop the ability to study the topic in specific parts and to determine the logical connection and connection between the parts on the basis of analysis and synthesis. The method of "working with red and green cards". It is very convenient to use this method when working with students in groups and in groups. The method can be used to organize quick Q&A sessions at the end of the session. The method is based on the organization of the following actions: - A set of special cards is prepared by the teacher, which express the concepts that serve to illuminate the essence of the subject in a logical sequence. - Each group is given a special set of cards and is tasked to place the card in a logical sequence based on the concepts in them; - When the task is completed by the groups, the back of the card is erased and a special cover is opened to determine the correctness of the task.

## **CONCLUSION**

In conclusion, it should be noted that the teaching profession, unlike other professions, involves a multifaceted responsibility, firstly, it is the formation of personality, that is, a deep knowledge of the human psyche, and secondly, all aspects of education. He must organize the educational process through the effective use of tools, methods and ways, that is, he must achieve the effectiveness of teaching, and thirdly, he must form his own qualities in the process of development of society and nature. The teacher must shape the personality of the younger generation in accordance with the requirements of society.

## **REFERENCES**

1. Abdunazarov Sh. "Actual issues of education and upbringing" Karshi
2. Azizxo'jayeva N.N. "Pedagogical technology and pedagogical skills" Tashkent
3. Абдуллаева, Марҳабо Рахмонкуловна . "Феълий фраземаларни ўзбек тилидаги мұқобил варианти гурухланиши ( Агата Кристи асарлари таржималари мисолида
4. G.Salomov "Literary Criticism and Literary Translation" "Science" Publishing House Tashkent -
5. Абдуллаева Марҳабо Рахмонкуловна. Инглиз тилидан ўзбек тилига таржима яраиши ва ўзига хос хусусиятда.

**ZAMONAVIY NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ISMLAR TARIXIY  
SHAKLLANISHI**

**СОВРЕМЕННЫЕ ИМЕНА В НЕМЕЦКОМ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ И ИХ  
ЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА**

**MODERN GERMAN AND UZBEK NAMES AND THEIR LINGUISTIC  
PECULIARITIES**

***Ziyodbek Abdullaev - FDU katta o‘qituvchisi, PhD***

**Annotatsiya:** Mazkur maqola o‘zaro qardosh bo‘limgan nemis va o‘zbek tillari ismlariga bag‘ishlangan bo‘lib, unda har ikkala tildagi ismlar lingivistik va sotsiolingivistik xususiyatlari qiyosiy aspektida tahlil etilgan.

**Аннотация:** Эта статья посвящена именам немецкого и узбекского языков, которые являются не родственными языками. В ней рассматриваются лингвистические и социолингвистические свойства имен двух языков в сопоставительном аспекте.

**Annotation:** This article was devoted to proper names of German und Uzbek languages that is not related. In this article, proper names of both languages were analyzed by peculiarities of linguistic and sociolinguistic in comparative aspect.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ism tanlashda nafaqat ism beruvchining individual fikru qarashlari, balki unga ta‘sir etuvchi turli madaniy va ijtimoiy omillar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Umumiyligida qaralganda, farzandga nom tanlash o‘zbek xalqi orasida ham xalqaro miqyosda, ya‘ni boshqa xalqlarda ham deyarli o‘xshash motivlar asosida amalga oshiriladi. Nemiszabon mamalakatlarda va yurtimizda farzandga ism berishda uning oson talaffuz etilishi, ota-onalar orzu-istiklari muhim ta‘sir etuvchi faktorlar hisoblanadi. Shuningdek, nom beruvchi yashab turgan ijtimioy muhit, qatlama, bajaradigan kasb, ular ma‘lumotlilik darajasi, ma‘lum bir hududda tug‘ilganlik yoki ma‘lum dinga taalluqli bo‘lish ham nom tanlashga sezilarli ta‘sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Ismlar jinslar va turli ijtimoiy qatlamlarni bir-biridan farqlash vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy, siyosiy o‘zgarishlar ham o‘sha davr ismlarida o‘z aksini topadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, ismlar mamlakat ijtimoiy va madaniy hayotida yuz berayotgan voqealari - hodisalar inikosi sifatida namoyon bo‘ladi. Ayniqsa bu urfdagi ismlar misolida yorqinroq namoyon bo‘ladi. Masalan, bugungi kunda Germaniyada

eski, milliy hisoblangan Paul, Maximilian yoki Emma kabi ismlar ommalashib bormoqda.

Ismingni ayt, qanday inson ekanligingni aytaman („**Sage mir wie du heißt, und ich sage dir, wer du bist**“) qabilidagi gaplarda ma'lum ma'noda haqiqat yashiringan. Familiyalar biror insonning kelib chiqishi haqida xabar beradi, ismni esa erkin tanlash mumkin va u ma'lum bir qarash, maqsadni, biror dinka yoki ijtimoiy qatlamga mansublikni ifodalaydi.

Nemis va o'zbek tillari ismlarini lingvistik va sotsiolingvistik tadqiq etgan holda quyidagi fikrlarni keltirish mumkin:

*antroponim* (yunoncha: *antropos* - *antropos* + *onoma-atoqli ot*) – kishi atoqli oti (ism, familiya, laqab, taxallus, patronim va boshqalar). Atoqli ot tiplaridan biri. Ma'lum bir tilda mavjud bo'lgan barcha kishi atoqli otlari majmui, fondi *antroponimiya* deb yuritiladi.

Atoqli otlar sistemasiga kiruvchi antroponimlar ham o'z navbatida boshqa mayda sistemalarga bo'linadi. Bular quyidagilar:

1. Ismlar;
2. Familiyalar;
3. Ota ismlari;
4. Taxalluslar;
5. Laqablar.

O'zbekcha ismlarning lisoniy xususiyatlarini ilmiy jihatdan o'rganish 1960 yillardan boshlangan. Xuddi shu davrda D.Abdurahmonov (1960), O'.Nosirov (1965), F.Abdullayev (1960, 1961), M.Shamsiyeva (1962), A.Ishayev (1961), X.Doniyorov (1960) kabi olimlarning o'zbek antroponimikasiga doir ayrim ilmiy va ilmiy-ommabop maqolalari e'lon qilingan edi.

O'zbek antroponimikasining asoschisi, hech shubhasiz, E.A.Begmatov sanaladi. U 1962-1965 yillar davomida o'zbek antroponimiyasi bo'yicha juda boy material to'pladi va antroponimlarning lingvistik, ekstralengvistik xususiyatlari, ismlar, laqablar, taxalluslar, familiyalar, otaismarning leksikasi, strukturasi, grammatic xususiyatlari bo'yicha qator salmoqli maqolalar e'lon qildi.

Nemis tili antroponimlari rivojlanishi ma'lum tarixiy shakllanish bosqichlarini bosib o'tgan. Qadimgi german qabilalarida dastlabki ismlarning paydo bo'lish davri eramizdan avvalgi VII-V asrlarga to'g'ri keladi. Mazkur ismlar ikki qismdan iborat bo'lgan va ular sehrli kuchga ega, ism egasi taqdiriga ta'sirqiladi, shuningdek, ismlar odamga kuch, jasurlik baxsh etadi, g'oliblik olib keladi hamda u xudolar panohida bo'ladi, deb ishonilgan: *Eberhart* – ёввойи қўнгиз каби кучли; *Bärhart* – айик каби кучли, бақувват; *Wolfgang* – бўрига ўхшаб юрадиган....

Qadimgi german ismlari asosan ikki qismdan iborat bo‘lgan. Ism qo‘yilayotgan uning ma‘nosi muhim ahamiyat kasb etgan: *Theoda-rich (Dietrich)* „*xalq orasida kuchli“ ma‘nosini anglatadi.*

Xalqlarning buyuk ko‘chishi davrida german qabilalalrida ma‘lum bir shaklga solingan ismlar shakllana boshlaydi, ularda erkaklar jangchi, boshqaruvchi, biror qavm a‘zosi yoki biror hayvon kabi kuchli ma‘nosida gavdalanadi.

Masalan: *Willi/had* ismida *habuzso‘zi* o‘zak bo‘lib, ‘jang, kurash’ ma‘nosida. - *frid* asosan *Sig/frid*, *Badu/frid* kabi ismlar ikkinchi qismi sifatida uchraydi va ‘biror xalq tinchligi himoyachisi’ ma‘nosini anglatgan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har qanday antroponimik tizimi jamiyatdagi ijtimoiy va siyosiy ta‘sirlar ostida shakllanib boradi va shu sababli ham ismlar jamiyat va ijtimoiy hayot inikosi sifatida namoyon bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Duden - Das große Vornamenlexikon: Herkunft und Bedeutung von über 8 000 Vornamen, Dudenverlag, 1998.
2. Kunze, Konrad: dtv-Atlas Namenkunde. Vor- und Familiennamen im deutschen Sprachgebiet. Digitale Bibliothek Band 124. Berlin: Directmedia Publishing GmbH. 2005.
3. Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли лугати. – Наманган, 2006.
4. Ziyodbek M. Abdullaev. (2022). THE NAME AS AN INDICATOR OF CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT. Oriental Journal of Philology, 2(02), 15–19.  
<https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-02-02-03>
5. Abdullaev, Ziyodbek (2021) Usbekische Personennamen -Etymologie, Grammatik, Pragmatik. PhD, Universität Regensburg, [https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISSERTATION\\_Ziyodbek\\_Abdullaev\\_final\\_09\\_12\\_2021.pdf](https://epub.uni-regensburg.de/51175/1/DISSERTATION_Ziyodbek_Abdullaev_final_09_12_2021.pdf)
6. Abdullaev Ziyodbek (2017). PERSONENNAMEN IM DEUTSCHEN UND USBEKISCHEN: EINE KONTRASTIVE UNTERSUCHUNG. Ўзбекистонда хорижий тиллар илмий методик электрон журнал I, [https://journal.fedu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal\\_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf](https://journal.fedu.uz/wp-content/uploads/sites/3/2019/04/Jurnal_2017-1Ziyodbek-Abdullaev.pdf)
7. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). Personal Names of Turkic or Uzbek Origin. International Journal of Culture and Modernity, Volume 18, 12-18., <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm/article/view/391>
8. Abdullaev Ziyodbek Mansurovich (2022). PERSONAL NAMES OF MONGOLIAN ORIGIN. PEDAGOGS Jurnali, 12(1), 62–65. Retrieved from <http://www.pedagoglar.uz/index.php/ped/article/view/1460>
9. ISKANDAROVA, S., & ABDULLAYEV, Z. (2018). Formation of personal names in languages of different systems. Scientific journal of the Fergana State University, 1(1), 58-60.
10. Ziyodbek, Abdullaev (2022). O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA JINSNING IFODALANISHI. EDITORIAL BOARD, 613. (<https://dspace.uzhnu.edu.ua/jspui/bitstream/lib/41278/1/Modern-problems-in-science.pdf#page=614>)
11. Abdullaev, Z. M. (2022). THE NAME AS AN INDICATOR OF CULTURAL AND SOCIAL DEVELOPMENT. Oriental Journal of Philology, 2(02), 15-19. <http://supportscience.uz/index.php/ojp/article/download/335/281>

**СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ  
УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ В ОБЛАСТИ  
ЭКОНОМИКИ И КУЛЬТУРЫ**

**Аминова Альмира Ринатовна, магистрант**  
*Tashkentskogo gosudarstvennogo pedagogicheskogo universiteta*

**Аннотация.** В статье рассмотрено и проанализировано развитие политических и экономических отношений между Республикой Узбекистан и Республикой Южная Корея, раскрыты основные направления экономического сотрудничества.

**Ключевые слова:** Республика Узбекистан, Республика Корея, экономика, сотрудничества, соглашения, культура, образование.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA KOREYA RESPUBLIKASINING  
IQTISODIYOT VA MADANIYAT SOHASIDAGI HAMKORLIGINI  
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH**

**Aminova almira Rinatovna**  
Toshkent davlat pedagogika universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekiston Respublikasi va Janubiy Koreya Respublikasi o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishi ko'rib chiqiladi va tahlil qilinadi, iqtisodiy hamkorlikning asosiy yo'nalishlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** O'zbekiston Respublikasi, Koreya Respublikasi, iqtisodiyot, hamkorlik, shartnomalar, madaniyat, ta'lif.

**ESTABLISHMENT AND DEVELOPMENT OF COOPERATION BETWEEN THE  
REPUBLIC OF UZBEKISTAN AND THE REPUBLIC OF KOREA IN THE FIELD  
OF ECONOMY AND CULTURE**

**Aminova Almira Rinatovna**  
Master's student of Tashkent State Pedagogical University

**Annotation.** The article examines and analyzes the development of political and economic relations between the Republic of Uzbekistan and the Republic of South Korea, reveals the main directions of economic cooperation.

**Keywords:** Republic of Uzbekistan, Republic of Korea, economy, cooperation, agreements, culture, education.

31 августа 1991 года Узбекистан провозгласил независимость, и 30 декабря того же года Республика Корея признала суверенность Узбекистана. Меньше месяца спустя наши два государства установили дипломатические отношения, признавая друг друга важными партнёрами. Республика Корея открыла посольство в Узбекистане в декабре 1993 года.[1]

Для развития дальнейших экономических отношений между двумя странами

Президент Узбекистана [Ислам Каримов](#) совершил восемь официальных визитов в Южную Корею, в 1992, 1995, 1999, 2006, 2008, 2010, 2012 и 2015 год.[2]

Также между Республикой Узбекистан и Республикой Корея 11 февраля 1998 года была подписана «Конвенция об избежании двойного налогообложения и предотвращении уклонения от уплаты налогов на доход и на капитал» наши страны накопили огромный опыт взаимовыгодного сотрудничества в политической, торгово-экономической, инвестиционной и культурно-гуманитарной сферах, который служит прочной основой для дальнейшей реализации долгосрочных совместных проектов между Узбекистаном и Республикой Корея во всех этих сферах. В марте 2006 года наши страны подписали Совместную декларацию о стратегическом партнерстве, которая внесла значительный вклад в дальнейшее развитие и укрепление многогранных узбекско-корейских отношений и вывела их на новый качественный уровень.[3]

Республика Корея занимает четвертое место в списке главных внешнеторговых партнеров Узбекистана.[1]

Важную роль в двусторонних отношениях играет Межправительственная комиссия по торгово-экономическому сотрудничеству.

С 2007 года ежегодно проводится Форум “Республика Корея - Центральная Азия”. Его основная цель - укрепление и расширение сотрудничества в области экономики, культуры, образования, туризма, а также обмен опытом в области информационно-телекоммуникационных технологий, строительства и транспорта.

Новую страницу в отношениях между Республикой Узбекистан и Республикой Корея открыл государственный визит Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева в Сеул 22-25 ноября 2017 года. Были подписаны документы и соглашения на сумму около 10 миллиардов долларов, в том числе несколько крупных инвестиционных контрактов с такими компаниями, как Hyundai, Evergreen Holdings, Youngone Corporation, Hwachon Plant-Gemco. Тогда же была достигнута договоренность о технической, консультативной и экспертной поддержке со стороны корейских специалистов Узбекистана в вопросе вступления во Всемирную торговую организацию.[4]

18 апреля 2019 года состоялся государственный визит Президента Республики Корея Мун Чжэ Ина в Узбекистан. В ходе этого визита была подписана Совместная декларация об особом стратегическом партнерстве между Республикой Узбекистан и Республикой Корея, достигнуты важные договоренности и заключены соглашения на сумму более 12 миллиардов долларов. Они охватывают такие отрасли, как энергетика, нефтегазовая, химическая, горная, машиностроительная, электротехническая, текстильная и легкая промышленность, транспорт и логистика, инфраструктура, ИКТ, цифровая медицина. Из них, в частности, заслуживает внимания соглашение о передаче экономической зоны "Ангрен" в управление свободной экономической зоны "Инчхон", для налаживанию производства востребованных лекарственных средств.[2]

28 января 2021 года ввиду пандемии саммит Президентов Узбекистана и Южной Кореи Шавката Мирзиёева и Мун Чжэ Ина прошел в формате видеоконференции. По итогам онлайн саммита были подписаны Меморандум о сотрудничестве в области «цифровизации» в целях содействия «четвертой промышленной революции».

Кроме того, в ходе этого саммита лидеры двух стран договорились начать переговоры по заключению двустороннего соглашения о свободной торговле.

2022 год — это год 30-летия установления дипломатических отношений между нашими двумя странами и одновременно 85-летия проживания корейской диаспоры в Узбекистане. В 1937 году представители корейской диаспоры, оставив родину, прибыли на далёкую неизвестную землю, где их тепло встретил народ Узбекистана. Граждане Республики Корея благодарны за это узбекскому народу. Представители корейской диаспоры успешно обосновались в Узбекистане, вносят вклад в каждую точку социальной сферы, играя роль дружественного крепкого моста в настоящих двусторонних отношениях.

В заключение можно сделать следующие выводы Южная Корея является одним из важнейших партнеров Узбекистана. Две республики за последние двадцать лет построили прочное политическое и экономическое партнерство и разработали нормативно-правовую базу для двустороннего и многостороннего сотрудничества. Тем не менее, важно, чтобы узбекско-корейские двусторонние и центральноазиатско-корейские многосторонние соглашения активно выполнялись и расширялся спектр сотрудничества между странами-участницами. Тесное сотрудничество между Узбекистаном и Южной Кореей имеет жизненно важное значение для экономической и технологической модернизации и взаимосвязанности региона и может способствовать более тесным торговым связям, экономическому развитию и инвестиционным отношениям.

**Список использованной литературы:**

1. Рахимов, Мирзохид; Дон Ки, Сон (2016-10-06). ["Узбекистан и Южная Корея: на пути к особым отношениям"](#). Аналитик Института Центральной Азии и Кавказа.
2. **Обид Хакимов**, директор Центра экономических исследований и реформ (16-12-21)«Узбекистан –Корея : перспективы экономического сотрудничества»
3. ["Республика Узбекистан"](#). Министерство иностранных дел Республики Корея.
4. Ран, Ким (2017-11-23). ["Президент Узбекистана прибыл с государственным визитом"](#). [The Korea Times](#)

**“INDIGOFERA TINCTORIA” O’SIMLIGI ILDIZINING TARKIBIDAGI  
INDIGO HOSILALARINI O’RGANISH**

*Sharofiddin Jumaboyevich Maxamadiyev*

*O’g’loy Abdurahmonova*

*Guliston davlat universiteti*

*sharofximik@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu ishda “Indigofera tinctoria” o’simligi tarkibidan indigo ajratib olinib, olingan indigoning fizik-kimyoviy xususiyatlari va sifat va miqdor tarkibi UB-, IQ- spektroskopiya va YuSSX usullarida tahlil qilingan.

**Kalit so’zlar:** Indigofera, indigo, xromofor guruh, UB-spektroskopiya, IQ-spektroskopiya, yuqori samarali suyuqlik xromotografiysi(YuSSX).

**STUDY OF INDIGO DERIVATIVES IN THE ROOT OF "INDIGOFERA  
TINCTORIA" PLANT**

*Sharofiddin Jumaboyevich Mahammadiyev*

*O`g`iloy Abdurahmanova*

*sharofximik@gmail.com Gulistan State University*

**Abstract:** In this study, indigo was isolated from the indigofera tinctoria plant, and the physicochemical properties, quality and quantity of indigo were analyzed by UV-, IR-spectroscopy and HPLCH methods.

**Keywords:** Indigofera, indigo, chromophore group, UV-spectroscopy, IR-spectroscopy, high-performance liquid chromatography (HPLCH).


**KIRISH**

Hozirgi kunda bo’yoq moddalarga bo’lgan talab keskin ortib bormoqda. Bu esa o’z navbatida tabiiy, qulay va eng muhimi arzon resurslarni izlab topishni taqozo etadi. Tabiiyki, biofaol moddalar ustida tadqiqotlar olib borilishi faqatgina shu sohada yutuqlarni emas, balki, tabiiy birikmalar kimyosida ham bir qancha yangiliklarni taqdim etadi. Tarkbida indoksil tutgan o’simliklarni aniqlash, ularni ajratib olishning samarali usullarini yaratish, indoksillarning kimyoviy tuzilishi va biologik ta’sirini o’rganish hamda ular asosida dorivor moddalar yaratish, tabiiy bo’yoq moddalarni ajratib olish, va ularning yangi ajratib olish usullarini ishlab chiqish bioorganik

kimyoning muhim va dolzarb vazifasidir. Indigofera o’simligidan qadimdan rang olishda, ayollar uchun xina va basma olishda foydalanib kelingan.


### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Indigo kimyoviy tuzulishi haqida turlicha farazlar mavjud bo’lgan. Nihoyat 1907-yilda Bayer indigoning tuzulishini taklif etdi, unga ko’ra indigo sis-trans izomerlar hosil qiladi.




sis- izomer trans- izomer

1840 – yilda Frishte indigoni kaliy gidroksid bilan birlgilikda qizdirib, anilinni ajratib oldi. XIX asrgacha indigoning tuzilishi aniqlaqnmagan. Shu yilning oxiriga kelib Loran va Erdman bir – biridan bexabar holda indigoning oksidlanishidan izatin hosil bo’lishini aniqlashdi.



II  
anilin indigo izatin


Birinchi marta indigo juda past unum bilan Emerlingom va Englerom tomonidan o-nitroatsetofenondan katalizatorlar rux, natriy giroksid va kalsiy oksidlar ishtirokida sintez qilingan:



II  
o-nitroatsetofenon indigo

Sintetik usulda indigo olishning usullaridan bir bu bosqichli reaksiyalar asosida olib boriladigan, anilin va monoxlor sirkaga kislota katalizator temir (II) gidroksid ishtirokida o’zaro ta’sirlashishi natijasida hosil bo’ladigan N-fenilglitsinning temirli birikmasiga kaliy gidroksid qo’shib qizdirilganda hosil bo’lgan kaliyli birikmaga natriy amid, kaliy va natriy ishqorlari aralashmasi ta’sir ettirilganda olingan indoksilning natriyli birikmasi havo kislarodi bilan oksidlananda indigo olinadi[1].


1880-yilda Bayer tomonidan taklif etilgan bo’lib, atseton va o-nitrobenzaldegidni ishqoriy muhitda qizdirilish orqali pastroq unum bilan indigo olingan[2].



Bunda “Indigofera tinctoria” o’simligi ildiz va poyalari tarkibidan indigoning qurur massasi yig’ib olindi [3]. Ushbu ish tarkibida ko’plab biologik faol moddalar saqlagan “Indigofera tinctoria” o’simligi ildizi tarkibini kimyoviy tahlil qilish, indigofera foydali xossalari targ’ib qilish va tabiiy bo’yoq maxsulotlarni ajratib olishni istiqbolli usullarini ishlab chiqish, sintetik usulda indigo sintezini amalga oshirishning optimal sharoitlarini aniqlashdan iborat.

### NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Olingan Indigoning IQ spektri olinib, tahlil qilindi.




*Indigoning IQ spektri*

Adabiyotdagi ma’lumotlarga asosan indigo tarkibidagi aromatik halqada joylashgan to’rtta CH guruhlarning defarmatsion tebranish chastotalari  $d_{CH} = 750-745 \text{ sm}^{-1}$  (o-izomer holatda joylashsa), bizning analizda  $760 \text{ sm}^{-1}$  ga teng. Indigo tarkibidagi

$n_{>C=C<} = 1950\text{-}1600 \text{ sm}^{-1}$  oralig’ida joylashgan bo’lib bu ko’rsatgich, 1548-1638  $\text{sm}^{-1}$  oraliqda joylashgan. Adabiyotlarda keltirilgan ma’lumotlar asosida IQ-spektoskopiyadagi natijalar olingan indigoning tuzulishini tasdiqladi[4]. Aromatik halqadagi  $C_{\text{arom}}=C_{\text{arom}}$  orasidagi valent tebranishlari

$n_{C_{\text{arom}}=C_{\text{arom}}} = 1635\text{-}1460 \text{ sm}^{-1}$  bizning natijalarimiz esa 1539–1470  $\text{sm}^{-1}$  ni ko’rsatmoqda. Indigo tarkibida NH funksional guruhining manbadan olingan qiymati  $n_{\text{NH}} = 3690 \text{ sm}^{-1}$  ga nisbatan yaqinroq  $n_{\text{NH}} = 3538 \text{ sm}^{-1}$  qiymat olingan.

Ba’zi organik moddalar kabi indigo ham UB spektoskopiyasi analizni amalga oshirish mumkin. Bunda organik modda tarkibidagi qo’shbog’ yoki qo’sh bog’li kisorod atomlari orqali analiz amalga oshiriladi.



*Indigoning UB spektri*

Analizning aniqligi erituvchining tabiatи, analiz qilinadigan modda bilan ta’sirlashmasligi hamda konsentratsiyaga bo’gliq bo’ladi. Indigoning asosiy erituvchisi sifatida: atsetonitril, muz sirka kislotasi, xlorid kislotasi va distillangan suv aralashmasi olinadi. Bunda indigoning xromofor guruhlari yuqoridagi UB spektrlarini hosil qildi.

Yuqori samarali suyuqli xromatografiyasi (YuSSX)da ham indigoning tuzilishi va miqdori haqida ma’lumot olishimiz mumkin. (YuSSX)da asosiy masala analiz qilinadigan moddaning erituvchisini aniqlashdan iborat. UB (DAD) detektori yoki

shunga o’xhash o’zgaruvchan to’lqin uzunligi HPLC bo’lgan Agilent suyuq xromatografiidan foydalanilgan. Ultratovushli Lichroprer RP 19,5 N. 4x 230 mm yoki ustunda 3.0x 140 mm, 3.49 mm, ZORBAX SBCI8 o’xhash. 0,0350 g miqdoridagi indigo bo’yog’i 25 ml atsetonitrilda (HPLC uchun) (Img/ml) eritiladi va Iml dan 15 mkgacha AOK qilinadi. Xromatografiyadan oldin olingan eritma (PCO) 4 minut davomida 10 ming aylanada santrifuga qilinadi yoki 0,21 millipore filtr orqali filtrlanadi. Xromatografiya izokratik usulda amalga oshiriladi. Asetonitril: 0,1M xlорид kislotasi: muzli sirkakislotasi: suv (60: 35: 1: 25).

Asosiy cho’qqining chiqish vaqtiga 0,9-2,4 minutni tashkil qiladi. (ishlatilgan ustunga qarab). Indigo o’simliklarining turli xil navlaridan ajratilgan tabiiy indigoning HPLC spektri Oqim tezligi 1 ml/daqqa Detektirning aniqlash 227 nm to’lqin uzunligida oshiriladi. Indigo bo’yog’ining ulushi odatda an’anaviy indigo namunasining eng yuqori joylariga nisbatan belgilanadi. Bu kamida 55-60%[5].

## XULOSA

Olingan indigoning sifat va miqdor tarkibi UB-spektroskopiya va YuSSX usullarida tekshirildi. Indigofera L. o’simligining barg qismi ekstraktsiya qilindi va indigo ajratib olindi. Olingan indigo fizik - kimyoviy usullarda tahlilar qilindi. IQ-spektroskopiyadagi natijalar olingan indigoning tuzulishini tasdiqladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Алейникова Т.Л.и др. Руководство к практическим занятиям по биоорганической химии / Под ред. Е.С. Северина. М.: Медицина, 2000.
2. Saraswathi, M. N.;Karthikeyan,M.; Rajasekar,S.; Gopal, V.Indigofera tinctoria Linn—A Phytopharmacological Review. International Journal of Research in Pharmaceutical and Biomedical Sciences2012,3(1), 164-169.
3. Т.К.Юнусов, У.Н.Зайнутдинов, К.У.Утениязов, Ш.И.Салихов “Кимёда физикавий усуллар” Тошкент «Университет» 2007 йил
4. А.Эргашев, Р.Эшchanов, Г.Якубов, А.Рахимов, Н.Турдиева, Н.Тураева, Х.Уринова, А.Матчонов “Биотехнология Indigofera tinctoria L. на засоленных землях Приаралья и производство натурального индиго в промышленных целях”
5. A.Ergashev, R.Eshchanov, G.Yakubov, A.Rakhimov, Turdieva, N.Turaeva, H.Urinova, A.Matchanov. A biology of Indigofera tinctoria L. on the saline land of Aral Sea Basin and producing of the natural plant Indigo pigment for the Industry. X-th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, Tashkent - Bukhara. Abstracts, P. 24, 21-23 November, 2013. Republic of Uzbekistan.

### **References**

1. Алейникова Т.Л.и др. Руководство к практическим занятиям по биоорганической химии / Под ред. Е.С. Северина. М.: Медицина, 2000.
2. Saraswathi, M. N.;Karthikeyan,M.; Rajasekar,S.; Gopal, V.Indigofera tinctoria Linn—A Phytopharmacological Review. International Journal of Research in Pharmaceutical and Biomedical Sciences2012,3(1), 164-169.
3. Т.К.Юнусов, У.Н.Зайнутдинов, К.У.Утениязов, Ш.И.Салихов “Кимёда физикавий усуллар” Тошкент «Университет» 2007 йил
4. А.Эргашев, Р.Эшchanов, Г.Якубов, А.Рахимов, Н.Турдиева, Н.Тураева, Х.Уринова, А.Матчонов “Биотехнология Indigofera tinctoria L. на засоленных землях Приаралья и производство натурального индиго в промышленных целях”
5. A.Ergashev, R.Eshchanov, G.Yakubov, A.Rakhimov, Turdieva, N.Turaeva, H.Urinova, A.Matchanov. A biology of Indigofera tinctoria L. on the saline land of Aral Sea Basin and producing of the natural plant Indigo pigment for the Industry. X-th International Symposium on the Chemistry of Natural Compounds, Tashkent - Bukhara. Abstracts, P. 24, 21-23 November, 2013. Republic of Uzbekistan.

**BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK  
O‘YINLARNING AHAMIYATI**

*Davirova Xulkarxon Berdibekovna  
GulDu Ta’lim va Tarbiya nazariyasi va metodikasi  
(muktabgacha ta’lim) magistranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada psixologik o‘yinlarning bola shaxsini shakllanishiga ta’siri haqida ma’lumot berilgan.

**Kalit so’zlar:** xarakter, shaxs, o‘yin, bola.

Inson harakteri va shaxsi bolalikning ilk yillardidanoq shakllanib boradi. Bolalarning kelajakdan umidvor bo‘lgan jamiyat bu jarayonga faol aralashishi va bulajak fuqarolar shaxsini kamolga yetkazish borasida maktablarda tarbiyaga psixologik nuqtai nazaridan yondashishi lozim. Ayniqsa, sinfdagi o‘quvchilar orasida o‘zaro munosabatlar ularning o‘qishga, bir-biriga bo‘lgan munosabatlariga hamda o‘quvchilar harakterining shakllanishiga, shuningdek sinfdagi ruhiy muhitga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababali o‘quvchi oldida, eng avvalo, quyidagi vazifalar kundalang turadi:

- sinf o‘quvchilarining o‘zaro munosabatini yaxshilash;
- o‘quvchilar jamoasini jipslashtirish;
- o‘quvchilarning o‘z qobilyatlariga ishonchini mustaxkamlash;
- o‘quvchilar harakteridagi to‘nglik, tajavuzkorlikka barham bera olish.

Bu vazifalarni amalga oshirish uchun psixologik o‘yinlar va mashqlarni jamladan maxsus psixologik treninglar bilan o‘quvchilarga ta’sir ko‘rsatish zarur. Bunday mashqlar tajribali o‘qituvchi yoki bevosita psixolog tomonidan amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Psixologik trening o‘tkazilgan ushbu sinfda psixologik muhit yaxshilanadi sinfda «yakkalanib» qolgan, ya’ni bolalarga qo‘shilmaydigan ko‘pgina o‘quvchilar bo‘lgan maxsus mashgulotlar o‘tkazilgach, bunday bolalar boshqalar bilan yaxshi muomila qiladigan bo‘lib qolishdi, ulardagi to‘nglik va urishqoqlik odatlari yo‘qola borgan, bu esa o‘z-o‘zidan sinfdagi psixologik muhitning yaxshilanishiga olib kelgan. Bir so‘z bilan aytganda o‘qituvchilar ta’lim bilan birga tarbiyani ham qo‘sib olib borishlari, bu ishda psixologik imkoniyatdan foydalanishlari kelajagimiz uchun bilimli, odobli, komil insonlar tarbiyalashda muhim omildir. Quyida yaxshi natija bergen psixologik o‘yin va mashgulotlarni o‘z ichiga olgan mashgulotlarni tavsiya etamiz.

Psixologik trening o‘tkazishning umumiyligini qoidalari.

1. Qatnashchilar soni 10-15 tadan oshmasligi shart.

2. Psixologning o‘zi ham barcha topshiriqlarni o‘quvchilar bilan birgalikda bajarishi shart.

3. Qatnashchilarning har biri, albatta hamma mashgulotlarda qatnashishi lozim.

4. Treningni trener maharot bilan boshqarish kerak. Shaxsiyatiga tegadigan, uyaltiradigan vaziyatlardan qochishi, xar bir o‘quvchining fikrini maqullab, ragbatlantirib turishi kerak.

5. Trener – qo‘yilgan muammolarni bolalarning o‘zlari hal qilishlari uchun qulay sharoit yarata bilish kerak.

### **1-mashgulot Do‘stlik nima?**

Bugun sizlar bilan do‘stlik xaqida gaplashamiz. Mashgulotda beriladigan savollarga aniq javob berishingizni so‘rayman. O‘ylaymanki, hammangiz yaxshi bolalarsiz, lekin ba’zan orangizda hech kim bilan do‘stlashmaydigan o‘quvchilar ham uchrab turadi. Shuning uchun bugun sizlar bilan do‘stlik haqida suhbatlashamiz va haqiqiy do‘stlik qanday bo‘lishi kerak degan?-savolga javob topishga harakat qilamiz.

Har birimiz qanday yaxshi va qanday yomon ishlar qilganimiz xaqida gapirib beramiz. So’ngra xar bir o‘quvchining javobi muhokama qilinadi va yakun yasaladi. Mashg’ulot oxirida do‘stlik xaqidagi tushunchalarni umumlashtiriladi.

### **2-mashgulot. Men kimman?**

10 minut davomida o‘quvchilar «Men kimman?» degan savolga javob tariqasida o‘z fazilatlarini daftarga yozadilar, masalan ular men-o‘quvchiman, men-saxiyman, men-dunyoning bir bo‘lagiman, men-ota-onamni yaxshi ko‘raman va hakozo. Har bir o‘quvchi navbatma- navbat bilan yozganlarini o‘qib beradi, boshqalar uni diqqat bilan eshitishlari va gapiroyotgan bolaning so‘zini bo‘lmasliklari zarur. Keyin o‘yin ishtirokchilari o‘quvchilarning yozganlarini muhokama qiladilar.

**Mashgulot oxirida** trener shunday so‘zlar bilan yakun yasaydi. Hozir aytadigan gaplarimni men bilan baravar qaytarasizlar. «Men aqli, hushmuomila, kuchli bo‘lishni hohlayman!», «Men yaxshi o‘qiyan!», «Men hammaga yaxshi munosabatda bo‘laman!», «Men o‘z do‘stlarimni, o‘qituvchilarimni, ota-onamni hurmat qilaman», «Ota – onamga, kattalarga yordam beraman, kichiklarga g‘amxo‘rlik qilaman».

Maktabga qadam qo‘yish bilan bola hayotida muhim psixologik o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. U yangi rejimning ayrim muhim odatlarini o‘zlashtiradi, o‘qituvchi va o‘rtoqlari bilan ishonchli munosabatlar o‘rnatadi. O‘quv materiali mazmuniga nisbatan paydo bo‘lgan qiziqish asosida unda o‘qishga bo‘lgan ijobiy munosabat mustahkamlanadi. Bunda yuqorida sanab o‘tilgan qiyinchiliklar bolada maktabga va bilim olishga nisbatan salbiy munosabatning shakllanishiga sabab bo‘lishi mumkin. Fan tilida kichik maktab yoshi inqirozi nomi bilan ma’lum bu kabi holatlar kelgusida yanada kattaroq va kengroq muammolarni yuzaga keltiradi. Fanlarni o‘zlashtira

olmaslik, muntazam dars qoldirish, dars jarayonida o‘qituvchining dars o‘tishiga va sinfdoshlariga halal berish- bu muammolarning boshlanishi, xolos.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning maktab sharoitiga moslashuvi hamda o‘quv materiallarini oson o‘zlashtirishlarida korreksion-psixologik treninglarning ahamiyati katta. Muntazam va izchillik bilan olib borilgan korreksion-psixologik treninglar yuqorida aytib o‘tilgan kichik maktab yoshidagi bola duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etibgina qolmay, balki normal darajada moslashgan bolalarni ham aqliy va hissiy jihatdan rivojlanishlariga ko‘maklashadi. Bunda trener bola duch kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchililarning har uch turi yuzasidan bir nechta korreksion o‘yinlarni tanlab olib, bitta yaxlit trening sifatida tashkil etadi hamda ana shu bitta mashg‘ulot orqali bir nechta muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Masalan:

Kirish qismi.

Treningning borishi.

-Treningning qoidalari, maqsad va vazifalari bilan tanishtirish:

Qoidalari:

-faollik

-ko‘ngilli ishtirok

-belgilangan vaqtga rioya qilish:

-boshqalar fikrini hurmat qilish:

-qo‘l ko‘tarish qoidasi.

1-mashq Tanishuv.

### **“Mening yoqtirgan narsam”mashqi.**

Maqsad :Guruh a’zolari o‘rtasida ijobiy psixalogik muhitni yaratish, diqqat va xotirani rivojlantirish.

Mashqni borishi: Ishtirokchilar doira bo‘lib o‘tiradilar.

Boshlovchi har bir ishtirokchiga koptok otadi.

Koptokni ilib olgan o‘quvchi o‘z ismi va yoqtirgan narsasini nomini aytib bo‘lishgach, o‘quvchilarining bir-birlaridan boshqalarining yoqtirgan narsalari yoki biron bir sanab o‘tilgan narsani kim yoqtirilishi so‘raladi.

Muhokama.

Xulosa.

### **2-mashq .**

“Suv, havo, yer”mashqi.

Maqsad: Guruh a’zolari o‘rtasida eshitish va harakat sezgilarini, diqqatini rivojlantirish.

Mashqni borishi: Ishtirokchilar doira bo‘lib o‘tiradilar.

Boshlovchi o‘yin sharoiti bilan tanishtiradi:

agar u “yer” desa, hamma qo‘lini pastga tushirishi kerak,”suv” desa, qo‘llarini o‘nga-chapga harkatlantiradilar. “Havo” deganda, qo‘llarini osmonga ko‘taradilar. O‘yin bir necha marotaba takrorlanadi.

Muhokama.

Xulosa.

Refleksiya .

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan mashqlarning har ikkalasi ham bir vaqtning ham guruhda ijobiy muhitning yuzaga kelishiga ham bilish jarayonlarining rivojlanishiga ham bolaning hissiy jarayonlariga ijobiy ta’sir o‘tkazish xususiyatiga ega. Albatta bir –ikki marta o‘tkazilib, so‘ng to‘xtab qolgan mashg‘ulotlar natijaviylikka ega emas. Bu mashg‘ulotlar muntazam ravishda va izchillikka rioya etilgan holda o‘tkazilsagina, natijalar ko‘zga tashlanadi. Sodda til bilan aytganda, ma’lum bir dastur asosida tuzilgan, yil davomida haftada bir yoki ikki marta tashkil etiladigan mashg‘ulotlarga ko‘zlangan natijani berishi mumkin. Bunda maktab amaliyotchi psixologlarining o‘rni katta. Chunki bunday mashg‘ulotlarni faqat ular tashkil etish imkoniyatiga ega. Buning uchun maktab amaliyotchi psixologida boshlang‘ich sinflarning har biri uchun taxminan quyidagi mazmunda ish reja mavjud bo‘lishi lozim:

### **1-sinf o‘quvchilari bilan yil davomida olib boriladigan pedagogik – psixologik ishlar**

	O‘tkaziladigan tadbir nomi	Tadbir o‘tkazi ladigan vaqt	Tanlangan metodika, tadbir va treninglar manbasi	Tadbir o‘tkazilishidan maqsad	Tadbir o‘tkazilgan vaqt	Kutiladigan natijalar
	1-sinf o‘quvchilarining maktab ta’limiga psixologik tayyorgarligini o‘rganish uchun Kern Yerasikning “Test suhbati” metodikasini o‘tkazish.	se ntyabr	K. Yerasik ning “Test suhbati” metodikasi	Psixodi agnos tika		O‘quvching maktab ta’limiga tayyorgarligi haqida ma’lumot to‘planadi
	6-6,5 yoshli o‘quvchilarning rivojlanishini aniqlash: A. Vengerni “Grafik diktant”	se ntyabr	A. Vengerning “Grafik diktant” metodikasi	Psixodi agnos tika		

	metodikasini o‘tkazish.					
	1-sinf o‘quvchisini matabga moslashtirishga qaratilgan trening mashg‘ulotini o‘tkazish: “Baliq, qush, eshik...”	ok tyabr	72 soatga mo‘ljallangan Psixologik salomatlik dasturi.	Psixoko rrek siya		
	O‘quv faoliyati kommunikativligi darajasini aniqlash: “Qo‘lqopchalar” metodikasi (hamkorlikni tashkil etish jarayonida faoliyatni shakllantirish)	ok tyabr	Maktab psixologi rasmiy telegram kanali	Psixoko rrek siya		

Keltirilgan taxminiy ish rejada psixolog 2 haftada bir marta mashg‘ulot o‘tkazilishi nazarda tutilgan. Bunda mashg‘ulotlarni boshlashdan oldin muammolarni dianostika qilish uchun hamda bir nechta mashg‘ulotlardan keyin natijaviylikni ko‘rish uchun psixodiagnostik metodikalarni olish ham ko‘zda tutilgan. Albatta, bu mashg‘ulotlar 1-sinf o‘quvchilari uchun haftada bir martaga oshirilsa, yanada yaxshi bo‘ladi. Biroq maktabda psixolog o‘z mashg‘ulotlarini tashkil qilish uchun alohida soat ajratilmaganligi sababli bu imkonsiz. Chunki 1-sinf o‘qituvchilari o‘z dars soatlarini har hafta bera olmaydilar. Bu kabi mashg‘ulotlarni 2-3-4-sinf o‘quvchilari uchun ham oyda 2 marta tashkil etilsa, o‘ylaymanki, biz yuqori sinflarda duch kelishimiz mumkin bo‘lgan ko‘pgina muammolarning oldi olingan bo‘lar edi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gorbushina O.P. Psixologicheskiy trening. Piter, 2007.
2. Praktikum po sotsialno-psixologicheskому тренингу. Sankt-Peterburg, 1994.
3. Sobirovna, U. M., & Irodaxon, T. (2022). TEKNOLOGIYA FANI MASHG‘ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI. PEDAGOGS jurnali, 21(1), 41-44.
4. Sobirovna, U. M. (2022). Improving the educational system for children with disabilities. The Peerian Journal, 4, 20-22.

5. Yusufkhodjaeva, F., Usmanova, M., Sattorova, D., & Khamdamova, V. THE USE OF ICT IN SCHOOL EDUCATION. computer, 1, 104.
6. Maryam, I., & Mukhlisa, U. The Use of Interactive Methods in the Orientation of Students to Entrepreneurial Activity. JournalNX, 7(03), 223-226.
7. Tojiyevich, R. X., Juraevich, X. A., & Toshpo‘latovich, Y. O. (2022). Theoretical Justification Of The Dimensions Of The Working Part Of The Combined Aggregate Cutting Grinder. Journal of Positive School Psychology, 6(9), 3663-3667.
10. Йулдошев, Уткир, and Укташон Жуманкузиев. "Определение ведущих педагогических закономерностей и основополагающих принципов формирования информационной культуры детей школьного возраста." Общество и инновации 2.5/S (2021): 68-76.
11. O‘Ktam, O., Li Jumanqo‘Ziyev, and Islombek To‘Lqinjon O‘G‘Li. "MAKTAB O ‘QUVCHILARINING AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING ASOSIY QONUNLARI VA TAMOYILLARI." Academic research in educational sciences 2.CSPI conference 1 (2021): 1073-1077.
12. Йулдошев, Уткир, and Укташон Жуманкузиев. "Определение ведущих педагогических закономерностей и основополагающих принципов формирования информационной культуры детей школьного возраста." Общество и инновации 2.5/S (2021): 68-76.

## **O‘SMIRLIK DAVRIDA OG‘ISHGAN XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK O‘RGANILINGALIGI**

*Ravshanbekova Dilfuza Sherzod qizi  
O‘zXIA “psixologiya va pedagogika” kafedrasini  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya (Abstract):** Ushbu maqolada o‘smirlarning og‘ishgan xulqi va uning shakllanishi haqida amaliy ma’lumot hamda tahlillar bayon qilingan. Shuning bilan birga, maqolada o‘smirlilik davrida deviant xulq-atvorning shakllanishi va unga ta’sir etuvchi omillarning o‘ziga xos jihatlari va ularning amaliy-diagnostik qarashlar yoritilinib berilgan.

**Kalit so‘z (Keywords):** Deviant, giperopeka, gipoopeka, xarakter aksentuatsiyasi, tajovuz holati, gipertim, xavotirlanuvchi, distim, rasmiy, qo‘zg‘aluvchan, emotiv, rigid, namoyishkorlik, sikloid, ekzaltr.

### **KIRISH**

O‘smirlar axloqida u yoki bu deviatsiyaga moyillikni aniqlash va uni psixodiagnostika qilishdan avval hozirgi kunda deviant xulqning dolzarbligi xususida maktab psixologlari hamda amaliy-konsultant psixologlarda bir qancha psixosotsiologik so‘rovnomalar o‘tkazilindi. Bunda jami 35 nafar oliy toifali psixologlar qamrab olindi. Shulardan 10 nafari oliy ta’lim muassasalari psixologlari, qolgan 25 nafari umumta’lim maktab psixologlaridan iborat bo‘ldi.

O‘smirlarda deviantlikka moyillik va ularning kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi faktorlar bo‘yicha olingen natijalariga ko‘ra, oliy ta’lim psixologlari javoblarida ijtimoiy, psixologik va biologik omillar, maktab psixologlarida esa oila muhiti yetakchilik qiladi.

### **METODLAR BO’LIMI**

Olingen ma’lumotlar natijalaridagi faktorlar haqida qisqacha to‘xtalib o‘tsak. Deviantlik kelib chiqishiga sabab bo‘luvchi – ijtimoiy omillar (ekonomik statuslar, OAVlar, mahalliy spetsifikasi, ta’limning darajasi uning sifati va insonning atrofdigilari), psixologik omillar (ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning qandayligi, bolalarning kichiklidagi travmalari, giperopeka (bolalarga haddan tashqari g‘amxo‘rlik) yoki gipoopeka (g‘amxo‘rlikning yetishmasligi), bolaning psixologik strukturasi va boshqalar), biologik omillar (irsiy sabablar, bosh miyaning tuzilishi, disfunksiyalar va boshqalar).

Shu bilan birga, ko‘rsatkichlarga ko‘ra oila muhiti ham yuqori. Sharq mutafakkirlarining fikrlaricha bolaning xulqidagi buzilishlar, og‘ishlar asosan oila bilan bog‘lanadi.

Ma'lumki psixolog inson ichki qiziqishlarini, xattoki uning “sirlarini” ayta oladigan, shaxslar bilan do'stona munosabatni o'rnata olsa, xuddi katta shaxsdagidek suhabatga kirisha olsa bunday insonlar bilan muammosiz ham chiqib ketishi mumkin. O'smirlarning 100% ham mana shunday qiyinchiliklardan o'ta oladi deb ayta olmaymiz. Og'ishgan xulqdagi o'smirlarda bunday axloqning shakllanishi asosan oilaga, homiladorlik davriga borib taqaladi. Ota-onas farzand taqdiridan qayg'ursa, aynan oila muhitida hotirjamlikni saqlay olishi kerak deb bilamiz.

Bugungi kunda yoshlar orasida aynan qanday turdag'i deviant og'ishlar ko'plab uchrab turgani to'g'risidagi savol bo'yicha olingen natijalarga ko'ra hozirda yoshlar orasida yangi turdag'i og'ishlardan jinsiy buzilishlar hamda gomoseksualizm alomatlari yetarli darajada ko'zga tashlanganini guvohi bo'ldik. Psixologlar tajribalari mobaynida kuzatganlari bo'yicha hozirda jinsiy buzilishlar 20-50% ni, gomoseksualizm esa 10-30%ni tashkil etmoqda.

Shu bilan birga, olingen natijalarga ko'ra og'ishgan xulqdagi shaxslarning asosan krizis paytida xulq-atvorning buzilishi, xarakter aksentuatsiyasi, ota-onalar bilan munosabatning buzilishi ko'rinishida, addiktiv xulq-atvorga moyillik kabi ko'rinishlariga ko'p duch kelinmoqda.

### **METODLAR BO'LIMI: MATERIALLAR VA USULLAR**

O'tkazilingan psixo-sotsiologik so'rovnoma orqali deviant xulqdagi o'smirlar bilan qanday psixologik, psixoprofilaktik ishlar olib borish to'g'risida ham bir qancha ma'lumotlar to'plandi. Xususan, og'ishgan xulqni tadqiq qilishda klassik metodikalardan foydalanish eng samari usullardandir. Shular jumlasidan, xarakter aksentuatsiyasini aniqlaydigan, xulqi og'ishganlikni aniqlaydigan savolnomalar, proyektiv metodikalar va art terapiyalar yaxshi natija beradi. Bundan tashqari, qandaydir kriteriyalarni o'zida jamlagan anketa so'rovnomalari ham og'ishganlikka moyillikni aniqlashda qo'l keladi. Anketa savollari, so'rovnomalari psixologik portretlar o'smirning nazorat paytidan uzoqroq bo'lgan paytda, bolada kayfiyat chog' muhitni yaratib olgandan so'nggina diagnostika qismini o'tkazish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotimiz davomida quyidagi jihatlarga ham oydinlik kiritilindi:

- og'ishgan xulqdagi o'smirlar bilan olib boriladigan psixologik va psixoprofilaktik ishlar jarayonida ularning fikrlarini inobatga olish;
- ularni borligini his qilish, kerakliligini bilishi tuyg'ularini shakllantirish uchun turli topshiriqlar berib, ularni rag'batlantirish;
- shuningdek, ularda "Men qila olaman", "Meni qo'limdan keladi" kabi fikrlarni shakllantirish maqsadga muvofiq;
- bunday paytda kattalarning yordami juda muhimligi, o'smirming yonida bo'lishi, uni yonini oladigan insonlar mavjudligini his qilishi;

- psixolog – ota-on – o‘qituvchi tomonidan hamkorlikda “Biz muhiti”ni tashkil etish (“Biz muhiti” deganda har bir bolaning qiziqishlari, imkoniyatlari, muammolari, jinsini, yosh xususiyatlarini inobatga olishi va hamdard bo‘la olishidir);
- ijtimoiy reklama (xabardorlik), turli xil faoliyat (mehnat, ta’lim, to‘garaklar)ga jalb qilinishi;
- bolalarda valantyorlik ishlarini, odamlarga beg‘araz yordam tashkil qilish o‘smirlarni ma’naviy o‘stiradi;
- o‘yinli hamda mehnat faoliyatlaridan foydalanish samaralidir. Chunki og‘ishgan xulq ichki nizolar, kimdandir xavfsirash, qo‘rqish, yoqtirmaslik kabilar oqibatida shakllanadi. Bunday paytlarda ularni mehnat faoliyatiga jalb qilish ham qo‘l keladigan usuldir;
- og‘ishgan xulqdagi bolani guruhda lider qilib (ya’ni norasmiy lider sifatida) tayinlash. Bizga ma’lum juda ko‘plari ta’lim jarayonida, ayniqsa, o‘quv protsessida o‘qituvchiga halaqit qiluvchi, asabiylashtiruvchi, umuman vaqt ni bekorga sarflashga intiluvchi, maqsadsiz faoliyat olib boruvchi bolalardir. Bunday o‘quvchilarni o‘qituvchilar o‘ziga hamkor, do‘sit qilib olishi va undan yordam olish uchun turli vazifalar bersa, bola o‘zini ustida ishlashni hamda eng avvalo o‘z xulqini o‘zgartirishi mumkin;
- bolalar bilan ishlashdagi eng muhim jihat uning xulq-atvoridagi maqsadlarni aniqlashdir, hamda ushbu maqsadga ko‘ra qo‘llaniluvchi eng samarali metodika uni norasmiy lider qilib, mas’uliyatli vazifa yuklashdir.

Bundan tashqari, o‘smirlar orasida deviant xulq-atvorining paydo bo‘lishi va ularni oldini olish uchun psixodiagnostik ishlar ham amalga oshirildi. O‘smirlar deviant xulq-atvorining ko‘plab determinantlari orasida eng muhimlaridan biri shaxsning patoxarakterologik rivojlanishi va xarakter aksentuatsiyasidir.

A.Lichko va L.Rubinalarning aniqlashicha, psixonevrologik dispanserlarda ro‘yxatga olingan 78 foiz o‘smirlar voyaga yetmagan bolalar ishlari bo‘yicha inspeksiyyada ham ro‘yxatda turadi. Shu bois xarakter aktsentuatsiyasini erta tashxis qilish ijtimoiy-psixologik ishida juda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xarakter aktsentuatsiyasi - bu ba’zi xarakter xususiyatlarining o‘ta kuchayib ketishi oqibatda, ayrim turdagи psixogen omillar ta’siriga berilishning ortishi va aksincha, boshqa ba’zi omillar ta’sirida beriluvchanlikning susayishidir.

O‘smirlilik davrida xarakter aktsentuatsiyasi xususiyatlari ayniqsa kuchayib, tashqi tomondan psixopatiyani eslatib yuboradi. Bordi-yu, o‘smirni qurshab turgan ijtimoiy voqelikda aktsentuatsiya tufayli paydo bo‘lgan, A.E.Lichko so‘zlari bilan aytganda, «qarshiligi eng ojiz bo‘lgan joyga yo‘naltirilgan» psixogen omillar bo‘lsa, ijtimoiy moslashuvchanlikning buzilishi va shaxsning tegishli psixopatik tipga muvofiq shakllanishi kuzatiladi.

O‘smirning xarakter aktsentuatsiyasi tipini aniqlash katta amaliy ahamiyatga ega. Aniqlangan tip xarakterdagi zaif nuqtalarni ko‘rsatadi, bu esa moslashuvchanlikning buzilishiga qanday omillar sababchi bo‘lishi mumkinligini oldindin ko‘ra bilish imkoniyatini beradi. Bularning barchasi psixoprofilaktika ishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

### **MAQOLA ASOSIY QISMI: NATIJALAR BO’LIMI**

Tadqiqot ishimiz doirasida biz o‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasining namoyon bo‘lishini o‘rgandik. Tadqiqotimiz davomida biz xarakter aksentuatsiyasi haqida kerakli ma’lumotlarni to‘plash va aynan o‘smirlilik davrida uning namoyon bo‘lishining psixologik jihatlarini tadqiq etdik. Quyida olingan natijalarning empirik tahlili keltirilgan. Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida bizni qiziqtirayotgan masalada kerakli natijalarni olish uchun tadqiqotimiz ob‘yekti sifatida 100 nafar 12-16 yoshdagi sinaluvchilar guruhi tanlab olingan bo‘lib, ularning 50 % qizlar, 50 % yigitlardir.

Biz o‘smirlardagi xarakter aksentuatsiyasi shakllari hamda dinamikasini o‘rganish maqsadida K.Leongardning “SHMISHEK” test-savolnomasidan foydalandik.

O‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasining ko‘rsatkichlari bo‘yicha qo‘zg‘aluvchan, rigid, gipertim va emotiv shkalalari ustuvorligi kuzatilgan. O‘g‘il bolalarga nisbatan qiz bolalarning ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymati yuqoriroq ekanligi aniqlandi, ya’ni gipertim 14,71 ni, xavotirlanuvchi 15,88 ni, distim 12,35 ni, rasmiy 13,53 ni, qo‘zg‘aluvchan 12,75 ni, emotiv 17,65 ni, rigid 14,82 ni, namoyishkorlik 11,73 ni, sikloid 13,82 ni, ekzaltr 13,29 ni tashkil etganligi aniqlandi. Shu bilan birga, qiz bolalarda olingan ko‘rsatkichlar bo‘yicha emotiv shkalasi, o‘g‘il bolalarda esa gipertim hamda emotiv shkalalari yuqori ko‘rsatkichda ekanligi namoyon bo‘ldi.

O‘smirlarda xarakter aksentuatsiyasi bo‘yicha olingan natijalarning jins tafovuti bo‘yicha tahlili (Mann-Uitni mezonasi asosida) amalga oshirilganda natijalarni statistik mezon asosida o‘rganganimizga ko‘ra, o‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar o‘rtasidagi natijalarda farqlar aniqlanmadidi. Xarakter aksentuatsiyasi metodikasi bo‘yicha olingan ko‘rsatkichlarning asimptomatik qiymati 1 dan past bo‘lgani uchun jins orasidagi tafovutlar sezilarli emas deb baholasak bo‘ladi.

Tadqiqot ishida o‘smirlarda deviant xulq-atvorning xususiyatlari namoyon bo‘lishini atroflicha va to‘liq o‘rganish maqsadida “Tajovuz holati tashxisi” (Bass-Darki metodikasi)dan foydalanildi. Bass-Darki metodikasi sinaluvchi motivatsion sohasining xususiyatlari va bu insonga xos tajovuzkor xulq-atvor shakllarini aniqlash imkoniyatini beradi.

O‘smirlarda tajovuz holati ko‘rsatkichlari (o‘rtacha qiymat) bo‘yicha shubhalanuvchanlik, xafagarchilik va aybdorlilik hissi shkalalari yuqorililigi kuzatilgan. O‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar ko‘rsatkichlarining o‘rtacha qiymatida

deyarli farq yo‘q. Nisbatan qiz bolalarda verbal tajovuz 54,16 ni, bilvosita tajovuz 50,98 ni, negativism 53,73 ni, tajanglik 48,18 ni, shubhalanuvchanlik 61,90 ni va aybdorlik hissi 68,37 ko‘rsatkichlari bilan biroz yuqori ekanligi aniqlandi. Shu bilan birga, qiz bolalarda olingen ko‘rsatkichlar bo‘yicha aybdorlik hissi, o‘g‘il bolalarda esa xafagarchilik shkalasi yuqori ko‘rsatkichda ekanligi namoyon bo‘ldi.

“Tajovuz holati” metodikasining jins tafovuti natijalar tahlili amalga oshirilganda natijalarni statistik mezon asosida o‘rganganimizga ko‘ra, o‘g‘il bolalar hamda qiz bolalar o‘rtasidagi natijalarda farqlar aniqlanmadи. Tajovuzkorlik holati metodikasi bo‘yicha olingen ko‘rsatkichlarning asimptomatik qiymati 1 dan past bo‘lgani uchun jins orasidagi tafovutlar sezilarli emas deb baholasak bo‘ladi.

### **MAQOLA ASOSIY QISMI: MUNOZARA BO’LIMI**

Ilmiy maqolamizga yakun sifatida quyidagi xulosalarni keltirib o‘tishimiz mumkin:

- O‘smirlilik davrida deviant xulqqa moyillik, ulardagi xarakter aksentuatsiyasi hamda tajovuzkorlik holatlari bilan bog‘liq;
- O‘smir xulqidagi deviantlik bilan uning xarakteridagi turli tiplar o‘rtasida aloqadorlik mavjud;
- O‘smirlilik davrida xarakter aktsentuatsiyasi xususiyatlari ayniqsa kuchayib, tashqi tomonidan psixopatiyani eslatib yuboradi;
- O‘smirlar deviant xulq-atvorining ko‘plab determinantlari orasida eng muhimlaridan biri shaxsning patoxarakterologik rivojlanishi va xarakter aksentuatsiyasidir;
- Deviantlik kelib chiqishiga sab bo‘luvchi – ijtimoiy omillar (ekonomik statuslar, OAVlar, mahalliy spetsifikasi, ta’limning darajasi uning sifati va insonning atrofdigilari), psixologik omillar (ota-onalar va bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning qandayligi, bolalarning kichikligidagi travmalari, giperapioka yoki gippoapiyoka, bolaning psixologik strukturasi va boshqalar), biologik omillar (irsiy sabablar, bosh miyaning tuzilishi, disfunksiyalar va boshqalar);
- Hozirda yoshlar orasida yangi turdagи og‘ishlardan jinsiy buzilishlar hamda gomoseksualizm alomatlari yetarli darajada ko‘zga tashlanganini guvohi bo‘ldik. Psixologlar tajribalari mobaynida kuzatganlari bo‘yicha hozirda jinsiy buzilishlar 20-50% ni, gomoseksualizm esa 10-30% ni tashkil etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. N.G‘.Komilova. “Xulqi og‘ishgan bolalar psixologiyasi”. O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.
2. Личко А.Е. Психопатии и акцентуации характера у подростков. – Л., 1983
3. <https://www.psychologos.ru/articles/view/giperopeka>
4. <https://psychologist.tips/154-diagnostika-deviantnogo-povedeniya-u-detej-i-vzroslyh.html>

**ZAMONAVIY PSIXOLOGIK KONSULTATSIYANING PSIXOLOGIK  
AMALIYOTDA QO’LLANILISHI XUSUSIYATLARINI  
EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH**

*Ubaydullayeva Munira Yusuf qizi  
O’zXIA “psixologiya va pedagogika” kafedrasи  
2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya (Abstract):** Maqolada zamonaviy psixologik konsultatsiyaning psixologik amaliyotda qo’llanilishi haqida olib borilgan tadqiqotlarning muhokamasi hamda yuritilgan savollar bo’yicha olingan javoblarning diagrammalari keltirilgan.

**Kalit so’zlar (Keywords):** Metodika, konsultatsiya, maslahat, adaptiv buzilish, depressiya, vahima va umumiylar bezovtalik, fobiya, narkomaniya va moddalarni iste’mol qilish buzilishi, neyro buzilish kasallikkari, shikastlanishdan keyingi stress, tuyg’ularni boshqarish, o’zini o’zi qadrlash va shaxsiy o’zaro ta’sir muammolari, kognitiv buzilishlar va demensiya, jinsiy buzilishlar.

## **KIRISH**

Olib brogan tadqiqotlarimiz davomida ko’plab tajriba va bilimlarga ega bo’lgan ustoz va malakali psixologlar suhbatlarida bo’ldik. Malakali psixologlardan olingan suhbatlar, darslar davomida tinglangan ma’ruzalardan tug’ilgan savollar bo’yicha savolnoma tayyorlandi va shu savolnoma bo’yicha (O’zXIA) akademiya psixologi, professor o’qituvchilar, O’zbekiston Milliy Universiteti (O’zMU), Nizomiy nomidagi Toshken davlat Pedagogika Universiteti (TDPU) va boshqa muassasa tashkilotlari psixologlari va ulkan tajribali psixologlar bilan jonli suhbatlar o’tkazildi va shu suhbatlar bo’yicha bir qancha protokollar tayyorlandi. Quyida olib borilgan intervyyu savollari taqdim etilgan.

1. Bugungi kunda zamonaviy psixologiya konsultatsiyasida qaysi metolarni qo’llagan ma’qul?”
2. Psixologik konsultatsiya vaqtida diniy maslahat qanchalik muhim o’rin egallashi lozim?

3. Bugungi kunda psixologga murojaat etuvchilarning ko'proq foizi qanday yosh vakillarini tashkil qiladi?

4. Psixologik konsultatsiya vaqtida mijozga ta'sir etishdagi eng ustuvor metodikalar?

### **Metodlar bo'limi**

Kabi savollarimizga o'qituvchi, professor,doktor hamda konsultatnt psixologlarning javoblari turlicha bo'ldi albatta. Bugungi kun jahon psixologlariga qanday murojaatlар bilan mijozlar tashrif buyurishiga qiziqdik va quyidagicha javob oldik.

### **Metodlar bo'limi:materiallar va usullar**

1. *Adaptiv buzilish.* Psixolog huzurida maslahatlashishning eng keng tarqalgan sabablaridan biri va bu aslida buzilishdan ko'proq narsani anglatadi. Bu kutilganidan kattaroq tashvish, stress yoki hissiy tashvishga javob va turli xil darajadagi funktsionalliklariga ta'sir ko'rsatadigan, aniq identifikatsiyalanadigan stressli vaziyat yoki hodisadan kelib chiqadi.

2. *Depressiya.* Katta depressiya bu dunyo bo'ylab eng keng tarqalgan ruhiy kasalllik (tashvish bilan bog'liq kasalliklar bilan birga).

3. *Vahima va umumiy bezovtalik.* Vahima hujumlarining takrorlanadigan epizodlari terlash, yurak urishi, ko'krak qafasi og'rig'i, ichak bezovtaligi yoki bo'g'ilish hissi kabi fiziologik alomatlar paydo bo'ladi.

4. *Fobiylar.* Fobiya - bu bizning jamiyatimizda juda keng tarqalgan va yuqori darajada qo'rquv va xavotir (sub'ektning o'zi mantiqsiz yoki nomutanosib deb tan oladigan darajada) mavjudligiga asoslangan tashvishlanishning bir turi.

5. *Neyro-rivojlanish kasalliklari.* Neyro-rivojlanish kasalliklari bo'yicha maslahatlashuvning eng keng tarqalgan sabablaridan biri bu **maxsus o'rganish buzilishi** giperaktivlik yoki DEHB va autizm spektri buzilishi (shu jumladan, sobiq Asperger) bilan diqqat yetishmasligi buzilishi (shu jumladan, disleksiya yoki diskalkulyiya).

6. *Narkomaniya va moddalarni iste'mol qilish buzilishi.* Giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish. Jismoniy yoki psixologik bog'liqlikni keltirib chiqaradigan

xatti-harakatlarning bir turi. Bu xatti-harakatni to'xtatishga urinish katta noqulaylik, xatti-harakatlar va azoblarni amalga oshirish istagi (azobga bog'liq fiziologik alomatlar bilan birga) agar ular hatto o'limga olib kelishi mumkin bo'lsa) va bu uning inson salomatligi yoki faoliyati uchun oqibatlari borligini bilgan holda davom etaveradi.

7. *Shikastlanishdan keyingi stress.* Maslahatlashuvning yana bir sababi shikastlanishdan keyingi stress buzilishi deb ataladi, bu kasallik travmatik tajribani boshdan kechirganligi yoki guvohi bo'lganligi oqibati (jinsiy zo'ravonlik, suiqasd qilish urinislari, urush mojarolari ...) jabr ko'rgan yoki guvohi bo'lgan kishi voqeani qayta boshdan kechirgan va doimiy fikrlar va xotiralar, dahshatli tushlar, fiziologik reaktsiyalar, keljakni qisqartirish hissi, giperaktivatsiya yoki giperarousal, qiziqishni yo'qotish, mumkin bo'lgan aybdorlik hissi, psixogen amneziya, depersonalizatsiya yoki derealizatsiya, iztirob va bezovtalik yoki qochish xatti-harakatlari kabi mumkin bo'lgan ajralishlar.

8. *Kognitiv buzilishlar va demanslar.* Garchi bu holda biz odatda psixoterapiya va neyropsikologiya bilan cheklanadigan, psixologik konsultatsiyalarning boshqa turlarida keng tarqalgan bo'lмаган konsultatsiya sababi haqida gapiradigan bo'lsak ham, kognitiv buzilishlar va ayniqsa psixologiya va psixiatriya doirasidagi demanslarning ahamiyatini eslatib o'tish zarur.

9. *Tuyg'ularni boshqarish, o'zini o'zi qadrlash va shaxsiy o'zaro ta'sir muammolari.* Psixologga murojaat qilishning sababi ruhiy kasallik emas, balki, hissiyotlarni boshqarish kabi jihatlardagi qiyinchiliklarning mavjudligi (g'azab yoki xafagarchilikni ta'kidlash), o'z qadr-qimmatini oshirish usullarini izlash (masalan, mакtabda yoki ishda doimiy bezorilikka duchor bo'lган odamlarda) yoki u holda barqaror, chuqur va izchil shaxsiy munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar bo'lishi mumkin.

10. *Aloqalar va oilaviy nizolar.* Psixologik konsultatsiyaning nisbatan tez-tez uchraydigan yana bir sababi oilaviy va juftlik terapiyasi mutaxassislarida uchraydi. ko'pincha ziddiyat, noto'g'ri aloqa va disfunktional dinamikaga va munosabatlardagi rollarga asoslangan har qanday tartibsizlikning mavjudligi (garchi ba'zi hollarda nizoning sababi organik kasallik yoki ruhiy kasallik bo'lishi mumkin).

*11. Jinsiy buzilishlar.* Umuman olganda, bu yaqin vaqtgacha kamdan kam bo'lган narsadir jinsiy hayotni normallashtirish va qoniqarli jinsiy aloqani izlash bu borada asta-sekin ushbu turdagи muammolar mutaxassislar bilan tobora ko'proq maslahatlashib borishini anglatadi.

Garchi ba'zi hollarda biz organik sabablar bilan shug'ullansak ham, bu muammolar ko'pincha sabab yoki muhim psixologik tarkibiy qismga ega (masalan, tashvish). Erektil disfunktsiya va erta bo'shashish erkaklarda tez-tez uchraydigan muammolar bo'lib, ayollarda gipoaktiv shahvoniy istak eng ko'p uchraydi (undan keyin ayollar orgazm buzilishi).

*12. Ovqatlanishning buzilishi.* Ayniqsa, tanaga sig'inish madaniyati va bizning zamonamiz va jamiyatning go'zallik kanonlari bilan bog'liq bo'lган ovqatlanish buzilishi so'nggi paytlarda mavjud bo'lган haqiqatdir.

Bu shu maqsadda to'g'ridan-to'g'ri harakatlarsiz azob chekayotganlarning o'limiga olib kelishi mumkin bo'lган ruhiy buzuqlikning bir nechta turlaridan biri bo'lib, ularning ba'zilari juda xavfli hisoblanadi.

*13. Obsesif-kompulsiv buzilish.* Obsesif kompulsiv buzilish yoki OKB obsesif fikrlarning mavjudligidir. Ular takrorlanadigan, egodistonik va intruziv fikrlar, bu azob chekayotgan odam katta xavotir va ayb bilan boshdan kechiradi va ko'pincha tashvish darajasini pasaytirish uchun marosimlarni bajarishni o'z ichiga oladi, bu majburlash deb nomlangan marosimlar, avvaliga ular biroz bo'lsa ham xavotirni kamaytiring va intruziv fikrlarning ko'rinishini kuchaytirib, obsesyon va majburlash o'rtasida doimiy tsiklni shakllantiradi, bu asosan vaqtini egallaydi va katta azob-uqubatlarni keltirib chiqaradi.

*14. Shizofreniya va boshqa psixotik kasalliklar.* Psixologiya va psixiatriya mutaxassislari maslahatlarida keng tarqalgan bemorning yana bir turi bu psixotik kasalliklarga chalingan odamlar. Ular orasida shizofreniya ajralib turadi, ehtimol u eng taniqli ruhiy kasalliklardan biri va psixotik spektrga kiradiganlar orasida eng ko'p tarqalgan (umumiy aholining taxminan 1% tarqalishi bilan).

Ushbu buzilish kamida olti oy davomida gallyutsinatsiyalar (odatda eshitish) va aldanishlar kabi alomatlar mavjudligi bilan tavsiflanadi. Uyushmagan til, agitatsiya yoki tilda reqlardan chiqish, kattoniya, fikrning qashshoqligi yoki maqtov, befarqlik.

*15. Bipolyar buzilish.* Eng muhim affektiv buzilishlardan yana biri, bipolyar buzilish bir yoki bir nechta manik epizodlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi (janjal va nizolarga, fikrlar va hatto ulug'vorlikning aldanishiga, hukm qilish qobiliyatining pasayishiga olib keladigan o'ta eyforiya, asabiylik va dushmanlik bilan ajralib turadi) uyqu va ovqatlanish buzilishi, xavfli xatti-harakatlar va yuqori impulsivlik, boshqalar), bipolyar 1-turdagi buzilish yoki kamida bitta gipomanik epizod (kamroq kuchli, og'ir va uzoq muddatli) holatlarida yolg'iz qolishi yoki depressiv epizodlardan oldin bo'lismi mumkin.

*16. Fibromiyalgiya va surunkali charchoq va boshqa tibbiy muammolar.* Fibromiyalgiya surunkali kasallik bo'lib, uning asosiy simptomi umumiyligida mushakskelet tizimining og'rig'i bo'lib, u bir necha yil oldin tan olinmagan bo'lsa ham (bu uning haqiqiy kasalligi ekanligiga shubha qilingan) juda keng tarqalgan. Ushbu holatlar ko'p hollarda ikkilamchi depressiya, tashvish va iztirob, qochish xatti-harakatlari, izolyatsiya va ijtimoiy-mehnat qiyinchiliklarini keltirib chiqaradi psixologik davolanishdan foyda ko'rishi mumkin<sup>1</sup>.


### **Maqola asosiy qismi: Natijalar bo'limi**

Yuqorida keltirib o'tilgan muammolar jahon psixologlari tomonidan e'tirof etilib tan olingan bo'lsa, biz O'zbekiston bo'yicha psixologlarga qaysi muammolar bilan murojaat qilishlari haqida izlandik va shunday natijaga erishdik va uni statistika qilishga harakat qildik. Quyida hozirgi vaqtida psixolog konsultatsiyasi uchun tashrif buyuruvchilar aynan qanday muammolarni bartaraf etish uchun tashrif buyurishlari so'rovnomamizdan katta hajmda o'rinni oldi va uni diagramma orqali ko'rish mumkin (1-rasm).

---

<sup>1</sup> WARBLETONCOUNCIL.org

## Hozirda o'zbek psixologlarga qaysi muammolar bilan murojaat qilishmoqda?



**1-rasm**

Yuqorida ko’rsatilgan natijalar ayni vaqtida ko’rilayotgan xulosalardan kelib chiqib tayyorlandi. Yana shuni ta’kidlash joizki, shaxsiy muammolar, e’tibor tanqisligi kabi javoblar aynan o’smirlardan, ya’ni maktab yoshidagi o’quvchilardan olingani ta’kidlab o’tildi.

### **Maqola asosiy qismi: Munozara bo’limi**

Maqlamiz avvalida keltirib o’tgan savolimizning birinchisi,- “bugungi kunda zamonaviy psixologiya konsultatsiyasida qanday metodlarni qo’llagan ma’qul?”. Yuqoridagi savolimizga 6nafar psixolog NLP, Bihevioral yo’nalishlarini belgilab javob bergen bo’lsa, 12 nafari shaxs so’rovnomalari orqali deyishgan. Yana 6nafari MAC (metofarik assatsiatsion (carta) karta) va TAT(tematik appersepcion test) javobini bergenlar va 9ta psixolog o’zlari ishlaydigan boshqa metodlarni yoritib o’tishgan (2-rasm).

Ikkinchi berilgan “psixologik konsultatsiya vaqtida diniy maslahat qanchalik o’rin egallashi lozim?” savoliga 6nafar psixologlar,-“diniy maslahat berish psixologning burchi emas”,- deyishgan. 1nafari,-“bunday vaqtida din bo’yicha mutaxassisiga yo’naltirgan ma’qul”,- degan. 28 nafari eng ko’p tanlangan javob variantida “psixolog diniy maslahatni psixologik kriteriyalar asosida olib borishi


mumkin. Ya’ni psixologning diniy bilimi bo’lishi aqsadga muvofiqdir” javobini belgilaganlar (3-rasm).

Uchunchi savol bugungi kunda psixoglarga murojaat etuvchilar qanday yosh vakillari ekanligi haqidagi savol edi. Bunga 14ta psixolog o’smir va o’spirinlar (13-25yosh)ni tanlashgan, 8nafari yoshlari (26-30yosh)ni, 12nafari o’rta yoshlilar (31-40yosh)ni tanlagan bo’lsalar, 2nafari barcha yosh turi bilan ish olib borishi mumkinligini aytgan (4-rasm).

To’rtinchi berilgan savolda “psixologgik konsultatsiya vaqtida mijozga ta’sir etishning eng ustuvor yo’li (metodikasi)” so’ralganda 23nafar mutaxassis egzistensial psixologiya metodlarini tanlashgan, 3nafari psixoanalitik metodlarni va 10nafarlari proaktiv metodlardan foydalanishlarini aytib o’tganlar (5-rasm).


### **Ilmiy tadqiqot taqdimotlari**

#### **Bugungi kunda zamonaviy psixologik konsultatsiyada qaysi metodlarni qo'lligan ma'qul?**




**2-rasm**

## **Psixologik konsultatsiya vaqtida diniy maslahat qanchalik muhim o'rin tutadi?**




**3-rasm**

## **psixologga murojaat etuvchilarning ko'proq soni qaysi yosh vakillarini tashkil qiladi?**



**4-rasm**

### **Konsultatsiya vaqtida mijozga ta'sir qilishning ustuvor metodikasi qaysi?**



**5-rasm**

Demak, taqdim qilib o'tilgan diagramma javoblaridan bugungi kunda O'zbekiston ahолиси о'ртасида psixologga murojaat etuvchilarning soni ortganini hamda ularni qiynayotgan muammolar o'z yechimini topishi uchun psixoglarga murojaat etib, hayotlaridagi muammoli vaziyatarni bartaraf qilayotganlarini guvohi bo'lishimiz mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati (Bibliografik ro'yxatni shakllantirish):**

1. WARBLETONCOUNCIL.org

**QO'SHMA GAPLAR YUZASIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR**

**Abdurashidova Rushana Maqsud qizi  
Eshpo'latova Go'zal Abdurahim qizi**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti  
O'zbek tili va adabiyoti ta'lif yo'nalishi 3-bosqich talabalari*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada sintaksis va qo'shma gaplar nazariyasi ustida ish olib borgan olim va tadqiqotchilarning fikrlari hamda o'zbek tilshunosligida ham o'xshash va farqli jihatlarini o'rgangan olim-u olimalarning ishlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** sintaksis, gap, so'z birikmasi, qo'shma gaplar.

**Аннотация:** В этой статье представлены взгляды ученых и исследователей, работающих над теорией синтаксиса и сложных предложений, а также работы ученых, изучавших сходства и различия в узбекской лингвистике.

**Ключевые слова:** синтаксис, предложение, фраза, сложное предложение.

Sintaksisning o'rganish tarixi qadimgi asrlarga borib taqaladi. Sintaksis ostida gap va uning qismlari haqida ta'lilot tushuniladi. Bu nazariya antik davrning lisoniy an'analarini ifodalashdan kelib chiqqan. Sintaksis (grek tilidan sintaksis — birlashtirish, tuzilish) til tizimining bir sathi hisoblanib, so'z shakllaridan iborat bo'ladi. [5] Sintaksis masalasi antik davrdan o'rganilib kelinmoqda va hanuzgacha sintaksis masalalari dolzarb hisoblanadi. Sintaksis grammatika fanining bir bo'lagi sifatida ko'rildi. Ma'lumki, grammatika fani ikki qismdan, ya'ni morfologiya va sintaksis yo'nalishlaridan iborat. Sintaksis ta'rifiga ingliz, rus va o'zbek olimlari har tomonlama yondoshgan. Jumladan, rus olimi V. V. Vinogradov sintaksis so'zning so'z birikmasi va gap tarkibidagi birikish qoidalarni va usullarni hamda so'z birikmalarini, ularning tuzilishini, funktsiyasi, rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan deb hisoblaydi. “Olimning ta'kidlashicha, sintaksisning xarakterli xususiyati shundaki, uning har bir o'rganish ob'yekti o'zidan yuqoriq bo'lgan grammatik birlikning struktur elementi sifatida funktsiyalashadi: so'z va uning shakllari so'z va gapning, so'z birikmasi turli yoyiq gaplarning, gap doirasida esa, o'z navbatida, sodda gap qo'shma gapning struktur elementi sifatida xizmat qiladi”. [3] Shunday qilib, sintaksisning o'rganish ob'yekti gapligini tasdiqlaydi. Hozirgi kunda, V. Vinogradovning nazariyasi va ta'limoti o'rta maktabalarning darsligida o'z o'rnini topgan, ya'ni, maktab o'quvchilarini o'qitishda aynan ushbu olimning fikrlariga tayaniladi. O'zbek tili sintaksisi tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida dastlab Fitrat tomonidan “nahv” atamasi ostida o'rganildi. Shundan so'ng H.Qayumiy va S.Dolimov ham ikki qismli “Grammatika” asarini yozib, ikkinchi qismini “nahv” deb nomlaganlar. [6] Gap nazariyasi ham turli tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan.

Til o‘z kommunikativ vazifasini sintaktik qurilma — gap vositasida amalga oshiradi. Tildagi barcha — fonetik, leksik, morfologik hodisa ana shu sintaktik qurilishga xizmat qiladi. Biroq bular sirasida leksika va morfologiyaning til grammatik qurilishidagi ishtiroki o‘ziga xos. Zero, har qanday sintaktik hodisada so‘z va morfologik ko‘rsatkichni ko‘ramiz. Shu boisdan sintaktik mohiyatni belgilashda leksik va morfologik omilga tayaniladi. Gap, aslida, so‘zning erkin birikuviga ham asoslanganligi tufayli so‘zning bog‘lanish qonuniyati, so‘z birikmasi ham sintaksisda o‘rganiladi. So‘z birikmalarini o‘rganish gap ta’limotining tarkibiy qismi, undan ajratilgan holda qaralishi mumkin emas. Sintaksis so‘zning har qanday birikuvini emas, balki hokim-tobelik munosabatiga kirishgan erkin nutqiy birikuvning lisoniy mohiyatini tekshiradi. Qaysidir yo‘sindagi so‘zning birikuvi bo‘lgan qo‘shma so‘z (uchburchak, ertapishar, sotib olmoq), frazeologik birlik (ilonning yog‘ini yalagan, po‘konidan yel o‘tmagan, ko‘ngli bo‘sh) sintaksisning tadqiq doirasidan chetda qoladi. Chunki ular erkin bog‘lanishga ega emas. Sintaksis atamasi grammatika atamasining o‘zi kabi ikki ma’noli: 1) tilning sintaktik qurilishi; 2) grammatikaning tarkibiy qismi. Atamani ana shu ikkinchi ma’nosida qo‘llab, birinchi ma’no ifodasi uchun sintaktik qurilish atamasini ishlatamiz. Gap barcha tillarda grammatikaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Gap turlarinining o‘rganishiga, gap tadqiqi bilan bog‘liq muammolar va turli tillarda gaplarning taqqoslash va qiyoslash masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Shuning uchun turli oila va guruhlarga mansub tillardagi gaplarni va ularning turlarini qiyoslash va farqlash bugungi kun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda gaplar tishunoslikning turli yo‘nalishlarida o‘rganilib kelmoqda, jumladan, kontrastiv tilshunoslik, areal tilshunoslik, qiyosiy tipologiya, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya va pragmatik tilshunoslik. Albatta, tilshunoslikning har bir yo‘nalishida gaplar va ularning muammolarini tahlil qilish yangicha yondashuvlarni va usullarni talab qiladi. Shuning uchun, gaplarning asosiy til birligi sifatida alohida o‘rganish mavzusi diqqatga sazovordir. O‘zbek tili sodda gap sintaksisning takomillashuvida B.O’rinboyevning “Hozirgi o‘zbek tilida vokativ kategoriya”, N.Mahmudovning “O‘zbek tilidagi sodda gaplarda mazmun va shakl assimetriyasi” monografiyalari ahamiyatli bo’ldi. O‘zbek tili qo‘shma gap sintaksisi shakllanishida akademik G.Abdurahmonov va M.Askarovlarning xizmati kattadir. O‘zbek tili qo‘shma gaplarning tadqiqiga bag‘ishlangan “Hozirgi zamon o‘zbek tilida ergashgan qo‘shma gaplarning sostavi” asari bilan o‘zbek tilida qo‘shma gaplar alohida tadqiq qilinishni boshladilar. 1955 yilda F.Kamol “Qo‘shma gaplarga doir masalalar” kitobini nashr etdi va unda qo‘shma gaplarning maqomi, ularning tasnifi haqida dastlabki ma’lumot berdi. [7] O‘zbek tilida qo‘shma gaplar tadqiqiga bag‘ishlangan G.Abdurahmonovning ishini ko‘rsatishimiz lozimdir. Jumladan, olim qo‘shma gaplarni mazmun jihatdan quyidagi guruhlarga bo‘lib chiqadi: aniqlovchi, ega, kesim, payt, o‘rin, sabab, shart, maqsad, to’siqsiz, natija, ravish, qiyoslash ergash gapli

qo'shma gaplar. O'z navbatida, qiyoslash ergash gapli qo'shma gaplar uchga bo'linadi: chog'ishtirish, o'xshatish, miqdor-daraja ergash gapli qo'shma gaplar. G.Abdurahmonov qo'shma gaplarning 15 turini izohlaydi. [1] G.Abdurahmonov bog'lovchisiz qo'shma gaplar va komponentlarning biriktiruvchi bog'lovchilar, bog'lovchisiz qo'shma gaplar va ularning komponentlarining sabab, natija, shart kabi mazmun munosabatlari, murakkab qo'shma gaplar va uning turlari bo'yicha masalalarni atroflicha talqin etdi. Professor G.Abdurahmonov qo'shma gaplar nazariyasi va ular bilan bog'liq masalalarni chuqur o'rganib, hattoki, xorij mutaxassislari e'tibor bermagan masalalarga e'tibor qaratdi. Misol tariqasida, uyushiq kesimli gaplar haqida shunday ta'rif beradi: "Sodda va qo'shma gaplarni farqlashda qiyinchilik tug'diradigan holat shundan iboratki, ba'zi bir sintaktik konstruktsiyalarning tarkibida faqat bir ega — sub'yeqt bo'lishiga qaramay, qo'shma gap sanaladi, chunki bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning ham Grammatik, ham semantik jihatdan o'ziga mustaqil ekanligi ko'rinish turadi; bu xil konstruktsiyani tashkil etgan qismlarning har biri ma'lum fikr tugalligini ifodalaydi, ularning predikativlik va modallik xususiyatlari bo'ladi". [2] Qo'shma gaplarning o'rganilishi L.Asqarovaning ishlarida qo'shma gaplarning o'rganilishi davom ettirildi. Olima qo'shma gaplarni bog'langan, ergashgan, bog'lovchisiz kabi turlarga ajratadi. G.Abdurahmonov tomonidan tavsiya berilgan qo'shma gaplarning turlarini qiyoslab va chog'ishtirib o'rgandi. Shuningek, A.Berdaliyev qo'shma gaplar sintaksisi sohasiga tizimli tilshunoslikning o'xshashlik (paradigmatika), sintaktik ziddiyatlar (oppozitsiya) kabi tushunchalarni olib kirdi. [8] Lekin A.Berdaliyevning ishida qo'shma gaplarning ajratilish va tasniflash masalalari qo'yilmagan. Mazkur masala G.Abdurahmonov, M.Asqarova va N.Turniyozovlarning ishlarida ko'rindi. A.Nurmonov o'z ishlarida qo'shma gaplarni mazmun jihatdan o'rganib, gaplarning semantik tizimidagi propozitsiya aspekti, predikativ qurilmalar va kommunikativ aspekti kabi masalalarga o'z e'tiborini qaratdi. R.Sayfullayeva o'z tadqiqotlarida qo'shma gaplarni substantsial jihatdan talqin etgan. Hozirgi kunda qo'shma gaplar nazariyasi keng o'rganilmoqda. Jumladan, professor G.Hoshimov qo'shma gaplarni hajm jihatdan tadqiq qilish alohida ahamiyatga egaligini ifodalaydi. Olim qo'shma gaplarni quyidagi turlarga bo'lib chiqadi: politaksema o'z navbatida kollotaksema (collotaxeme), parataksema (parataxeme), gipotaksema (hypotaxeme), giptaksema (hypertaxeme), supertaksema (supertaxeme), ultrotaksema (ultrataxeme), arxitaksema (architaxeme), sinkrotaksema (syncrotaxeme) larga bo'linadi. [4] Qo'shma gaplarning tadqiqi ustida ko'plab olim-u olimalar, professorlar izlanishlar olib borgan va olib boryapti. Ko'rini turibdiki, qo'shma gaplarni har tomonlama tadqiq etish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абдураҳмонов Ғ. Кўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4.
2. Абдураҳмонов Ғ. Кўшма гаплар классификацияси // Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. — 1980. № 4
3. Виноградов В. В. Основные вопросы синтаксиса предложения (на материале русского языка)//Исследования по русской грамматике. — М. 1975— С.154.
4. Ҳошимов. Г. М. Типология сложных предложений разносистемных языков.— Т. «Фан», 1991-С.105
5. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, 2012. — B.288
6. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. — B.418
7. Nurmonov A. Tanlangan asarlar. —Toshkent “Akademnashr”, II jild, 2012. — B.422
8. Sayfullayeva R. Hozirgi o’zbek tilida qo’shma gaplarning substantsional (zotiy) talqini. — Toshkent. “Fan”, 2007.— B.19.

## **INVESTIGATION OF GENERAL AND SPECIAL PROPERTIES OF CONCRETE AND MORTAR MIXTURES AND HARDED CONCRETE WITH ADDITIVES OF SURFACTANTS**

**Teshaboeva Nodira Djuraevna**

*Senior lecturer of the department*

*"Geodesy, cartography and cadastre"*

*rayhona.20.10@mail.ru*

**Abstract:** In the article, As already mentioned above, surface-active additives have a powerful regulating effect on most of the basic properties of concrete mixes and hardened concretes.

**Key words:** concrete mixtures, active additives, surface-active additives.

As mentioned above, surface-active additives have a powerful regulating effect on most of the basic properties of concrete mixtures and hardened concretes.

Due to the emergence of a specific "lubricating" action of hydrophobic additives, plasticizing properties of hydrophobically plasticized cement appear in concrete mixtures. Water-repellent substances introduced into cement do not disappear in hardened concretes and mortars. They remain in the cement stone, change its structure and advantageously change the properties of cement materials in relation to the action of water and freezing. This chapter presents the results of experimental work to establish the effect of new surface-active additives on the main properties of concrete and mortar mixtures and hardened samples, while first of all, the properties important for hydraulic concretes were investigated. The determinations were carried out according to the methods and devices recommended by the current state standards.

Part of the studies of the basic properties of cement systems with additives of surfactants was carried out at optimal dosages of additives. For a practical comparison of the plastic-viscous properties of cement mortars and concretes, standard methods used in testing cements and concrete mixtures were used. The mobility of mortar mixtures was determined by the size of the melt (the diameter of the resulting cakes of a truncated cone on the mortar mixture after 30 shaking on a standard table. The mortar cone during manufacture was compacted by layer-by-layer baying: the lower layer 15 times and the upper layer 10 times.

During the tests, it was assumed that mortar mixtures with the same cone spread (cake diameter) have the same mobility. The results of the experiments given in Table 20 show that in order to achieve the same mobility of solutions of the composition 1:3

with the addition of 0.2% oxidized petrolatum and 0.2% soap naphtha, it is necessary to reduce the amount of mixing water by about 4.5%.

Table 1

### Influence of surface-active additives on the plasticity of mortar and concrete mixtures

Type of cement	Concrete 1:3			Concrete 1:1.25.2.98			Concrete 1:2,38,4,7				
	V/C	sleeping V/C, %	Volum ny weight solution mixture, kg/dm	V/C, %	lower nie V/C, %	Conve nient lay down valenc y, sec	Volu me ny weigh t solution mixtu re, kg/dm	V/C, %	slee p ing V/C, %	Con veni ent lay dow n vale ncy, sec	Volu me ny weigh t soluti on mixtu re, kg/dm
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12
Without additive	0,45	0	2,14	0,415	0	12	2,44	0,5	0	18	2,42
Additive, 0.2%	0,48	4,5	2,07	0,39	6	10,09	2,42	0,46	8	16,5	2,41
With the addition of soap naphtha 0.2%	0,43	4,5	2,09	0,39	6	12	2,40	0,45	10	17	2,39

The use of hydrophobically plasticized cements based on oxidized petrolatum (in an amount of 0.2%) in the manufacture of concretes makes it possible to reduce the water-cement ratio by 6-8%, while the workability of concrete mixtures remains approximately 15% higher compared to control compositions.

The use of additives of synthetic fatty acids of all fractions in the amount of 0.105 and VAT residues of FFA in the amount of 0.15% makes it possible to reduce the water content of cement-sand mortars with a composition of 1:3 by 5-10% and composition 1:6 by 7-15% compared to control mixtures.

The water-cement ratio of concrete compositions on cement with FFA additives, while maintaining the same mobility as that of the control, should decrease by 10-12%. The introduction of additives or sulfite-alcohol stillage into concrete

mixtures based on hydrophobically plasticized cement made it possible /in our experiments/ to change the water-cement ratio by an additional approximately 2%.

The plasticizing effect of all the above surfactants is similar to that of soap naphtha. It should be noted that the plasticizing effect of OP and FFA is most fully manifested in lean cement systems; in fatty mixtures, it is advisable to introduce a combined additive of OP and PRS or FFA and PRS.

#### Conclusions:

Of great importance on the properties of concrete are the conditions under which hardening occurred. It is known that with the loss of water from freshly laid concrete (i.e., in the initial stages of its hardening), the strength of hardened concrete is greatly reduced, its frost resistance decreases, and cracking increases. The formation of cracks is mainly due to the fact that as a result of the evaporation of water on the upper part of the coating, a significant moisture gradient occurs.

#### Literature:

1. Solomatov V.I., Takhirov M.K., Shah Taher. Intensive concrete technology, Moscow, Stroyizdat, 1989.
- 2.J.A. Larbi, J. M. Bigen. The influence of the ratio of water in cement, the amount and size of sand on the production of lime in a set of Portland cement system. // Cem. and Concre. Res.-1990.-B20. - No. 5.-p. 783-794.
3. Teshabaev R.D. Hydrophobic-plasticizing additives for road concrete. Tashkent, FAN, 1980
4. Soloviev V.I. Concrete with hydrophobic plasticizing additives. Alma-Ata, Science, 1990.
5. Bazhenov Yu.M. Concrete technology, M. Higher school, 1987
6. Teshaboeva N.D. Improving the structure and properties of concrete in a dry hot climate with a hydrophobic-plasticizing additive. Eurasian Union of Uchitics (ESU). Monthly scientific journal No. 10(67)/2019 Part 7.

**POETIK INDIVIDUALLIKNI YUZAGA CHIQARISHDA ZID MA’NOLI  
SO‘ZLARNING AHAMIYATI (XURSHID DAVRON SHE’RIYATI  
MISOLIDA)**

*SamDU 1-bosqich magistranti  
Qurbanova Muharram Jurabekovna*

**Annotatsiya:** Bu maqola o‘zbek tilshunosligida tilning unsurlari, sintaktik figuralar va bular orqali adabiyotda ularning ahamiyatini izohlaydi. Shu bilan birgalikda, til va adabiyotning aloqasi uzviyiligi tahlil etiladi.

**Abstract:** This article explains the elements of language, syntactic figures and their importance in literature in Uzbek linguistics. Together with this, the relationship between language and literature is analyzed.

**Аннотация:** В данной статье объясняются элементы языка, синтаксические фигуры и их значение в литературе в узбекском языкоznании. Вместе с этим анализируется взаимосвязь языка и литературы.

**Kalit so‘zlar:** Antiteza, tazod, antonim, lingvopoetika, stilistik figura

Badiiy asar mutolaa qilar ekanmiz, bu jarayonda adabiyot va tilning bevosita bog‘liqligini, ularning go‘yo qush muvozanatini saqlovchi ikki qanotga o‘xhash ekanligining guvohi bo‘lamiz. Tilning har bir elementi poeziyada asarning pafosini, badiiy nafasini yoritib turadi. Jumladan, tilning stilistik figuralaridan bo‘lmish, antitezani olaylik. Antiteza-ritorik qarama-qarshilik, umumiyl tuzilish yoki ichki ma’no bilan o’zaro bog‘langan tushunchalar, pozitsiyalar, tasvirlar, holatlarning keskin qarama-qarshiligidan iborat badiiy yoki notiqlik nutqidagi ziddiyatning stilistik figurasi hisoblanadi. “Tabiat va jamiyatdagi ko‘plab narsa va hodisalarning mohiyati, insonlarning xarakteri ularni bir-biriga qiyoslash, taqqoslash, chog‘ishtirish asosida oydinlashadi. Badiiy adabiyot tilidagi antiteza usuli ham bir-biriga nisbatan qarama-qarshi ma’nolarni beradigan so‘zlarni, iboralarni bayonda yonma-yon qo‘llash orqali obrazlilikni keltirib chiqarishga asoslangandir. “Bayonning bunday vositasi yoqimlidir, – deydi Aristotel “Ritorika” asarida, – chunki qarama-qarshilik anglash uchun qulaydir, agar ular yonma-yon tursa yana ham tushunarlidir, yana shuning uchun qulayki, bu vosita isbot qilish, ziddiyatlarni qiyoslash bo‘lganidan sillogizmga yaqinlashadi”.<sup>1</sup> Professor S.Karimov aytganlaridek: “Badiiy uslubda antiteza yordamida ham xarakterlar qirralari aniq reallashadi, ham ifoda obyekti kengroq planda ochiladi”.<sup>2</sup> Shoир Xurshid Davronning “Kuz ertagi” she’riga diqqatimizni qarataylik: “Senga uni yoz deb ko‘rsatdim. Holbuki u qahraton edi-Bizga kuz kerak

<sup>1</sup> Каримов Суюн Амирович. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994. 45-бет

<sup>2</sup> Каримов Суюн Амирович. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994. 45-бет

edi”.<sup>3</sup> Demak, antiteza zidlashish hodisasi ekanligini hisobga olar ekanmiz, yuqoridagi parchada matn ichidagina antonimlikni vujudga keltirgan o‘ziga xos so‘zlarni uchratamiz: “Yoz” va “qahraton” so‘zlari ma’no jihatidan zidlanadi, chunki tabiat fasli sifatida yoz issiq, ba’zan jazirama kunlarni ifodalasa, qahraton esa odatda qish faslidagi eng sovuq kun sifatida qaraladi. Matn ichida shoir bu so‘zlarning bir-biriga zidlanishini va bu orqali she’rning ta’sirchanligini oshirgan. Yoz va qish juftligidagi antonimlarni ko‘p uchratganmiz, ammo yoz va qahraton biz uchun yangilik bo‘ldi. She’rning tahlili davomida uchratgan eng yangi va insonni hayratga soluvchi bir jozibali zidlik sifatida hech ikkilanmasdan quyidagi baytni keltirish mumkin: “Senga uni manzil deb ko‘rsatdim, Holbuki, u ostona edi- Bizga yo‘l kerak edi”. Parchadagi manzil so‘ziga diqqatimizni qarataylik, u lug‘aviy jihatdan inson borish uchun ko‘zlagan yer bo‘lib, ostona so‘zi she’r ichida unga zidlashtirilgan. Chunki ostona uyning endi bosiladigan qadami hisoblanadi, u uyga kirish va chiqish vazifasini o‘taydigan o‘ziga xos ko‘prik, ostona endi bosiladigan qadam, shaylangan harakat tarzi sifatida qaralsa, manzil esa yetilgan va erishilgan maqsaddir. Demak, matn ichida bu ikki tushuncha bir-birini zidlab kelmoqda va antitezani vujudga keltirmoqda. Endi, xuddi shu she’rdagi boshqa bir zidlanishni tahlil qilamiz: “Senga uni non deya tutdim. Ochlik endi holbuki u, Biroq, qon kerak edi”. Bu parchada “non” va “ochlik” so‘zlari matn ichida ochliq-to‘qlik tarzidagi zidlikni keltirgandek bo‘ladi go‘yo. Chunki biz bilamizki, non iste’mol ozuqasi sifatida inson ochlik hissini to‘ydiruvchi ne’mat hisoblanadi va albattaki ichki ma’nosida to‘qlik tushunchasini o‘zida jo etadi. Ko‘riniladiki, bu antonim juftlikda non-to‘qlik talqinini berar ekan, matn ichidagi shoir ijodiga xos eng go‘zal tazodning guvohi bo‘lamiz. She’riy parchalardagi ziddiy tushunchalarni shunchaki ritmik uyg‘unlikni keltiruvchi quroq emas, balki qalb qulfini ochuvchi kalit sifatida qarash lozim: “Senga ana, erk, deb ko‘rsatdim, Qo‘llarida zanjir bor edi, Uzmoq kerak edi zanjirni”. Parchadagi erk va zanjir so‘zlariga diqqatimizni qaratamiz: Erk-inson, umuman olganda butun bir borliq uchun berilgan ozodlik nashidasi, zanjir esa kishanlovchi, erkni bog‘lovchi, ozodlikdan ayiruvchi predmet sifatida qaraladi. Shoir she’rda erk va erksizlik, erk va mahkumlik, erk va zindonband kabi ko‘plab antonimlarni chetlashtirgan va ularni ham lol qoldirgan holatda matn ichida erk va zanjir so‘zlarini bir-biriga zidlaydi, bu tinglovchi aqlini shoshiradi, ammo hech qanday e’tirozni yuzaga keltirmaydi, chunki bu antonim juftlik o‘z o‘rnida va mantiqiy izchillikka asoslanib qo‘llangan eng samarali, yozuvchi poetik mahoratini belgilovchi unsur sanaladi. Bundan tashqari, aynan ziddiyatni keltirgan ammo antonim deyish biroz mushkul bo‘lgan so‘z turkumlari orasida ham shoir antonimlikni yuzaga chiqaradi, masalan: “Senga bu so‘nggi jang, dedim- Holbuki, birinchi jang edi”. So‘nggi va birinchi so‘zlarini antonimlikda qo‘llar ekanmiz, birinchi so‘zining qadimgi

<sup>3</sup> 3Xurshid Davron. Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq, 1997. 12-13-betlar

turkiy tilda ilk, avval degan ma‘nolar kasb etganini hisobga olamiz va bu bilan so‘nggi so‘ziga avvalgi, ilk degan tazodlarni yo‘naltiramiz. Bu albatta matn ichida alohida ziddiyatli ahamiyatini keltirib chiqaradi. She’rni yakunlar ekanmiz, eng so‘nggi baytda ham shoir yuksak iste’dod bilan yangi bir ziddiyatni bizga taqdim etagnining guvohi bo‘lamiz: “O‘lim mana shu, dedim senga, Holbuki, bu mangulik edi”. O‘lim-inson hayotining yakunlanish hodisasi, unga hayot, boqiylik, tiriklik, tirik kabi sozlarni ham zidlash mumkin, ammo shoir bular ichidagi eng kuchli ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zni-mangulikni qo‘llaydi. Bu orqali esa o‘lim va mangulik antonimlari vujudga keladi. Shoir she’riyati misolida tilimizga xos bo‘lgan antiteza hodisasining guvohi bo‘ldik, bular oddiy emas, balki matn ichida alohida ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zbek tilining naqadar jozibakor ekanligini yana bir bor isbotlaydi. “Fikrning jonli, betakror, individual tarzda bayon etilishi, ifoda tasvir vositalarining, jumladan o‘xshatish, metafora, metonimiya, epitetlarning, poetik sintaksisning faolligi, sinonimiya va ko‘pma’nolilikning, tasvirda ko‘pplanlilikning bo‘lishi, antiteza, shakldoshlik, oddiy so‘zlashuv, jargon-dialektal elementlarning, boshqa funksional uslubga xos birliklarning uchrashi, fe’llarning, sifatlarning, olmoshlarning ko‘p qo‘llanilishi va bularning barchasining katta bir vazifaga – obrazlilik va emotSIONallikka xizmat qildirilishi ana shu uslubiy belgilardir”.<sup>4</sup> Darhaqiqat, Antiteza stilistik figura sifatida qarama-qarshi narsalarga eng keskin kontrast beradi, ongda aniq tasvirlarni uyg’otadi. Qarama-qarshilik fikrni charxlaydi, matnni yoki uning bir qismini tartibga solishga yordam beradi, buning natijasida parallel figuralar, ayniqsa antitezalar matn yaratish vositasi sifatida ishlatiladi. O‘rganilgan material asosida biz nutqni jonlantirish, unga hissiylik, ekspressivlik, tasviriylikni berish uchun ular stilistik sintaksis usullaridan, ya’ni figuralardan foydalanishlarini aniqladik.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Каримов Суюн Амирович. Бадиий услуб ва тилнинг ифода тасвир воситалари.-Самарқанд. 1994.
2. Каримов Суюн Амирович. Ўзбек тилининг бадиий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.
3. Umirova S. O‘zbek she’riyatida lingvistik vositalar va poetik individuallik (Monografiya). –Samarqand: Ipak yo‘li, 2021. –B 236.
4. Xurshid Davron.Bahordan bir kun oldin. -Toshkent: Sharq, 1997.

<sup>4</sup> Каримов Суюн Амирович.Ўзбек тилининг бадиий услуби. -Самарқанд: Зарафшон, 1992.

**YEVROPADA INTELEKTUAL MULK HUQUQI SAVDOSI:  
MILLAT MINTAQASIDAGI IPDAN XALQARO IPGACHA**

*Amirov Shahzod G'olib o'g'li*

**Annotatsiya:** Maqolada innovatsiyalar va intellektual mulk derivativlarining jahon iqtisodiyotidagi rolining tobora ortib borishi bilan izohlanadi. Bu zamonaviy voqelikda davlat muvaffaqiyatining asosiy omillaridan biridir. Intellektual mulk ob'ektlari savdosi taraqqiyotning dvigateeli bo'lgan xalqaro texnologik almashinuvga yordam beradi. Intellektual mulk savdosi sohasidagi asosiy tendentsiyalarni tushunish innovatsiyalar va intellektual mulk ob'ektlarini yaratish sohasida ongli siyosat yuritish imkonini beradi. Ushbu tadqiqotning predmeti mamlakatlar o'rtasida texnologiya almashinuvi jarayonida vujudga keladigan, iqtisodiyotlarning innovatsion rivojlanishiga hissa qo'shadigan xalqaro iqtisodiy munosabatlardir.

**Kalit so'zlar:** Intellektual mulk, millat, rivojlanish, IP, savdo,

Intellektual mulkning xalqaro savdosi Ilmiy-texnika almashinuvining jadal faollashuvi xalqaro iqtisodiy munosabatlар rivojlanishining hozirgi bosqichining sezilarli xususiyatlaridan biriga aylandi. Ba'zi ma'lumotlarga ko'ra, jahon savdosining 80% intellektual mulkni o'z ichiga olgan tovarlarga to'g'ri keladi. Texnologiyalarning xalqaro transferi jahon savdosida olinadigan foydaning qariyb 7% ni tashkil qiladi.<sup>1</sup> Hozirgi vaqtda dunyoda yaratilgan texnologiyalarning umumiyligi qiymati yalpi ijtimoiy mahsulotning 60% ga etadi. Shubha yo'qki, hozirgi bosqichda ilg'or texnologiyalar va eng yangi bilimlarga ega bo'lish mamlakatning xalqaro raqobatbardoshligiga erishishning asosiy sharti bo'lib, intellektual faoliyat natijalari bilan savdo ayriboshlashning jadal sur'atlar bilan o'sib borishi esa eng muhim omilga aylanib bormoqda. xalqaro iqtisodiy munosabatlarni chuqurlashtirishning hozirgi bosqichi. Intellektual mulk (IP) mamlakat innovatsion rivojlanishining eng muhim elementi, uning iqtisodiy faoliyatini modernizatsiya qilish shartidir. Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tasnifiga ko'ra, intellektual mulk deganda inson ongingin ijodi tushuniladi: ixtiolar, adabiy va badiiy asarlar, ramzlar, nomlar, tasvirlar va dizaynlar savdoda qo'llaniladi. Intellektual mulk ikki toifaga bo'linadi: ixtiolar (patentlar), tovar belgilari, sanoat namunalari va kelib chiqish geografik ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan sanoat mulki; va romanlar, she'rlar va pyesalar, filmlar, musiqiy asarlar kabi adabiy va badiiy asarlarni o'z ichiga olgan mualliflik huquqi; chizmalar, rasmlar, fotosuratlar va haykaltaroshlik kabi tasviriy san'at, shuningdek, me'moriy tuzilmalar. Turdosh huquqlarga ijrochilarining o'z chiqishlaridagi huquqlari, fonogramma ishlab chiqaruvchilarining o'z yozuvlaridagi huquqlari, radio va televide niye dasturlarida eshittirish beruvchilarining huquqlari kiradi.

Intellektual mulk ob'ektlarini yaratish jarayonlarini rag'batlantirish, birinchi navbatda, ilmiy g'oyalarni faol ravishda izlayotgan va amalga oshiruvchi innovatsion kompaniyalarga yuqori malakali kadrlarni tayyorlash va jalb qilishni o'z ichiga oladi. Bir tomondan, fan va ta'lif sohasida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni ta'minlash asosida, ikkinchi tomondan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish laboratoriyalar va bo'limlar bevosita korxonalarda, Rossiya iqtisodiyotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarida intellektual mulk ob'ektlarini yaratishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarini faollashtirishga imkon beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion rivojlanishini rag'batlantirish intellektual mulk obyektlarini ishlab chiqish, joriy etish, taqsimlash va tijoratlashtirish jarayonlarini tartibga solishning huquqiy asoslarini yaratish, imtiyozli soliqqa tortishning samarali mexanizmini shakllantirish imkonini beruvchi tizimli yondashuvni qo'llash asosida amalga oshirilishi kerak. Yangi intellektual mulk ob'ektlarini yaratish uchun tejalgan mablag'lardan foydalanishni ta'minlaydigan Rossiya kompaniyalarining innovatsion faoliyati to'g'risida, Rossiya innovatsion kompaniyalarining xalqaro hamkorlik va integratsiya jarayonlarida ishtiroy etish modelini shakllantirish.

xorijiy hamkorlar bilan intellektual mulk obyektlarini yaratish, ichki bozorni faollashtirish va innovatsion ishlanmalar bilan Rossiya innovatsion kompaniyalarining xalqaro darajaga chiqishini tashkil etish. Amalga oshirish uchun asoslar jadvalda keltirilgan 6 ta tadbir IT texnologiyalari, biotexnologiyalar, fotonikalar, nanotexnologiyalar va yoqilg'i-energetika kompleksi sohasida faol faoliyat yuritayotgan Rossiyaning muvaffaqiyatli innovatsion kompaniyalari tomonidan davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari va ilmiy tashkilotlar bilan yaqin hamkorlikda rivojlanishning istiqbolli yo'nalishlarida ilmiy g'oyalarni ishlab chiqarishni ta'minlagan holda tuzilishi kerak.

IP obyektlarini yaratish, amalga oshirish, tarqatish va tijoratlashtirish jarayonlarini huquqiy tartibga solishni takomillashtirish Kontrafakt mahsulot aylanishini tartibga solish (shu jumladan bojxona) sohasidagi qonunchilikni o'zgartirish va qat'iylashtirish. IP ob'ektlari muomalasi sohasida monopoliyaga qarshi tartibga solishni yaratish va qabul qilish. 3. Eksklyuziv huquqlarni tugatish xalqaro prinsipiga o'tish. 48384-5-sonli "Texnologiyalar transferi to'g'risida" gi federal qonun loyihasini qabul qilish. Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik Kodeksining IP ob'ektlari bilan bog'liq normalarini uning turli qismlari va boshqa qonun hujjatlari o'rtasida uyg'unlashtirish

1. Huquqiy tartibga solishni takomillashtirish tovar muomalasida kontrafakt mahsulotlar darajasini pasaytiradi.

2. IP ob'ektlari huquq egalarining monopol hokimiyati cheklanadi va ularning iste'molchilarini himoya qilish mexanizmlari joriy etiladi.
3. Eksklyuziv huquqlarning tugashi tamoyili raqobatni kuchaytiradi va Rossiyaga sarmoya oqimini rag'batlantiradi.
4. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi, texnologiyalar transferi to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi texnologiyalar transferi va almashinuvini tezlashtirishda asosiy rol o'ynashi mumkin.
5. Huquqni qo'llash va sud ishlarini yuritish jarayonida qiyinchiliklarni bartaraf etish IP ob'ektlari savdosini kengaytirish uchun ichki bozorni rivojlantirish

1. IP ob'ektlarini tijoratlashtirish jarayonlari va erkin raqobat mexanizmlarini takomillashtirish. Innovatsiyalarga bo'lgan talabni rag'batlantirish. Innovatsion kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash va intellektual mulkka bo'lgan ichki talabni rag'batlantirish uchun innovatsion infratuzilma ob'ektlarini yaratish. Intellektual mulk ob'ektlari savdosini tashkil etishning yangi shakllari va usullarini ishlab chiqish. Intellektual mulkning ichki bozorini rivojlantirish bo'yicha forumlar, amaliy konferensiyalar, yarmarkalar, ko'rgazmalar, salonlar, kongresslar o'tkazish. Intellektual mulkning ichki bozorini rivojlantirish uchun iterativ marketing texnologiyalarini qo'llash . Yakuniy mahsulotni yaratishga g'oyani olib keladigan muhandislik markazlarini yaratish; intellektual faoliyat natijalaridan nafaqat davlat darajasida, balki iqtisodiyotning real sektorida samarali foydalanish. IP haqida xabardorlikni oshirish va undan foydalanish talabni, bozorni rivojlantirish va savdo faoliyatini oshirishga yordam beradi. 3. Innovatsion kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlar bilan birqalikda takroriy marketing texnologiyalaridan foydalanish ichki bozorni IP ob'ektlari bilan rivojlantirish va to'ldirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi, bu esa o'z navbatida IP ob'ektlari bilan tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yaratadi. va innovatsion mahsulotlar

Fan va innovatsiyalar sohasida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish 1. Xorijda IP tovarlarini patentlashni qo'llab-quvvatlash. 2. Xorijiy tadqiqotchilarning bo'lishi va zarur jihozlarning harakatlanishi tartiblarini soddalashtirish. 3. Innovatsiyalar sohasida tadqiqotchilarning yaqin va uzoq xorij davlatlari bilan hamkorligini ta'minlovchi shartnomalar imzolash. 4. Rossiya kompaniyalarining virtual va an'anaviy klasterlarda, global innovatsion loyihalarda faol ishtiroki Xorijiy tajribadan foydalanish, intellektual salohiyatni oshirish, xalqaro hamkorlikda ishtirok etish Rossiya kompaniyalarining innovatsion faolligini oshirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida iste'molchini ko'paytirish uchun sharoit yaratadi. IP ob'ektlariga qiziqish va yaratilgan mahsulotlarni ham mamlakat ichida, ham chet elda tan olish Innovatsion rivojlanishning istiqbolli yo'naliшlarini rivojlantirish.Davlat va aniq korxonalar-iste'molchilar buyurtmasi bo'yicha texnologiyalar, biotexnologiyalar, fotonikalar, nanotexnologiyalar va yoqilg'i-

energetika kompleksi sohasida IP ob'ektlarini yaratish asosida innovatsiyalarni rivojlantirish. ushbu mahsulotlardan. Innovatsion iqtisodiyotning istiqbolli va tayanch sohalarida IP obyektlarini yaratuvchi innovatsion kompaniyalarni maqsadli moliyalashtirish va maqsadli qo'llab-quvvatlash. Ushbu tarmoqlar Rossiya iqtisodiyotining xomashyo yo'nalishini innovatsion va hozirgi iqtisodiy voqelikda yagona haqiqiyga aylantira oladigan rivojlanishning asosiy innovatsion vektorlaridan biri bo'lishi mumkin. Ular innovatsion salohiyat va faollikning o'sishiga, tashqi bozorlardagi raqobatdosh ustunliklarga xizmat qiladi va bularning barchasi, o'z navbatida, mamlakatimizning yanada iqtisodiy rivojlanishini belgilab beradi.

Shunday qilib, shuni ta'kidlash kerakki, Internet-texnologiyalarni rivojlantirishning hozirgi darjasи va yo'nalishlari intellektual mulk ob'ektlari savdosining ularni amalga oshirishning an'anaviy, belgilangan shaklida tez o'sishi uchun moddiy asos yaratadi, shuningdek, yangi turlarning paydo bo'lishiga yordam beradi. undan.

Zamonaviy intellektual mulk bozoridagi tendentsiyalardan biri innovatsion muhitga salbiy ta'sir ko'rsatadigan patent trolligidir [7], bu intellektual mulk savdosining yanada rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin. Patent trollari yoki patent xolding kompaniyalari patentlarni yanada rivojlantirmsandan va o'z faoliyatlarida foydalanmasdan topadilar va sotib oladilar, keyin esa yirik ishlab chiqaruvchilarni mualliflik huquqini buzganlikda ayblab sudga berishadi [8]. Ular ushbu patentlar asosida mahsulot ishlab chiqarmaydi yoki sotmaydi, shuning uchun xavf minimaldir, eng yomon holatda, berilgan da'vo shunchaki rad etiladi. Eng yaxshi holatda ular millionlab pul topishadi. Hammasi kompaniyalar patentlarni arzon narxda sotib olib, ularni sud amaliyotida qo'llash, daromad keltira boshlaganidan boshlandi. Keyin g'oya mashhur bo'ldi va kompaniyalar qimmatroq patentlarni sotib oldilar, ularni taniqli va yirik kompaniyalarga qarshi ishlatdilar. Bu biznes modeliga aylandi va patentlarni sotib olish uchun taxminan 1 milliard dollarlik byudjetga ega bo'lган sobiq Microsoft CIO tomonidan Intellektual Ventures yaratish bilan yakunlandi. Yaratuvchi o'z faoliyatining boshida kompaniyalarni sudga bermoqchi emas edi, ammo hozirda Intellectual Ventures eng yirik patent trol kompaniyalaridan biri hisoblanadi; u 30 000 dan ortiq litsenziyalarni qo'lga kiritdi. Litsenziyalarning xalqaro savdosi global miqyosda intellektual mulk huquqlari harakatining ob'ektiv ko'rsatkichidir. U xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa shakllari, masalan, tovarlar va xizmatlar savdosi, shuningdek, kapital harakati bilan uzviy bog'liqidir. Litsenziyalar bilan xalqaro savdoning asosiy ishtirokchilari TMK hisoblanadi. Shunday qilib, intellektual mulkning xalqaro savdosi rivojlanishining asosiy tendentsiyalarini o'rganish natijasida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin.

1. Axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli intellektual mulkning xalqaro savdosi Internetda tez tarqalmoqda. Shu bilan birga, intellektual mulk

ob'ektlaridan biri bo'lgan domen nomlarini kiberskvatterlar tomonidan egallab olish va ulardan foydalanish, jumladan, elektron muhitda yangi texnologiyalarni sotish va almashish imkoniyatini ta'minlash bilan bog'liq muammolar yuzaga keldi. BIMT boshqaruvidagi bu muammolar nafaqat tovar va xizmatlar, balki intellektual mulk bilan ham savdo qiluvchi kompaniyalar faoliyatiga to'sqinlik qilmoqda.

2. Intellektual mulkning zamонавијаја бозорининг салбији хусусияти патент туларининг мавжудлигидир. Патент холдинглари фақат фойда олишни, патентларни сотиб олишни ва уларни янада ривојлантариш билан шуг'ullanmaslikни innovatsiyalarga салбији та'sir qiladi.

ривојланиш. Енг муҳими, патент туларини муаммоси innovatsiyalar ва intellektual mulk savdosi sohasidagi etakchilardan biri bo'lgan Amerika бозорига tegishli.

3. Ushbu bosqichda jahon miqyosida asosiy innovatsion faoliyat va ob'ektlar va intellektual mulk savdosi Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlarining roli ortib borayotganiga qaramay, асосан iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi. Ulardan ba'zilari texnologiyalarni import qiladilar, ulardan foydalanish orqali ular o'zlarining innovatsiyalarini yaratadilar, boshqa narsalar qatorida tashqi бозорларга eksport qilish uchun mo'ljallangan. Ushbu tendentsiya Osiyo-Tinch okeani mintaqasi mamlakatlariga AQSh va Yevropa Ittifoqi vakillari bilan muvaffaqiyatli raqobatlashish imkonini beradi.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Кузнецова Г.В. Международная торговля объектами интеллектуальной собственности // Российский внешнеэкономический вестник. 2013. № 8. С. 35-47.
2. Березовская Н.Ю. Доменное имя как объект интеллектуальной собственности // Молодой ученый. 2015. № 9. С. 543-544.
3. Зуйков С.А. Патентные войны сегодня - злоупотребление правом или защита своих имущественных интересов // Имущественные отношения в Российской Федерации. 2014. № 3. С. 25-33.

**USTOZ - IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR**

*Sayliyeva Zarina Raxmuddinovna,  
Buxoro davlat universiteti Filologiya fakulteti  
O`zbek tili va adabiyoti kafedrasи o`qituvchisi*

*Farmonova Nozima Rustam qizi  
Buxoro davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada buyuk so‘z san’atkori, benazir ijodkor, mohir munaqqid, fidoyi ustoz ,Hazrat Alisher Navoiy ijodini chuqur tadqiq etgan zabardast olim , filologiya fanlari doktori, professor Ibrohim Haqqul ijodiy faoliyatiga oid fikr va mulohazalar, olimning yillar mobaynida amalga oshirgan mehnatlarining jamlanmasi to‘plangan.

**Kalit so‘zlar.** Ibrohim Haqqul, tasavvuf , haqgo‘y olim , navoiyshunoslik, “Navoiyga qaytish”

“Bilgan gapirmaydi, gapirgan bilmaydi” deb yetuk adabiyotshunos Ibrohim Haqqul “Navoiyga qaytish ” kitobining muqaddimasini ushbu jumla bilan boshlaydi. Adabiyotni bir olam deb bilsak unda sir-asror behisob, uni cheksiz ummon desak hali biz bilgan, o’rgangan qismi tomchilarga teng. Insoniyat o’zini anglashni, idora etishni boshladiki, adabiyot, tahlil va talqin masalasiga e’tibor qaratib kelmoqda. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek adabiyoti tarixi bo‘limi boshlig‘i lavozimida ko‘p yillar faoliyat yuritgan, filologiya fanlari doktori Ibrohim Choriyevich Haqqulov 1949-yil 28-martda Buxoro viloyati Shofirkon tumani Talija qishlog‘ida tavallud topgan. 1966-1970 yillarda Buxoro davlat pedagogika institutida tahsil olgan. Mehnat faoliyatini “Shofirkon haqiqati” gazetasi xodimligidan boshlagan. Ammo ilmga cheksiz ishtiyoq va havas uni 1972-yildan O‘zRFA Til va adabiyot Institutiga yetakladi. U bu qutlug‘ dargohda sidqidildan mehnat qilib, laborant va kichik ilmiy xodim darajasidan katta va yetakchi ilmiy xodim, bo‘lim boshlig‘i lavozimigacha ko‘tarildi.“Daraxt bir joyda ko‘karadi” deganiday, Ibrohim Haqqulovning mazkur dargohga sadoqati uni hosildor daraxtday bezadi. Ibrohim Haqqul 1976- yili "O‘zbek adabiyotida ruboiy" temasida nomzodlik, 1995 yili "O‘zbek tasavvuf she‘riyatining shakllanishi va taraqqiyoti" mavzuida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Dastlab uning "O‘zbek adabiyotida ruboiy" (1981), "Uvaysiy she‘riyati" (1982), "Badiiy so‘z shukuhi" (1987) kitoblari nashr etilgan bo‘lsa, keyin "Zanjirband sher qoshida" (1989), "She‘riyat - ruhiy munosabat" (1989), "Abadiyat farzandlari" (1990), "Tasavvuf va she‘riyat" (1991), "Kamol et kasbkim..." (1991), "G‘azal sog‘inchi" (1991) kabi 20dan ortiq kitoblari bosilib chiqqan.U rus tilidagi ikki jildlik "Istoriya

uzbekskoy literatury" kitobining mualliflaridandir. Saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida Ibrohim Haqqulning adabiy jarayonga faol ishtirokini kuzatish mumkin. U zamonaviy she'riyatga bag'ishlangan qator maqolalar yozgan. Shuningdek, Abdulhamid Cho'lpionning "Bahorni sog'indim" (1988), Xoja Ahmad Yassaviyning "Hikmatlar" (1991) majmuasini, shogirdi Sayfiddin Rafiddinov bilan hamkorlikda "Boqirg'on kitobi" (1991), "Me'rojnama" (1995) kabi uzoq muddat nashr etilmay kelingan asarlarni o'quvchilarga yetkazgan.

Umrining so'nggi yillari mobaynida u "Ahmad Yassaviy", "Kim nimaga tayanadi?", "E'tiqod va ijod", "Tasavvuf saboqlari", "Taqdir va tafakkur", "Meros va mohiyat" deb nomlangan risola va kitoblarini chop ettirgan.

Farididdin Attor, Jaloliddin Rumiy, Abdurahmon Jomiy, Vilyam Shekspirday daho san'atkorlarning o'zbek tiliga o'girilgan kitoblariga salmoqli so'zboshi va so'ngso'zlar yozgan. Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-maoniy"sidan tanlangan shohbaytlarning alohida kitob holida chiqarilganligi ham e'tiborga molikdir.

Keyinroq Ibrohim Haqqulning "Ijod iqlimi" va "Mushohada yog'dusi" nomli kitoblar ham bosilib chiqqan. U 1996- yildan "Qadimgi davr adabiyoti", 2001-2021 yillarda "O'zbek adabiyoti tarixi" bo'limi mudiri sifatida faoliyat ko'rsatib kelayotir. Olim O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, "O'zbek tili va adabiyoti", "Tafakkur", "Naqshbandiya" jurnallari tahrir hay'atlari a'zosi edi. Uning ayrim maqola va kitoblari turk, uyg'ur, ozarbayjon, tojik va rus tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. So'nggi yillarda olimning "Navoiyga qaytish" deb nomlangan 4 jildlik kitobi bosmadan chiqqan.

Ustoz Ibrohim Haqqulov "Navoiyga qaytish"kitobida "Navoiyni anglash mashaqqati", "Navoiyga qaytish", "Tasavvuf va Navoiy she'riyati munosabatiga doir", "Ishq va komillik jazbasi", "Mansur Xalloj va Navoiy", "Oqillik va g'ofillik", "Teranlik sadosi", "Ma'ruf va orif" va qator g'azallar tahliliga to'xtalib o'tadi.

Ibrohim Haqqulov umri davomida adabiyot ixlosmandlari va Navoiy ijodi shaydolari qalbida o'z ijodiy faoliyati bilan o'chmas iz qoldirgan. U o'zini ziyoli, tiriklar ichida noyob hodisa o'laroq, tik turib yashab o'tgan shaxs sifatida tarixda qoldi. Tasavvufshunos olim sifatida Alisher Navoiy ijodini tadqiq etar ekan, o'zi ham Navoiy singari o'zbek adabiyotini yuksaklikka olib chiqdi. Ibrohim Haqqul mumtoz adabiyotni o'quvchi ko'ngliga singdirish yo'li va usulini topdi—uning muvaffaqiyati va kitoblarining shuhrati shunda. Biz Navoiy ijodini o'rganar ekanmiz, hazrat anglatmoqchi bo'lgan fikrlarni tushunishga harakat qilamiz, biroq mohiyatni to'liq anglamaymiz. Ibrohim Haqqul esa qariyb yarim asr umri mobaynida hazrat bilan tinim bilmasdan muloqot qildi va zamondosh va adabiy yo'ldoshlarni Navoiy dunyosiga chorladi. Alisher Navoiy ijodini ko'plab olimlar o'rgangan. Biroq ular orasida hech shubhasiz Ibrohim Haqqulning izlanishlari alohida ajralib turadi. Bu olimning mumtoz adabiyot tarixini yoxud Navoiy ijodini chuqr bilgani uchungina emas, balki

boshqalardan farqli ravishda biz tasavvurimizga sig‘dira olmagan haqiqatni, Navoiyda ham oddiy insoniy dardlarni ko‘ra olganligi, uning ijodini bugungi kun, bugungi zamon dardi bilan bog‘lay olganligidadir. «Navoiy shohning ham, gadoning ham, oshiqning ham, orifning ham –hamma-hammaning shoiri. Navoiy she’riyatidan kim nimani axtarsa, shuni topadi” – deya ta’kidlaydi olim. Bir umr Navoiy ijodi tadqiqi bilan shug‘ullangan, so‘z mulkining sultonini asarlarini qayta-qayta mutolaa qilib, ularning mag‘iz-mohiyatini chaqqan Ibrohim Haqqulning qator fikrlari hikmat darajasidagi ilmiy fikr kabi jaranglashi bejiz emas. Hozirgi navoiyshunoslikning ob-havosini belgilab kelayotgan olimlardan biri, shubhasiz, Ibrohim Haqqul hisoblanadi. Zero, bugungi o‘zbek navoiyshunosligini Ibrohim Haqqul faoliyati va tadqiqotlaridan ayri holda tasavvur qilib bo‘lmaydi. Biz Hazrat Navoiyni boshqa xalqlarga tanitmoq uchun emas, aslida o‘zimiz yaxshi yaxshi bilishimiz uchun ko‘proq tashvishlanishimiz zarurga o‘xshaydi. Ochig‘ini aytganda, biz hali Navoiy ijodiyotini kerakli va arziydigan darajada o‘qib –o‘rganganimiz yo‘q. Sho‘ro davrida mumtoz adabiyotimizga biryoqlama va yuzaki munosabat ulug‘larimizni to‘laligicha, munosib o‘rganishga imkon bermadi. Navoiyni puxta bilish uchun juda jiddiy va maxsus tayyorgarlik ko‘rish lozim. Alisher Navoiy hamma narsani erkinlik va vobastalikda talqin qilgan, inson qismati bilan bog‘liq har qanday haqiqatning istiqbolini tafakkur hurligida ko‘rgan. Demak, tuyg‘uda, ruhda, ko‘ngil va tafakkurda erkinlikni qaror toptirmay turib, Navoiy asarlarining asl ma’no-mohiyatini chaqishga urinish befoyda. Ibrohim Haqqul Navoiy dahosini anglagan, uni o‘zida yashattirgan, o‘zida kashf etgan ham olim, ham yetuk shaxs edi.

Bugungi kunda adabiyotga munosabat haqida Ibrohim Haqqul: “Yosh avlod faqat Navoiy asarlaridan emas, umuman, mumtoz adabiyotimiz chashmalaridan bebahra qolayotgani juda tashvishlanarli. Ahvol shu zaylda davom etaversa, yaqin besh-o’n yilda o‘tmish adabiyotimizga mutlaqo ehtiyoj sezdirmaydigan, basirati ko‘r, demakki, go‘zallik tuyg‘usidan mahrum, moddiy dunyo g‘am- tashvishidan boshqasini tan olmaydigan yoshlarning butun bir avlodi vujudga kelishi hech gap emas” deb kuyinib aytgan edi. Alisher Navoiy hayoti, adabiy, ilmiy merosini o‘rganish oliyjanob mehnat. Uning hayoti, ibratli faoliyati, merosiga qiziqish XV asrdan boshlangan. Navoiy asarlari o‘z tirikligida mashhur xattotlar tomonidan ko‘chirilgan. Ammo navoiyshunoslik XX asrda o‘zgacha shakllandi. Chunki Navoiy to‘g’risidagi bahs yuritgan hech bir olim sho‘ro mafkurasi tomonidan belgilangan chiziqdandan chetga chiqa olgani yo‘q. Shunday murakkab vaziyatda navoiyshunoslik sohasida yangicha yo‘nalish, yangicha tahlil usulini, yangi so‘zni qo‘rmasdan ayta olgan olimlardan biri Ibrohim Haqqul edi.

Uning ulug‘ o‘zbek shoiriga bag‘ishlangan tadqiqotlarini quyidagicha guruhlashtirib o‘rganish mumkin:

1. Navoiy haqidagi ilmiy va ilmiy-ommabop tadqiqotlar;

2. Turli tadqiqotlarida kelgan Navoiy asarlari tahlili;
3. Navoiyning turli janrlardagi she’rlari talqini:
4. Navoiy ijodini u suv ichgan chashmalar – Farididdin Attor, Jaloliddin Rumi, Abdurahmon Jomiy kabi salaflari va ustozlari asarlari bilan qiyosan tekshirish;
5. Navoiy haqidagi suhbatlar;
6. Navoiy asarlarini nashrga tayyorlash;
7. Navoiyga bag‘ishlangan turli anjumanlardagi ishtirok etish va hokazo.

Ijodkorning umumiy mehnat faoliyati sarhisobini quyida jadval asosida ko‘rishimiz mumkin.

50 yillik mehnat samarasini o‘laroq, Ibrohim Haqqulov ijodi uchun xos xususiyatlardan biri shu bo‘ldiki, u deyarli biror marta ko‘ngli buyurmagan ijodkor yoki bo‘sh, sayoz kitob to‘g‘risida maqola yozgani yo‘q. Hamisha haqiqat bilan qalam tebratishni o‘ziga dasturulamal qilib oldi. Ustozning bir suhbatlarida aytgan quyidagi fikrlari u kishining butun shaxsiyatlarini ochib bergan edi: «To‘g‘ri gap gapistidan cho‘chishni yo‘qotish kerak. To‘g‘ri gap uchun jazo olinmaydi, degan xulosaga kelish kerak. Haqiqatning yuki nihoyatda og‘ir, ko‘pchilik ko‘tarolmaydi uni. Haqiqatni aytish uchun, haqiqatga kurashish uchun, to‘g‘risini aytaymi, kafan yelkada bo‘lishi kerak.»

Ibrohim Haqqul tadqiqotlari uchun xos yana bir xususiyat shundan iboratki, u badiiy yoki ilmiy asarlar tahlili, olim-u adiblar hayoti va ijodi tadqiqi jarayonida iymon-e’tiqod, vatan, erk, hurriyat, vijdon, shaxs va shaxsiyat, mardlik, saxovat,adolat, himmat, odamiylik, ishq, do‘stlik, mehr-u shafqat, vafo sadoqat, yaxshilik, halollik, kabi insoniy tushunchalarni ulug‘lab, ularga qarama-qarshi nafs, zulm, razolat, qo‘rquv, xiyonat, e’tiqodsizlik, egrilik, tamagirlilik, tuturuqsizlik, riyo, yuzsizlik, o‘g‘rilik, iste’dodsizlik, sayozlik, nodonlik, johillik kabi illatlarni muttasil ravishda mazammat qilib boradi.

«Insonga go‘zal mohiyatni Alloh bergen. Alloh bergen narsani qaytarib olib bo‘lmaydi yoki o‘zgartirib bo‘lmaydi. Agar inson Allohga qancha yaqinlashsa, u shuncha bashariy irodasidan kechib yoki uzoqlashib ilohiy irodaga erishadi. Va ilohiy irodaga erishgan odam bu dunyoning g‘avg‘olari, hasad va xusumatlaridan juda baland bo‘ladi. U hech narsadan qo‘rqmaydi, chunki uning suyanadigan asosiy kuchi Allohga aylanadi.»- degan edi Ibrohim Haqqul. Darhaqiqat, ustoz hayot yo‘llarida hamisha Alloh taoloning qudratiga, madadiga tayandi. Hech kimga yalinmadı, yaldoqlanmadı. Ilmga sadoqati va shu yo‘ldagi sobitqadamligi ijodkorni qalblarimizga mangu muhrladi. Ushbu misralar bilan so‘zimizni yakunlaymiz:

Shunday yashaginki ketar chog‘ingda,  
Hamma giryon qolsin, sen borgil shodon.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:**

1. İLİM VE MARİFET NURLARI .PROF. DR. İBRAHİM HAKKUL’A ARMAĞAN KİTABI 2. 2020
2. Ibrohim Haqqul «Meros va mohiyat» Toshkent, Ma’naviyat 2008
3. Haqqul I. Mohiyatdan yiroqlashmaylik va tasavvufshunoslikdagi
4. g‘aroyibotlar/ “O‘zbekiston adabiyoti va san’ati”, 2002, 5-aprel, 3-bet.
5. Haqqul I. Navoiyga qaytish. Toshkent: “Fan”, 2007.
6. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 2 –kitob. Toshkent: “Fan”, 2011.
7. Haqqul I. Navoiyga qaytish. 3-kitob. Toshkent: “Fan”, 2016.

**O`ZBEKISTONNING JAHON MAMLAKATLARI O`RTASIDAGI  
IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI**

*Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
Iqtisod yo`nalishi 1-kurs talabasi  
Yo`ldoshev Bahodir O`rozmmamat o`g`li  
Ungboyova Sevinch Kamoliddin qizi  
Tel: +998912281225  
+998975507580*

**Annotatsiya:** O`zbekistonning jahon mamlakatlari o`rtasidagi iqtisodiy aloqalarining rivojlanishi mavzusi buyicha O`zbekistonning boshqa davlatlar bilan tutgan iqtisodiy aloqalari Yevropa Ittifoqi va Mustaqil Davlatlar Hamdo`stligi shartnomalariga kirgan davlatlar bilan tutgan iqtisodiy aloqalari haqida qisqacha malumotlar.

**Kalit so`zlar;** transport, xalqaro tashkilot, akkreditatsiya, konventsija, mintaqa, integratsion, Yevropa Ittifoqi, memorandum, hamkorlik, bitim, savdo, investorlar, kapital, sanoat, eksport, import, kredit, tranzit.

O`zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasining markazida joylashgan bo`lib, bu yerda mintaqa aholisining 45% yashaydi. O`zbekiston mintaqaning boshqa mamlakatlari (Qozog`iston, Qirg`iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan umumiyl chegaralarga ega bo`lgan yagona mamlakat, shuningdek u Yevropa bilan Osiyo – Tinch okeani mintaqasi va hamda, Janubiy Osiyo, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarini transport va telekommunikatsiya bo`yicha birlashtiruvchi muhim transport chorahasi hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasi jahoning 160 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Xitoy Xalq Respublikasida (16,6 %), Rossiya Federatsiyasida (14,2 %), Qozog`istonda (7,5 %), Turkiyada (5,9 %), Koreya Respublikasida (4,8 %), Germaniya (2,9 %) va Qirg`iz Respublikasida (1,7 %) qayd etilgan.

O`zbekiston asosiy va muhim xalqaro konvensiyalarning ishtirokchisi hisoblanadi. O`zbekiston jahon iqtisodiyotida turli darajadagi - global va mintaqaviy integratsion jarayonlarda qatnashish bilan bir paytda muhim tamoyilga, ya`ni bir davlat bilan yaqinlashish boshqa bir davlat bilan uzoqlashish evaziga bo`lmasligi kerak degan tamoyilga amal qiladi. O`zbekistonning jahon hamjamiyati davlatlari bilan integratsiyasining tarkibiy qismi turli davlat va xalqaro tashkilotlar bilan ko`p tarmoqli aloqalarni o`rnatayotganlidir. Bu o`rinda Yevropa Ittifoqi (YeI) muhim o`rinni egallaydi.

O`zbekiston Respublikasi va Yevropa Ittifoqi o`rtasidagi hamkorlik 1992 yilning 15-aprelida O`zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi Qo`mitasi o`rtasidagi o`zaro hamkorlik to`g`risida Memorandumning imzolanishi bilan boshlandi. 1994 yilning 24 yanvarida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qoshida Yevropa Ittifoqi qo`mitasining O`zbekistondagi texnik aloqalar hamkorligi bo`yicha byurosini tashkil etish to`g`risida qaror qabul qilindi. Bu tashkilotlarning maqsadi iqtisodiy islohotlar jarayoni va bozor munosabatlariga o`tishda texnik yordam ko`rsatish, shuningdek, O`zbekiston Respublikasi hukumati va Yevropa Ittifoqi qo`mitasining harakatlarining hamkorligini kuchaytirishdan iborat edi.

O`zbekiston Respublikasi bilan Yevropa mamlakatlari o`rtasidagi ko`p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish maqsadida 1996 yilning 21 iyunidagi sammitda Yevropa Ittifoqiga a`zo davlatlarning rahbarlari bilan “O`zbekiston va Yevropa hamjamiyati hamda unga a`zo davlatlar o`rtasida hamkorlik va sheriklik” to`g`risida bitim imzolandi. O`zbekiston Sobiq Ittifoq davlatlari ichida Rossiyadan keyin bunday bitim imzolagan ikkinchi davlat bo`ldi. Xullas, “Sheriklik va hamkorlik” haqidagi bitim O`zbekistonning Yevropa Ittifoqi a`zo davlatlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlarining huquqiy asosini tashkil qilgan bo`lib, ushbu bitim siyosiy, iqtisodiy, fan-texnikaviy va madaniy aloqalar uchun keng imkoniyat ochgan edi.

O`zbekistonda Respublikasining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a`zo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 3180.2 mln. AQSH dollrmi tashkil etadi. Shundan eksport hajmi 923.3 mln. AQSH dollarni, import hajmi esa 2256.9 mln. AQSH dollrga yetdi.

Jahon iqtisodiyotida yirik siyosiy, iqtisodiy va intellektual salohiyatga ega bo`lgan dunyoning yetakchi davlatlaridan biri - AQSh bilan ko`p tomonlama munosabatlarni chuqurlashtirish va rivojlantirish O`zbekiston uchun ustivor ahamiyatga ega. “O`zbekiston Respublikasi va AQSh o`rtasidagi strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to`g`risida Deklaratsiya” ikki mamlakat o`rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

AQSh kapitali ishtirokidagi investitsion loyihalar tog`-kon va neft-gaz komplekslari, agrosanoat kompleksi texnologik bazalari, oziq-ovqat sanoati va transport infratuzilmasini rivojlantirish kabi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida amalga oshiriladi.

Yaponiya O`zbekiston Respublikasini mustaqilligini 1991 yilning 28 dekabrida tan olgan yetakchi sanoati rivojlangan davlatlardan biridir. Ikki davlat o`rtasidagi diplomatik munosabatlar 1992 yilning 26 yanvarida o`rnatildi. Ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanishida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Yaponiyaga 1994 yilning may va 2002 yilning iyulida amalga oshirgan rasmiy tashriflari muhim rol o`ynadi. Tashriflar chog`ida O`zbek-Yapon davlatlararo munosabatlariga oid bir qator xujjalilar, jumladan “O`zbekiston Respublikasi va Yaponiya qo`shma bayonoti”, “O`zbekiston Respublikasi hukumati

bilan Yaponiya hukumati o`rtasida imzolangan bitimlarga O`zbekistonning xuquqiy vorisligi haqida maktublar almashinuvi”, shuningdek, “O`zbekiston va Yaponiya o`rtasida do`stona, strategik sheriklik va hamkorlik to`g`risida qo`shma bayonot”lar imzolandi. Ikki tomonlama munosabatlarni rivojlanib borishida 1994 yilda tuzilgan iqtisodiy hamkorlik bo`yicha O`zbek-Yapon va Yapon-O`zbek qo`mitalari muhim rol o`ynamoqda.

Respublikaga muntazam ravishda Yaponianing nufuzli parlament vakillari, ishbilarmon doiralari va siyosiy partiyalarning rahbarlari tashrif buyurmoqda. Mamlakatimiz eksport salohiyatini rivojlantirish uchun moliyaviy hamkorlik to`g`risida, neft-gaz va to`qimachilik sanoat tarmoqlarini, mineral xom-ashyo bazalarini rivojlantirish bo`yicha investitsion seminarlar, konferentsiyalar, prezентatsiyalarni tashkillashtirmoqda. Yaponianing iqtisodiyot, savdo va sanoat, hamda moliya vazirliklari bilan birgalikda doimiy ravishda moliyaviy va texnik hamkorlikni kengaytirish masalalari bo`yicha konsultativ yig`ilish va davra suhbatlari o`tkazilmoqda. O`zbekistonda Markaziy Osiyoda yagona bo`lgan xalqaro hamkorlik bo`yicha Yaponiya agentligi va tashqi savdo tashkilotlarining vakolatxonalari ochildi. Toshkent shaxrida esa O`zbek-Yapon markazi o`z faoliyatini olib bormoqda. Yapon bog`i ochilgan. Toshkentda hozirgi kunda Yaponiyalik investorlar ishtirokida tuzilgan 19 ta yirik Yapon kompaniyalar akkreditatsiya qilingan, 8ta qo`shma korxona ishlab turibdi. O`zbekiston Respublikasini rivojlantirishning strategik rejalarini amalga oshirishda muhim rol o`ynovchi Yaponianing moliyaviy-iqtisodiy yordamiga ustuvor ahamiyat berilmoqda. O`z navbatida Yaponiya ham O`zbekistonga Markaziy Osiyodagi vaziyatga katta ta`sir ko`rsata oladigan mintaqaviy yirik davlat sifatida qaraydi. Hozirgi kunda ikki davlat o`rtasida savdo soxasida mumkin qadar qulaylik berish rejimi o`rnatilgan.

O`zbekiston va Yaponianing iqtisodiy hamkorligi keyingi yillarda barqaror rivojlanib bormoqda. O`tgan yillar davomida respublikaga keltirilgan moliyaviy vositalarning umumiyligi hajmi 1,563 mlrd. AQSh dollarini tashkil etdi. Xalqaro hamkorlik sohasida Yapon banki (JBIC) tijoriy kreditlari orqali respublikaning yoqilg`i-energetika va to`qimachilik komplekslarida umumiyligi summasi 721,1 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan 8 ta investitsion loyihalarni moliyalashtirdi. Bundan tashqari JBIC orqali “Taraqqiyotga rasmiy yordam” dasturi orqali O`zbekistonga telekommunikatsiya, transport infrastrukturasi, energetika va maorif sohalari bo`yicha umumiyligi summasi 721,7 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan 7ta loyihami amalga oshirish uchun imtiyozli shartlar bilan davlatning yena kreditlari berildi. Beg`araz va insonparvarlik yordamlari bo`yicha esa sog`liqni saqlash, maorif, transport va madaniyat sohalariga umumiyligi summasi 130,83 mln. AQSh dollariga teng bo`lgan resurslar Yaponiya tomonidan ajratildi.

1993-2003 yillarda Yaponiya hukumati O`zbekistondagi tashkilot va muassasalarda (iqtisodiyot, telekommunikatsiya, turizm, transport infratuzilmasini va boshqa sohalarda) ishlashi uchun 150dan ortiq ekspertlar jo`natdi. Bundan tashqari respublikaning turli vazirlik va muassasalaridan 500 ga yaqin mutaxassislar Yaponianing ishlab chiqarish korxonalarida amaliyotni o`tab qaytishdi.

Xitoy Xalq Respublikasi bilan O`zbekiston o`rtasidagi o`zaro foydali hamkorlikning asosiy yo`nalishlari 1992 yil mart, 1994 yil oktyabr, 1999 yilning noyabrida O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning Xitoyga, shuningdek, 1994 yilda XXR Bosh Vaziri Li Penning, 1996 yilning iyulida XXR rahbari Tszyan Tszemining O`zbekistonga rasmiy tashriflari chog`ida aniqlab olindi.

O`zbekistonning Xitoyga eksporti ortmoqda, biroq eksportning asosiy qismini hozircha strategik xom ashyo: tabiiy gaz, uran, mis, paxta va mineral o`g`itlar tashkil qilyapti. Ushbu tovarlar orasida eng muhim o`rinni tabiiy gaz egallaydi, **Tabiiy gaz bo`yicha 2011 yilda imzolangan ikki tomonlama oldi-sotdi shartnomaga ko`ra, XXRga uni yetkazib berish 25 yilga mo`ljallangan.**

O`tgan yil oktyabrida O`zbekistonda Xitoyning “Alibaba” savdo platformasini davlat ro`yxatidan o`tkazish soddalashtirilgan edi. O`zbekistonning **bir** qandolatchilik kompaniyasi ushbu platforma bilan birinchilardan bo`lib 3 million AQSh dollarilik eksport shartnomasini imzoladi.

Savdo-sotiqlari aloqalarini kengaytirish maqsadida 2020 yil oktyabrida O`zbekiston Guanchjou shahrida bosh konsulligini ochdi. U O`zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi bunday shakldagi ikkinchi vakolatxonasıdir, ilk vakolatxona Shanhay shahrida faoliyat ko`rsatmoqda. Tomonlar bosh konsullik ochilishi ikki mamlakat o`rtasidagi munosabatlarni taraqqiyotiga qo`sishimcha turtki berishini, O`zbekiston viloyatlari bilan Xitoyning janubiy viloyatlari o`rtasidagi tovar aylanmasi oshishini kutmoqda.

Xitoy O`zbekiston iqtisodiyotiga eng ko`p investitsiya kiritayotgan davlatlardan biridir. Mamlakatimizda Xitoy kapitali ishtirokida 700dan ziyod kompaniya va korxonalar faoliyat ko`rsatmoqda. O`tgan yillar davomida Xitoylik sarmoyadorlar O`zbekiston iqtisodiyotiga qariyb 7.8 milliard dollr miqdorida investitsiya kiritgan.

2016-yil yakunlari bo`yicha o`zaro savdo aylanma hajmi 4.2 milliard dollrni tashkil qildi. Xitoy bozorida O`zbekistonda ishlab chiqarilagan to`qimachilik mahsulotlari, plastmassa buyumlar, qishloq xo`jaligi va boshqa tovarlarga talab kata.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 11-maydagi XXR tashrifida hukumatlararo texnikaviy hamkorlik to`g`risidagi, xalqaro avtomobil qatnovi to`g`risidagi bitimlar, umumta`lim maktablarida ta`lim sifatini oshirish, sog`liqni

saqlash sohasini asbob-uskunalar bilan jihozlashga doir loyihalarni moliyalashtirish to`grisida hukumatlararo natolar almashinuvi hamda vaternaruya va o`smliliklar inspeksiyasi karantini sohasida Anglashuv memorandum, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari o`rtasidagi hamkorlikni rag`batlantirish bo`yicha Anglashuv mamorendumi, qishloq xo`jaligi sohasida 2018-2020-yillardaga mo`ljallangan idoralararo almashinuvi hamkorlik rejasi kabi qator muhim hujjatlar imzolandi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 1992 yil iyun, 1995 yil fevral, shuningdek, 1999 yilda Koreya Respublikasiga tashrif chog`ida 1994 yilning iyunida esa Koreya Respublikasi Prezidenti Kim En Sanning O`zbekistonga rasmiy tashriflari chog`ida mamlakatlar o`rtasida o`zaro savdo - iqtisodiy munosabatlarini rivojlanishi uchun huquqiy asos qo`yildi va hamkorlikning asosiy yo`nalishlari belgilab olindi. O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida “Savdo to`g`risida”, “Investitsiyalarni o`zaro himoyalash va kengaytirish to`g`risida” kabi bir qator savdo-iqtisodiy, investitsion va ilmiy-texnikaviy bitimlar imzolandi. Hozirgi kunda O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida huquqiy-shartnomaviy asosga ega bo`lgan 22 ta hukumatlararo shartnoma va hujjatlar imzolangan.

1996 yilning 19 iyulida Asaka shahrida “UzDEUAvto” qo`shma korxonasining avtomobil ishlab chiqarish zavodini prezentsiyasi bo`lib o`tdi. 1992 yilning iyunida O`zbekiston va Koreya Respublikasi o`rtasida imzolangan savdo shartnomasiga muvofiq savdo sohasida birmuncha qulayliklar yaratildi. 2002 yilda ikki davlat o`rtasida tovar ayriboshlash 326,0 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo`lib, uning 67,0 mln. AQSh dollari eksportga va 259,0 mln. AQSh dollari esa importga to`g`ri kelgan edi. Respublika eksportining asosiy qismini bu davrda paxta tolasi, xizmatlar, mato va kalava iplari tashkil etgan. 2003 yilning 9 oyi mobaynida ikki mamlakat o`rtasida tovar ayriboshlash 179,1 mln. AQSh dollarini tashkil qilgan bo`lib, uning 39,1 mln. AQSh dollari eksportga, 140 mln. AQSh dollari esa importga to`g`ri kegan. 2007-yilning birinchi yarmiga kelib mamlakatimiz eksporti 1.4%, importi 9.0% tashkil etdi.

Hozirgi kunda Koreya Respublikasining eksport-import banki tomonidan O`zbekistonga taqdim etgan umumiy kreditlar hajmi 96,4 mln. AQSh dollariga yetdi. Ushbu mablag`lar hisobidan respublikada telekommunikatsiya tarmoqlarini rivojlantirish loyihalari, “UzDEUAvto” qo`shma korxonasiga qator yangi modellar qo`shish, respublika kollejlarini yangi o`quv jihozlari bilan ta'minlash, “O`zbek Ipagi” assotsiyatisyasingin ipak ishlab chiqarish korxonalarini texnik jihatdan qayta modernizatsiyalash ishlari bajarilmoqda.

O`zbekiston tashqi savdo aylanmasida ham Koreya Respublikasi yetakchi hamkorlardan biri sanalib, uning hissasi 7.3% ni tashkil etgan holda, hamkor mamlakatlar o`rtasida Rossiya (21.8%), Xitoy (17%) va Qozog`istonda (12.6%) keying 4-o`rinni egallaydi.

Ikki mamlakat o`rtasidagi iqtisodiy hamkorligning muhim yo`nalishlaridan biri – mehnat resurslari migratsiyasi va malakali kadrlar tayyorlash tizimidir. O`zbekiston va Janubiy Koreya o`rtasida tuzilgan hamkorlik shartnomalar doirasida 2007-2016-yillar davomida Janubiy Koreya mehnat bozorida o`zbekistonliklarning ishtiroki 25.5 ming kishidan ortiqni tashkil etgani holda, 2016-yil holatiga 16.9 ming kishi Janubiy Koreyada ishslashni davom ettirganlar.

O`zbekiston Malayziya, Vietnam, Hindiston, Indoneziya, Turkiya, Fors ko`rfazi davlatlari kabi bir qator Osiyo-Tinch okeani mintaqasi davlatlari bilan, Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlari bilan ham savdo iqtisodiy munosabatlarni olib bormoqda. O`zbekiston uchun o`tgan 10 – 15 yillar MDH davlatlari bilan ikki va ko`p tomonlama shartnomaviy munosabatlar doirasida teng va o`zaro foydali hamkorlik qilish uchun katta imkoniyatlar mavjudligidan darak bermoqda. Bunday hamkorliklar asosida nafaqat xududiy yaqinlik va iqtisodiy bog`liqliklar, balki chuqur tarixiy ildizlar, madaniy – ma’naviy aloqalar, yirik tarixiy davrlar mobaynida xalqlarning umumiyligi yotadi.

Jahon iqtisodiyotida MDH davlatlari O`zbekistonning asosiy savdo – iqtisodiy hamkorlaridan biri hisoblanadi. Ularning hissasiga Respublika tashqi savdo hajmining 30%dan ortig`i to`g`ri keladi. O`zbekistonning MDH mamlakatlari bilan tovar ayriboshlashi asosan, tenglik va o`zaro foydali tamoyillarga asoslangan. MDH mamlakatlari ichida O`zbekistonning yirik savdo hamkorlari bo`lib, Rossiya Federatsiyasi, Qozog`iston va Ukraina hisoblanadi.

O`zbekiston Respublikasining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining 30%i mintaqqa davlatlariga to`g`ri keladi. 1999 yildan buyon mintaqqa davlatlari o`rtasida tovar ayriboshlash tobora o`sib borayotganligini ko`rishimiz mumkin. Agar 1999 yilda mamlakatimizning mintaqqa davlatlari bilan tovar ayriboshlashi 525 mln. AQSh dollarini tashkil etgan bo`lsa, 2002 yilga kelib u 568 mln. AQSh dollarini tashkil etgan edi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan bo`lgan o`zaro savdoda O`zbekiston asosan ijobjiy saldoga ega. 2002 yil natijalariga ko`ra tovar ayriboshlashning ko`proq qismi Qozog`istonga tegishli (263,3 mln AQSh dollari) bo`lib, uning boshqa davlatlar bilan, jumladan Tojikiston bilan 116,9 mln. AQSh dollarini, Qирғизистон – 111,6 mln AQSh dollarini, Turkmaniston – 76,3 mln AQSh dollarini tashkil etdi.

2022-yil yanvar-mart natijalariga ko`ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 37,1 foizni tashkil etib, 2021-yilning mos davriga nisbatan 3 foizga kamaydi.

2022-yilning yanvar-mart oylarida MDH mamlakatlariga 1210,6 mln. AQSH dollrlri qiymatidagi Tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 21 foizini tashkil etdi.

Umuman olganda mintaha mamlakatlari o`rtasidagi tovar ayirboshlash asosan xom-ashyo yoki oddiy sanoat yoki qishloq xo`jalik mahsulotlari bilan xarakterlanadi. Bu esa ma'lum darajada savdo munosabatlari salohiyatini kamaytiradi. Hozirgi kunda O`zbekiston Markaziy Osiyo bozorida o`zining kimyoviy, to`qimachilik, elektrotexnika, aviatsiya, avtomobil, neft-kimyo sanoati va qishloq xo`jaligi mashinalari, qurilish materiallari mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilish bo`yicha yuqori o`rinlardan birida turibdi. Bugungi kunda O`zbekiston Markaziy Osiyo koridorida, o`z eksport va import hamda tranzit yuklarni tashish uchun 10 ta transport yo`laklaridan keng foydalanmoqda. Qo`shimcha yangi xalqaro transport va tranzit koridorini tashkil etish chora-tadbirlarini ham ko`rib bormoqda.

**Adabiyotlar:**

1. “Xorijiy investitsiyalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni 30.04.1998
2. “Erkin iqtisodiy zonalar to`g`risida”gi O`zbekiston Respublikasi qonuni 25.04.1996
3. Karimov I.A. O`zbekiston iqtisodiy isloxoatlarni chuqurlashtirish yo`lida T. O`zbekiston,. 1996
4. Karimov I.A. “O`zbekiston XXI asrga intilmoqda” T. O`zbekiston,. 1999
5. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz - jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va islox etishdir. T.: “O`zbekiston”, 2005.
6. Nazarova G.G` . Xaydarov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar (o`quv qo`llanma). T., TDIU, 2005.
7. Nazarova G.G` ., Xalilov X., Eshtaev A. va boshqalar. “Jahon iqtisodiyoti” (O`quv qo`llanma). T., 2005.
8. <http://www.bilimdon.uz>.  
<http://market.yandex.ru/catalog.xml>.

## **EXPRESSION OF SUBJECTIVE ATTITUDE IN A SCIENTIFIC TEXT (IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)**

***Shodiev Ibrohim Majidovich***

*Navoi State Pedagogical Institute*

*Senior teacher of the Department of Uzbek and Literature,*

***Sobirova Intizor Muhammatkulovna***

*Navoi State Pedagogical Institute*

*Faculty of Foreign Languages, Department of English Language and Literature*

*2nd course master student*

**Abstract.** This article provides information about scientific text, its types, characteristic features, and artistic text.

**Key words.** Scientific text, technical text, subjectivity, artistic text, speech.

### **The main part.**

A scientific text is the outcome or outcome of a process for a group of people who are appropriately qualified to perceive and create. To make it as informative as possible, the author should use written language, special products and methods of presenting materials. Often, a scientific text is a work that is published or intended for publication. The texts of the scientific plan receive special elements for oral presentation, for example, a report of a conference or an academic lecture.

The characteristic features of the scientific method are the tone, objective approach and disorganization of information, the structure of the text, terminology, and the special language tool adopted for the presentation of logical materials and among scientists.

A text in scientific style is a standardized scientific system. Importing the basis of the scientific method into the literary language, importing from standard sequences and expressions, using the language of "symbols" and formulas, from zikr and writings. For example, permission to accept in the scientific community: for example, ... it should be noted that the research came to the obtained data ... let's proceed to the analysis ... and the result.

To transfer scientific information to "artificial" language elements:

- 1) graphics, circles, blocks, drawings, drawings are widely used;
- 2) formulas and symbols;

3) special terms and lexical features of the scientific method, for example, names of physical quantities, mathematical symbols, etc.

The reference device (footnotes, comments, notes) forms more specific ideas about the topic of speech and serves to implement the quality of scientific speech, such as the accuracy of terms and the verification of sources.

That is, scientific methods, characterized by conformity to the norms of literary language, serve accuracy, precision and laconicism in the expression of research ideas. A monologic form is characteristic for a scientific lecture, the logic of the statement is determined consistently, the conclusions are formalized in the form of a complete and clear expression.

A scientific text is a written product based on scientific knowledge based on theories, concepts or any other subject through specialized technical language.

Scientific texts appear as a result of research. They present the development of the research process, its data, tests, results and conclusions in an orderly and systematic manner.

The information presented in the scientific text is the product of methodical and systematic work, as a result of which any event or fact is studied and analyzed on the basis of a number of assumptions, principles and laws. All of the above-mentioned results can be verified, thus ensuring their validity and universality.

Each text of the scientific method has its own logic of construction, which has a specific form that corresponds to the laws of construction. Usually the researcher follows the following scheme:

- Introduction to the essence of the problem, its relevance and renewal;
- Choosing a research topic (in some cases, an object);
- Setting goals, solving certain tasks during performance;
- Review of scientific sources that affect the research topic in any way, description of the theoretical and methodological basis for the work; Basis of terms;
- Theoretical and practical importance of scientific work;
- Content of scientific work;
- Description of the experiment, if it is carried out;
- Research results, conclusions based on its results.

There is a wide variety of scientific texts. Some examples are lectures, articles, theses, monographs, school or didactic manuals, promotional work, and books and journals in general in the health, social, mathematical, physical, chemical, biological sciences.

Scientific text and technical text have some similarities: they use clear and objective technical language that refers to concrete reality. In this sense, they are one and the same.

A scientific text differs from a technical text in that a scientist explains, reveals, and describes the development of a research process to present research findings.

A technical text, while based on science, is oriented toward technological or industrial applications, and consists of explanations and instructions that give practical guidance to the reader's work.

When we talk about literary texts, referring to scientific texts, opinion pieces, etc., we mean the writer's ability to create a story and share it with readers. Fictional texts in all cases, be they real or fictional, proceed from a basic argument and from there develop on the pages, creating a plot in any case; the subject can be varied and the only limit is the author's imagination.

Before starting to know in depth and detail the characteristics of a literary text, it is important to have an understanding of what a literary text is, so this will be the first thing that will be discussed in more detail.

It is a text that performs an artistic and expressive function (as opposed to non-literary texts that serve to inform or provide insight to the reader). The purpose of these texts is artistic and therefore it is agreed to present a subtle, clean and expressive language that not only communicates but also creates beautiful messages, sonorous phrases or powerful images.

The writer is engaged in giving poetic power to his text, so these are works of a subjective nature and depend on the creation of their author.

Likewise, literary texts offer the reader subjective, free, contemplative, experimental, or contemplative approaches to life, with no other motivation than to evoke these feelings and emotions in their minds. To do this, these artistic texts use a series of expressive resources called tropes, rhetorical figures or literary devices, through which they can use language in a more powerful, dynamic or even rhythmic way.

#### Features of the literary text

Next, the main features that constitute, share, or are supposed to correspond to different literary texts are presented, which are:

##### Subjectivity

It is not an objective text that corresponds to reality, but usually addresses the subject from an original and excellent perspective.

##### Language

In the process of performing the artistic text, he may allow breaking the grammatical rules (something that is very common in poetry), so we can assume that the style of each writer defines him as a literary artist.

#### References

1. *Doniyorov X, Yo 'ldoshev B. Adabiy til va badiy stil. Toshkent: Fan. 1988.*
2. *Каримов С. Узбек тилининг бадиий услибий: Филол. фанлари д-ри дис. ... атзореф. –Самарканд: Зарафшон, 1993.*
3. *Akobirov S. Til va terminologiya. -T., 1968.*
4. <https://fayllar.org/v-v-vinokurov-terminning-umum-qollanishdagi-sozdan-farqi-haqid.html?page=4>.

## TABLE OF CONTENTS / ОГЛАВЛЕНИЯ / MUNDARIJA

<b>№</b>	<b>The subject of the article / Тема статьи / Maqola mavzusি</b>	<b>Page / Страница / Sahifa</b>
<b>1</b>	SO‘Z TURKUMLARINI O‘QITISHDA KLASTER USULIDAN FOYDALANISH	<b>4</b>
<b>2</b>	ZAMONAVIY INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA FRAZEOLIGIK BIRLIKARINING KONTEKSTUAL MA’NOSI VA TARJIMA MASALALARINING XUSUSIYATLARI	<b>7</b>
<b>3</b>	MATEMATIKA DARSLARINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH	<b>12</b>
<b>4</b>	INFORMATIKA DARSLARIDA O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING SAMARALARI	<b>16</b>
<b>5</b>	ATSETILXOLIN FIZIOLOGIYA ASPEKTIDA	<b>19</b>
<b>6</b>	ОТРАЖЕНИЕ ВЛИЯНИЯ РОССИЙСКОГО КАПИТАЛА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ ТУРКЕСТАНСКОГО КРАЯ НА ОСНОВАНИИ НЕКОТОРЫХ ОТЧЕТОВ ГРАФА К.К. ПАЛЕНА	<b>21</b>
<b>7</b>	METHODOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF PROFESSIONAL TEACHERS TO CREATE MOBILE APPLICATIONS IN EDUCATION	<b>26</b>
<b>8</b>	PROBLEMS OF CHOICE OF LAW IN INTERNATIONAL COMMERCIAL ARBITRATION	<b>34</b>
<b>9</b>	INTERFAOL METODLARNING UMUMIY TASNIFI	<b>42</b>
<b>10</b>	TA’LIM TIZIMIDA FOYDALANISHGA MO’LJALLANGAN DASTURIY TA’LIM VOSITALARI TASNIFI	<b>47</b>
<b>11</b>	INGILIZ TILI VA RUS TILINI O‘QUVCHILARGA OSON O’RGATISH USULLARI VA SAMARADORLIGI	<b>52</b>
<b>12</b>	NEW PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES AND THEIR APPLICATION IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS	<b>61</b>
<b>13</b>	ZAMONAVIY NEMIS VA O‘ZBEK TILLARIDA ISMLAR TARIXIY SHAKLLANISHI	<b>65</b>
<b>14</b>	СТАНОВЛЕНИЕ И РАЗВИТИЕ СОТРУДНИЧЕСТВА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН И РЕСПУБЛИКИ КОРЕЯ В ОБЛАСТИ ЭКОНОМИКИ И КУЛЬТУРЫ	<b>68</b>
<b>15</b>	“INDIGOFERA TINCTORIA” O’SIMLIGI ILDIZINING TARKIBIDAGI INDIGO HOSILALARINI O’RGANISH	<b>72</b>
<b>16</b>	BOLA SHAXSINI SHAKLLANISHIDA PSIXOLOGIK O‘YINLARNING AHAMIYATI	<b>78</b>
<b>17</b>	O‘SMIRLIK DAVRIDA OG‘ISHGAN XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK O’ORGANILINGALIGI	<b>84</b>

<b>18</b>	ZAMONAVIY PSIXOLOGIK KONSULTATSIYANING PSIXOLOGIK AMALIYOTDA QO'LLANILISHI XUSUSIYATLARINI EKSPERIMENTAL TADQIQ QILISH	<b>89</b>
<b>19</b>	QO'SHMA GAPLAR YUZASIDAN OLIB BORILGAN TADQIQOTLAR	<b>98</b>
<b>20</b>	INVESTIGATION OF GENERAL AND SPECIAL PROPERTIES OF CONCRETE AND MORTAR MIXTURES AND HARDENED CONCRETE WITH ADDITIVES OF SURFACTANTS	<b>102</b>
<b>21</b>	POETIK INDIVIDUALLIKNI YUZAGA CHIQARISHDA ZID MA'NOLI SO'ZLARNING AHAMIYATI (XURSHID DAVRON SHE'RIYATI MISOLIDA)	<b>105</b>
<b>22</b>	YEVROPADA INTELEKTUAL MULK HUQUQI SAVDOSI: MILLAT MINTAQASIDAGI IPDAN XALQARO IPGACHA	<b>108</b>
<b>23</b>	USTOZ - IBROHIM HAQQUL IJODIGA CHIZGILAR	<b>113</b>
<b>24</b>	O'ZBEKİSTONNING JAHON MAMLAKATLARI O'RТАSIDAGI IQTISODIY ALOQALARINING RIVOJLANISHI	<b>118</b>
<b>25</b>	EXPRESSION OF SUBJECTIVE ATTITUDE IN A SCIENTIFIC TEXT (IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES)	<b>125</b>

**Note!—Pedagogs || articles and numbers in the legal, medical, social, scientific journal, information in classes, information rights and the correct authorities are responsible for the accuracy of the authorities.**

**Editor in chief  
Saidova Mohinur Jonpo'latovna**

**Executive Secretary  
Abdurahmonov Boburjon**

**Preparing for publishing  
Xoliqov Toxirjon Shavkatjon o'g'li**